

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

5-son
(maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Sog'lom turmush tarzi – farovon hayot asosi ekanligini targ'ib qilish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- T. Achilov 6** Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida o'zaro hamkorlikning didaktik imkoniyatlari
- A. Abdulaxatov 10** Kurash orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirishning ilmiy-nazariy asoslari
- A. Tursunov 13** Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining pedagogik imkoniyatlari
- A. Abdulaxatov, B. Muxtorov 16** Talaba-yoshlarda kurash sport turini tatbiq etish ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida
- A. Shadiyev 20** Bolalar va o'smirlar bilan o'tkaziladigan yengil atletika mashg'ulotlarining ilmiy-amaliy ahamiyati
- M. Shermatov 24** Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturida voleybol darsining ahamiyati
- J. Shukurllayev 28** Voleybol sport turi vositasida maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik imkoniyatlari
- J. Xudoyberganov 31** Ta'lim muassasalarida o'quvchilar jismoniy tarbiyasining amaliy ahamiyati



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- F. Nurmatov 34** Harakatli o'yinlar bola tarbiyasining asosiy usuli sifatida
- U. Zokirov 38** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning shakllari
- A. Yusupbayeva 42** Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlarni tashkil etish usullari
- R. Atajanova 46** Ishchi daftarning boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy qobiliyatini shakllantirishdagi o'rni
- B. Ko'kiyev 49** Yordamchi proyeksiyalash usulida pozitsion masalalarni yechishning metodik qulayligi



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- S. Xabibullayev 53** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport o'yinlari futbol bo'yicha musobaqalarni tashkil etishning ahamiyati
- J. Shukurllayev 57** Klaster yondashuv asosida voleybolchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish
- A. Sultonov 60** Belbog'li kurash qoidalarining xususiyatlari
- V. Karayev 63** Kompetensiyalarning innovatsion ta'lim klasteridagi ahamiyati
- D. Umaraliyeva 66** Sportchilarda dispanser nazoratini tashkil etishning xususiyatlari



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- I. Marasulova, N. Boymurotov 69** O'zbekiston me'moriy yodgorliklarida naqsh bezaklarining ahamiyati
- S. Sobirov 73** Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirishda tasviriy san'atning o'rni



TA'LIM VA TARBIYA FIDOYILARI

- B. Baymetov 76** El sevgan ijodkor rassom, maktab yaratgan mehribon ustoz
- S. Ataxanova 80** Chizma geometriya va chizmachilik fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar
- M. Achilova 84** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tasviriy faoliyatda ijodkorligini rivojlantirish
- E. Achilova 88** O'tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosi



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

- X. Muratov 92** Mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda elektron ta'lim resurslari hamda multimediali o'qitish vositalaridan foydalanishning dolzarbligi
- U. Zokirov 97** Oliy pedagogik ta'lim magistrlarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish usullari
- Sh. Jo'rayev 101** Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish



ТЕОРИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

- Т. Ачилов 105** Кластеризация методических задач учебной дисциплины "Физическая культура" в высшем образовании
- И. Чориев 109** Педагогическое проектирование кластерного подхода в системе повышения квалификации
- Р. Маматкулов 112** Научно-теоретические основы развития физической культуры студентов высших учебных заведений кластерным методом
- В. Караев 115** Развитие профессиональной компетентности преподавателей школы на основе кластерного подхода



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ

- А. Султонов 118** Значение кластерного метода в развитии физической культуры детей школьного возраста
- Т. Зуфаров 121** Методика развитие координационных способностей у детей младшего школьного возраста
- С. Хабибуллаев 126** Совершенствование педагогических механизмов обучения правилам спортивных игр на уроках физической культуры
- А. Жумаев 131** Методика специальной физической подготовки студентов по волейболу в соревновательном периоде методом кластера
- Т. Зуфаров 135** Общепедагогические методы используемые на уроке физического воспитания в школе



ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

- И. Чориев 139** Андрагогический подход к педагогическим проектированиям в системе переподготовки и повышения квалификации

SOG'LOM TURMUSH TARZI – FAROVON HAYOT ASOSI EKANLIGINI TARG'IB QILISH DOLZARB IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda.

Inson salomatligi bu – eng avvalo, uning ruhiy va fiziologik sifatlarini rivojlantirish, umrning maksimal davomiyligida maqbul darajadagi ishchanlik qobiliyati va ijtimoiy faolligini saqlab qolishdan iboratdir. Ko'pgina olimlarning fikricha, inson organizmining funksional imkoniyatlari va uning tashqi muhitdan bo'ladigan noxush omillarga barqarorligi butun umri davomida o'zgarib turadi, negaki, salomatlikni saqlash, jo'shqin jarayon bo'lib, u yosh, jins, kasbiy faoliyat, yashash muhitiga bog'liq holda yaxshilanib (salomatlik bo'shashib yoki mustahkamlashib) boradi. Odam hayoti, sog'lig'i – eng katta ijtimoiy boylikdir. Bu oila, maktab va inson tarbiyasi, kamoloti bilan shug'ullanuvchi maskanlar oldiga sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Millat sog'lig'i ham tabiiy ravishda, sog'lom turmush tarzi orqali hal etiladi.

Salomatlik – inson organizmining biologik, ruhiy, jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligidir. Sihat-salomatlik har bir kishi uchun baxt-saodatdir. Uning mehnat unumdorligi, mamlakatning iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini rivojlantirishning zarur shartidir. Umumxalq mulki bo'lmish sihat-salomatlikka nisbatan ongli va mas'uliyat bilan yondashish jamiyat va uning barcha a'zolarining turmush, axloq normasi bo'lmog'i lozim.

Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish har xil yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Bu bir tomondan, o'quvchi-yoshlarga va kattalarga sog'lom turmushga oid ma'lum bir tibbiyot va gigienik bilimlarni berishga, ularga sog'lom turmush tarzi organizm rivojiga qanday ta'sir etishi haqidagi tasavvurlarning uyg'onishiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ta'lim-tarbiyada gigienik qoidalarga amal qilishga, o'zini va yon atrofdagilarni sog'lig'ini asrashni kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liqdir. Bu borada sog'lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalarida, barcha ta'lim-tarbiya muassasalari bilan hamjihatlikda maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida keng targ'ib qilinmog'i zarur.

Sog'lom turmush tarzi – bu insonning salomatligi xavfsizligani ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatligining yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy hodisadir. Sog'lom turmush tarzi – inson turmush sharoitlarini faol o'zlashtirish usuli bo'lib, kun tartibiga rioya qilish, faol harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, to'la va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigiyenik qoidalariga rioya qilish, muloqot va ekologik madaniyatga erishish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida manaviy tarbiya olish, zararli odatlardan o'zini tuta bilish demaqdir.

Yangi jamiyatning zamonaviy tarbiya konsepsiyasi inson shaxsini, ya'ni, barkamol, yetuk, qo'yilgan maqsadga erkin va o'z kuchi bilan erisha oladigan yoshlarni shakllantirishga qaratilgandir. Bu bir tomondan, shaxsning har tomonlama gormonik rivojlanishini, ikkinchi tomondan, uning butun rivojlanishi jarayonida ruhiy, jismoniy, ma'naviy sog'lom o'sishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Inson hayoti, sog'lig'i eng katta ijtimoiy boylikdir. Bu oila, maktab va inson tarbiyasi, kamoloti bilan shug'ullanuvchi maskanlar oldiga sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Millat sog'ligi ham tabiiy ravishda, sog'lom turmush tarzi orqali hal etiladi.

Yosh avlodning sog'lig'iga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni bilishni, o'quvchi-yoshlarda sog'lom turmush tarzining shakllantirishning metodologik, psixologik, pedagogik, tibbiy va gigiyenik asoslarini yaratishni taqozo etadi. Har bir o'quvchi-yosh "salomatlik" tushunchasi; salomatlik omillari; salomatlikni saqlashda organizmning himoyalaniishi to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi kerak. Turmush tarzining o'zi inson yashashi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini o'zlashtirishi demak.

Har bir shaxsning turmush tarzi kun sayin ro'y berayoggan voqea-hodisa va turli o'zgarishlarning ta'siri ostida shakllanmoqda. O'zaro munosabatlarning o'zgarayotgani o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir etmoqda. Natijada, ularda o'z taqdiri, oilasi, jamoasi uchun zarur bo'lgan aqliy, hissiy va erkiga oid xatti-harakatlar tanlash mas'uliyatini oshirmoqda. Ular natijasida yuzaga keladigan asab kasalliklarining oldini olish zarur. Buning uchun esa eng avvalo, shaxsiy va ijtimoiy miqyosda sog'lom turmushni tashkil etish talab etiladi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va amalga oshirish yo'llarini bilishi kerak.

Jismoniy mashqlarni bajarish natijasida organizmning himoya vositalari yaxshi rivojlanadi. Bolalik, o'smirlilik davridan boshlangan chiniqish mashg'ulotlari, ayniqsa, foydalidir. Har bir kishida mustahkam rejimga amal qilish odatini tarbiyalash zarur. Badantarbiya bilan shug'ullanishni, toza havoda sayr qilish, sport o'yinlarida ishtirok etish, uzoq umr ko'rish va salomatlikni ta'minlovchi omillardandir. Har bir shaxs muntazam ravishda muayyan darajada jismoniy qobiliyatga mos keluvchi jismoniy harakatlarni bajarishga odatlanishi lozim.

O'qituvchi ta'lim jarayonida turmush tarzining salomatlikni saqlash va mustahkamlashda tutgan o'rni; inson umrini davrlarga bo'lish; bolalarning o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, jismoniy holatini aniqlash; bolalik davrida uchraydigan anatomik va fiziologik nuqsonlarni to'g'ri holatga keltirish; to'g'ri qaddi-qomatning gigiyenik asosi; bola va o'smirlarda uchraydigan qomatning buzilish turlari, sabablari va uni tuzatish usullari; jismoniy tarbiyaning gigiyenik asoslari; organizmni mustahkamlash va chiniqtiish uchun tabiatning tabiiy kuchlaridan – quyosh, havo va suvdan foydalanish; insonning sog'lom turmush kechirishida jismoniy tarbiyaning ahamiyati, masalalariga alohida ahamiyat bermog'i va o'quvchilarda shu tushunchalarni shakllantirmog'i zarur.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o'ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta'minlash, xalq genofondini bekamu-ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, ta'lim-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta'lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog'lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Telman ACHILOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim" fakulteti dekani

PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASSTER YONDASHUVIDA O'ZARO HAMKORLIKNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida maktab-laboratoriya tajribasining tarmoqlararo o'zaro hamkorligi asos sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasida nafaqat o'qitishga qaratilgan pedagogik ta'lim innovatsion klasterini shakllantirish va rivojlantirish, balki mintaqaning kelajakdagi professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari nuqtayi nazaridan talabalar hamda o'quvchilarning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik ta'lim innovatsion klaster, maktab-laboratoriya, innovatsion faoliyat, tarmoqlararo o'zaro hamkorlik, mintaq, model, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi, tajriba, kompetentlik.

В данной статье в качестве основы указано межотраслевое взаимодействие школьного и лабораторного опыта в инновационном кластерном подходе педагогического образования. Также формирование и развитие инновационного кластера педагогического образования между образовательным направлением физическая культура и общеобразовательными школами, ориентированного не только на преподавание, но и на развитие научно-творческого потенциала учащихся и воспитанников с точки зрения будущих потребностей региона в профессиональных кадрах.

Ключевые слова. Педагогический образовательный инновационный кластер, школа-лаборатория, инновационная деятельность, межотраслевое сотрудничество, регион, модель, образовательное направление физической культуры, опыт, компетенция.

This article presents the interdisciplinary interaction of school-laboratory experience in an innovative cluster approach to teacher education. As well, physical education is directed on formation and development of innovation cluster of pedagogical education, aimed at training both in education and among schools in General, but also tailored to the needs of the region's future professional workforce, the development of scientific and creative potential of pupils and students.

Key words. Pedagogical educational innovation cluster, school-laboratory, innovation activity, inter-industry cooperation, region, model, educational direction of physical culture, experience, competence.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ta'limda pedagog – o'zining ijodkorligi, faolligi, individualligi, tanqidiy fikrlashi, kasbiy pedagogik kompetentligi, ya'ni kompetentliklar majmui hamda innovatsion ta'lim

texnologiyalarini joriy etish orqali pedagogik mahorat darajasini doimiy ravishda rivojlantirib borishga intilishi bilan ajralib turadi.

Kasbiy mahoratga ega bo'lish uchun pedagogik yo'nalish, kasbiy jihatdan ahamiyatli shaxsiy sifatlar, asosiy pedagogik qobiliyatlar, kasbiy kompetentlik, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirish, malaka oshirish, pedagogik ijodkorlik va innovatsiyalar zarur.

Klaster siyosati mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosi bo'lib xizmat qiladi va ta'lim tizimiga nisbatan klasterlarni mintaqa ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish masalasini hal qilish uchun professional kuchlarni sintez qiluvchi innovatsiya markazi sifatida ko'rsatish mumkin.

Ta'lim murakkab tizim bo'lib, unda ko'plab mustaqil to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq qismlar mavjud. Har qanday tizim faqat teskari aloqa mavjud bo'lsa, samarali ishlaydi. Shuning uchun maktab va institut hamkorlik shakllarini rivojlantirishni o'rganishi kerak. Bunday hamkorlikni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonini tashkil etishda klaster modelidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik ta'lim innovatsion klaster – bu shartnomalar asosida o'zaro hamkorlik qiluvchi va ta'lim mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ilmiy, o'quv va innovatsion maqsadlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi jug'rofik mahalliyashtirilgan tashkilotlar guruhidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda klaster tushunchasiga bir qancha ta'riflar berilgan. Ma'lum bo'lgan barcha ta'riflarni tahlil qiladigan bo'lsak, bu tushunchaning ikkita fundamental xususiyatini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birinchidan, klasterdagi ta'lim muassasalar vertikal va gorizontal bo'lgan ulanishlar bilan bog'liq bo'lishi kerak va bu aloqalarning aksariyati ta'lim muassasalar uchun foyda keltiradigan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, klasterlar o'zaro bog'langan jug'rofik jihatdan yaqin ta'lim muassasalari guruhlarining afzalliklarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Klasterda oliy ta'limning o'rni muhimligini hisobga olib, bu turdagi klasterlarni ta'lim-tarbiya va hamkorlik munosabatlari bilan o'zaro bog'langan ta'lim muassasalari majmui bo'lgan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri sifatida ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Pedagogik ta'lim klasterining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- soha talabiga o'z vaqtida javob beradigan samarali ta'lim xizmatlari sohasini yaratish; innovatsion ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, kasbga yo'naltirishni tashkil etish; hamkorlikka oid me'yoriy-huquqiy xujjatlarning ishlab chiqilishini ta'minlash; umumiy o'rta ta'lim va bakalavriat/magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv faoliyatini birgalikda loyihalash;

- pedagogik ta'lim innovatsion klasterining muhim farqlovchi xususiyatlari: bo'lajak pedagog kadrlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash; o'qituvchilik kasbining nufuzini ko'tarish;

- pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amalga oshirishning eng asosiy sharti va shakli sifatida "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalarini olish mumkin.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri TVChDPI "Jismoniy madaniyat" ta'lim yo'nalishining strategik tadqiqot yo'nalishi bo'lib, "Maktab-laboratoriya" uning yadrosi – amaliyotga tatbiq etish shakli hisoblanadi. "Maktab-laboratoriya"lar ilmiy-pedagogik innovatsion loyihalarni yaratish va tajriba-sinovdan o'tkazish bilan bog'liq muhim vazifalarni bajaradi.

Bugungi kunda Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida shunday 4 ta "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalari tashkil

etilgan. Bu boradagi ishlarni tizimli va muayyan reja asosida olib borish maqsadida “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo’nalishi va Chirchiq shahar xalq ta’limi bo’limining umumiy o’rta ta’lim maktablari o’rtasida hamkorlik shartnomalari hamda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan.

“Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalarining maqsadi uzluksiz ta’lim jarayonida ta’lim turlari o’rtasidagi ilmiy, uslubiy va ta’lim vositalarini rivojlantirish, pedagogik ta’lim innovatsion klasterini amaliyotga tatbiq etish bilan bog’liq ilmiy-pedagogik loyihalarni tajriba-sinovdan o’tkazishdan iborat.

Pedagogik ta’lim innovatsion klaster modellari jismoniy madaniyat ta’lim yo’nalishi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirish maqsadida hamkorlikni rivojlantirishning maqsadli jarayonining aniq taqdim etishga imkon beruvchi tashkiliy, boshqaruv, texnologik va mazmun darajalarini o’z ichiga olgan yaxlit ta’limdir.

Pedagogik ta’lim innovatsion klaster tuzish maqsadlari:

- bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish;
- hududdagi oliy ta’lim muassasasi va maktablarning turli faoliyatlarini rivojlantirishning innovatsion xususiyatini ta’minlash;
- ta’lim va fan integratsiyasi.

“Jismoniy madaniyat” ta’lim yo’nalishining “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari asosida o’zaro hamkorlikning quyidagi modellarini amalga oshiradi:

1. Informatsion-anglash ijtimoiy faoliyati. Ushbu model doirasida tashkiliy xizmatlar amalga oshirildi: sport to’garaklari, master-klasslar, ma’ruzalar, ilmiy-amaliy anjumanlar, konsultatsiyalar, ekskursiyalar tashkil etilmoqda.

2. Muammoli-tahliliy yoki munozarali faoliyat, unga tayyorgarlik ko’rish, anketa va so’rovnomalar, treninglar, mahorat darslari, muammoli seminarlar, davra suhbatlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlari o’tkazilmoqda.

3. Ijtimoiy-rolli modelga o’rta maktab o’quvchilarining kasbiy tayyorgarligiga yo’naltirilgan ijtimoiy tadbirlar (tanlovlar, olimpiadalar, konferensiyalar, loyiha faoliyati, yosh sportchi maktabi va boshqalar kiradi) tashkil etilmoqda.

4. Sport faoliyati sinfdan tashqari ishlarning turli shakllariga qaratiladi.

O’zaro hamkorlikning asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

- o’quv-uslubiy o’zaro hamkorlik;
- ilmiy-uslubiy o’zaro hamkorlik;
- o’qituvchilarning kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish kurslarini tashkil etish;

Ta’lim muassasasining klaster shakli zamonaviy kasbiy kompetensiyaga ega bo’lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga olib keladi.

Shartli ravishda quyidagi bloklarni “Maktab-laboratoriya” tajriba maydonchasi doirasida belgilash mumkin:

1. Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari uchun tadbirlar sikli.
2. O’rta va yuqori sinf o’qituvchilari uchun tadbirlar sikli.
3. Sinfdan tashqari ta’lim o’qituvchilari uchun tadbirlar sikli.
4. Maktablarning yetakchi fan o’qituvchilari va jismoniy madaniyat ta’lim yo’nalishining professor-o’qituvchilarining ochiq darslari.
5. Jismoniy tarbiyaning dolzarb masalalarini hal etish.

O’qituvchining kasbiy bilim, ko’nikma va malakasini oshirish qanchalik muvaffaqiyatli bo’lsa, kasbiy faoliyatda o’z-o’zini anglash imkoniyatlari shunchalik keng bo’ladi.

Bazaviy sport maydonchalarida sport turlari bo’yicha musobaqalar, ilmiy-tadqiqot

konferensiyalar, ilmiy laboratoriyalar, maktab va jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilar, talabalar hamda o'quvchilar uchun qo'shma seminarlarni tashkil etish va o'tkazish pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muhitini yaratishga imkon beradi.

Ta'kidlash joizki, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi va maktablarni hamkorlik qilish vositasi sifatida amalga oshirish muhimdir:

- “maktab-institut-maktab” modelidagi ishlarni takomillashtirish, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi orqali ishtirokchilar sonini kengaytirish va klaster ichidagi o'zaro hamkorlik shakllarini diversifikatsiya qilish;

- yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga metodik yordam ko'rsatish;

- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarini muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlash va pedagogik amaliyot davrida dars berishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratish;

- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish orqali ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakasini oshirishni ta'minlash;

- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi va maktablar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillari asosida aloqalar o'rnatish;

- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi doirasida talabalarning o'z-o'zini boshqaruvini rivojlantirish;

- talabalarni ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishga jalb qilish;

- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterini tashkil etish zamonaviy o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining eng muhim vazifasi – mutaxassislarni massreproduktiv ishlab chiqarishdan ularning individual va ijodiy tayyorgarligiga o'tish, o'qituvchining ijodiy raqobatdosh shaxsini shakllantirishga ham yechim topadi. Klasterda kasbiy tayyorgarlikning o'zgaruvchanligi, yangi istiqbolli mutaxassisliklarni kashf etish, yangi fanlarni, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalasini hal qilish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxamedov G'I., Xodjamqulov U.N. *Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif. Chirchiq, Universitet – 2019.*

2. Xo'jamqulov U.N. *Maktab-laboratoriya. Chirchiq – 2019.*

3. Иваниская И.И. Образовательный кластер – новая форма взаимодействия образовательных учреждений с целью повышения эффективности их деятельности [Текст] / И. И. Иваниская // *Научные труды CWorld.* – 2013. – Т. 40. – №3. – С. 21-27.

4. Корчагин Е.А. Социальное партнерство как механизм управления образовательным кластером [Текст] / Е.А. Корчагин // *Инновации в образовании.* – 2007. – №6 – С. 43-51.

5. Пуденко Т.И. Образовательные кластеры как модель управления развитием образования на муниципальном уровне, повышающая доступность качественных образовательных услуг [Текст] / Т.И. Пуденко // *Управление образованием: теория и практика.* – 2014. – № 3 (15). – С. 33-45.

6. Соколова Е.И. Термин “Образовательный кластер” в понятийном поле современной педагогики [Текст] / Е.И. Соколова // *Непрерывное образование: XXI век.* – 2014. – № 2 (6). – С. 153-160.

Akram ABDULAXATOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Fakultetlararo jismoniy tarbiya" kafedrası mudiri

KURASH ORQALI TALABALARGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHNING ILIMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada dunyoda jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan o'zbek milliy sport brendi hisoblangan kurash sport turining milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligi, oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlar tarbiyasidagi tutgan o'rni haqida, shuningdek, o'tkazilgan pedagogik tajribalar jarayonida olingan natijalar muallif tomonidan taqdim etilgan.

Kalit so'zlar. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, kurash, kurash tarixi, vatanparavarlik, ta'lim-tarbiya, jismoniy tarbiya, rivojlanish, ma'naviy-tarbiya.

В статье представлена информация о национальной и общечеловеческой ценности вида спорта "Кураш", являющегося динамично развивающимся узбекским национальным спортивным брендом, о его роли в воспитании студенческой молодежи в системе высшего образования, а также результаты, полученные в ходе проведенных педагогических экспериментов.

Ключевые слова. Национальные и общечеловеческие ценности, борьба, история борьбы, патриотизм, воспитание, физическое воспитание, развитие, духовное воспитание.

The authors present the dynamically developing Uzbek national sport, the brand of wrestling as a national and universal value, its role in educating students in the higher education system, as well as the results of pedagogical experiments.

Key words. National and universal values, struggle, history of struggle, patriotism, education, physical education, development, spiritual education.

O'zbekiston Respublikasida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirish, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning bajarilish jarayonida, yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash hozirgi kundagi muhim muammo sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-oktabrdagi "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori qabul qilindi. Qarorda "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash nazarda tutilgan.

Prezidentimiz tomonidan "Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga" yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda kasbiy masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan va shu kabi muhim vazifalar belgilandi¹. Bunda kasbiy faoliyat ijtimoiy mazmunini, bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarning kasbiy mahoratlarini shakllantirishda individuallashtirish ta'limi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 03.06.2017-y. № PQ-3031 sonli Qarori..

mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

Kadrlar tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal qilish oliy ta'lim muassasalari (OTM) pedagoglariga yuklanadi, ular o'zlarining kundalik faoliyatlari davomida beshta asosiy: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, salomatlikni saqlovchi vazifalar va talablarni oldinda turgan kasbiy, ijtimoiy, oilaviy hayotga tayyorlash vazifalarini bajarishlari zarur. Mustaqillik yillarida qadriyatlarni tiklash va yosh avlod ongida xalqning bir necha asrlik boyliklari bilan faxrlanish tuyg'usi shakllantirilmoqda. O'zbek xalqining avlodlarini alp qomatli, pahlavon, jasur va mard kishilar bo'lganligi tan olindi, ularni xuddi shunday fazilatlariga boy qilib tarbiyalashga xizmat qilgan vositalardan biri bo'lgan kurashga e'tibor kuchaydi. Milliy istiqlol sharofati bilan kurash dunyo yuzini ko'rdi. Kurash o'zbek xalqining urf-odati, milliy qadriyati maqomida chet ellarga kirib bordi. Ha, kurash – xalqimizning oliy qadriyatlaridan biri. U asrlar davomida shakllandi, takomillashdi, aqidalari umumbashariy falsafa bilan uyg'unlashib ketdi. Natijada, xalqimizning ma'naviyati va ruhiyatining tayanch nuqtalaridan biriga aylandi.

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vositalardan biri sanaladi. Ayniqsa tarixiy taraqqiyoti uzoq o'tmishga borib taqaluvchi milliy sport turlari o'z mazmunida milliy xususiyatlarni to'la aks ettirganligi bilan ahamiyatli hisoblanib, ulardan tarbiya jarayonida unumli foydalanish o'ta ahamiyatli pedagogik muammo sanaladi. Talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida rivojlantirish, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi ham muhim o'rin egallaydi.

Kurash xorijiy davlatlar va O'zbekiston Respublikasida ham sport turlari vositasida yoshlarni tarbiyalashga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Respublikamizda kurashga doir quyidagi ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshirilgan. Kurashni texnik-taktik jihatdan rivojlantirish va ommaviylashtirish yuzasidan A.K.Atoyev, F.A.Kerimov, O.Toymurodov, J.Toshpulatov, O'.I. Ibragimov, J.Tursunov, K.T. Yusupov, A.Obidov, D.Nurjin, I.H. Boymurodov, B.D. Berdiqulov, X.R. Axmedovlar tomonidan tadqiq qilingan.

Quyidagi olimlar U.Qoraboyev, M.Murodov, J.Tulenov, G.Tulenova, A. Mavrulov, A.Begmatov, M.Kaxxarova, E.Yusupov, O.Gaybullayev, X.T.Rafiyev, P.Paxriddinov, O'.Ibragimov, F.Q.Axmedov, R.Abdumalikov, P.Xodjayev, D.K.Yarashev, M.Dusembetovlar milliy sport turlari va milliy o'yinlarni qadriyat ekanligini asoslaganlar va ulardan tarbiya jarayonida foydalanishni o'rganganlar va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Jismoniy madaniyat fakulteti talabalarining faol faoliyati, ularning kasb yoki ixtisoslikni amaliy egallashdagi qat'iyligi va maqsadga intiluvchanligi olingan nazariy bilimlar, o'zining intellektual, emotsional va irodaviy sifatlarini o'zi baholashini amaliyotda qo'llash jarayonida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida, kurash sportini o'qitishga va undan foydalanishga doir talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda quyidagi vazifalari o'rganishni tavsiya etamiz:

- kurash sport turini tarixiy taraqqiyotini o'rganish;
- kurash sport turini jismoniy tarbiya va sport, ta'lim tizimidagi o'rnini va ahamiyatini aniqlash;
- kurash sport turini tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asoslab berish;
- kurash sport turi orqali talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish yo'llarini ishlab chiqish va unga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar, qo'llanmalar,

adabiyotlar yaratishdan iborat.

- kurash sport turi orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning asosiy vositasi ekanligi tajriba sinov ishlari orqali tasdiqlash.

- kurash sport turi orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga doir ishlab chiqilgan metodlar va tavsiyalardan respublikamizdagi barcha oliy o'quv yurtlari foydalanish.

Izlanishlarimiz natijasida ilmiy-tadqiqotning yangiligi quyidagilardan iborat:

- talabalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning kurash sport turidan foydalanish usullarini ishlab chiqishda ilg'or zamonaviy tajribalar, milliy xususiyatlar inobatga olinadi;

- kurash sport turini o'qitish jarayonida talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish yo'llari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kurash sport turini o'qitishga doir qo'yiladigan pedagogik talablar va mezonlarni ilmiy asoslash;

- kurash sport turi orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish samarali ekanligi tajriba sinov ishlari orqali tasdiqlash;

Xulosa qilib aytganda, Oliy o'quv yurtining talabalari o'quv jarayonida kurash sport turini o'qitish samaradorligini oshirish taminlash maqsadida quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Kurash sportini o'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishning metodlarini, usullarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etish.

2. Talabalarining kurashga doir bilim ko'nikma, malakalarini egallashlari orqali ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish samaradorligiga erishish.

3. Talabalarga kurash orqali millatparvarlik, Vatanparvarlik va insonparvarlik kabi umuminsoniy hislatlari shakllantirish.

4. Bo'lajak o'qituvchi (talabalar)da milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish yo'li bilan qurollantirish.

Qadriyatlarga asoslangan ta'lim tarbiyada o'sib kelayotgan yosh avlodda yangicha dunyoqarash, o'zlikni anglash, tarixni bilish, ona tilmizga hurmat, o'z vataniga sadoqat, qadriyat va an'analarga muhabbat kabi insoniy hislatlar tarbiyalanadi. O'zbek xalqi o'z milliy qadriyatlarini saqlagan va rivojlantirgan holda umuminsoniy qadriyatlar rivojiga ham o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. 2017-yil, 2-oktabr, PQ-3306.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4881 “Kurash Milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risi”da Qarori. 2020-yil 4-noyabr.

3. Axmedov F.Q, Abdulaxatov A.R. “O'zbek kurash milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi”. –T., 2017-yil.

4. Abdulaxatov A.R. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga kurashning tarbiyaviy ahamiyatini o'rgatish yo'llari. Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiri'y. Ilimiy metodikaliq jurnali. 2020. 148-151-betlar.

Abdumo'min TURSUNOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak ofitser – ChQBT rahbari zamon talablari asosida chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida ularga harbiy xizmatning mashaqqatli va ma'suliyatli kasb ekanligini anglab etishlarida hayotiy misollar bilan bilimlarini oshirishning nazariy va amaliy yo'nalishlari yoritib o'tilgan. Shu bilan birga muallif bo'lajak ofitser sifatida harbiy qism va bo'linmalarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning shakllari va usullarining tarbiyaviy ahamiyatini yoritib o'tgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy tarbiya, huquqiy tarbiya, ishonirish, namuna, rag'batlantirish, mashq, tanqid, majburlash.

В статье освещены теоретические и практические направления повышения квалификации будущих офицеров – руководителей НДП на основе современных требований в процессе подготовки допризывной молодежи к военной службе на реальных примерах осознания ими того, что военная служба трудная и ответственная профессия. В то же время автор осветил воспитательное значение форм и методов организации воспитательной работы в воинских частях и подразделениях как будущего офицера.

Ключевые слова. Воспитание, духовно-нравственное воспитание, патриотическое воспитание, военное воспитание, юридическое воспитание, убеждение, пример, мотивация, упражнения, критика, принуждение.

The article highlights the theoretical and practical directions of professional development of future officers-leaders of the IPT on the basis of modern requirements in the process of preparing pre-conscription youth for military service on real examples of their awareness that military service is a difficult and responsible profession. At the same time, the author highlighted the educational significance of the forms and methods of organizing educational work in military units and divisions as a future officer.

Key words. Education, spiritually-moral education, patriotic education, military education, legal education, persuasion, example, motivation, exercises, criticism, compulsion.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va jamiyatning hozirgi bosqichida tarbiyaviy ishlarning ahamiyati Davlat xavfsizlik kafolati sifatida tobora o'sib bormoqda.

O'quv muassasalarida tarbiyaviy ishlar yo'nalishining asosiy maqsadi:

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy ishlar va jangovar harakatlar ta'minoti nazariyasi va amaliyotini talabalar tomonidan chuqur o'rganish;

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy ishlar va ma'naviy-ruhiy ta'minotning xususiyatlari, tamoyillari va qonuniyatlarini o'rganish;

– talabalarni tarbiyaviy ishlar va ma'naviy-ruhiy ta'minotning asosiy shakl va usullari bilan qurollantirish;

– talabalarda jangovar va o'quv jangovar vazifalarni, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni oshirishga, harbiy intizomni mustahkamlashga, xushyorlik va jangovar shaylikni oshirishga muvaffaqiyatli bajarishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar va ma'naviy-ruhiy ta'minot tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalardan biridir.

Demak, davr talabidan kelib chiqqan holda tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifalari deb quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

1. Harbiy xizmatchilar ongida Vatan himoyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari, harbiy qasamyod va buyruqlar bajarilishi oldidagi mas'uliyat xissini shakllantirish.

2. Harbiy jamoalarda sog'lom axloqiy muhitni, yuksak jangovar kayfiyatni shakllantirish, shaxsiy tarkibda jangovar birodarlik insoniy sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, harbiy xizmatchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam ko'rsatishni tashkil etish.

3. Harbiy xizmatchilar ongiga jangovar vazifalarni bajarish-davlat xavfsizligini ta'minlash ekanligi to'g'risidagi tushunchani singdirish.

4. Bo'ysinuvidagi shaxsiy tarkibni oldindagi maqsadlarga yetaklay oladigan, jangovar vazifani o'z vaqtida va to'laqonli bajarishga qodir, barcha shaxsiy tarkibga namuna bo'la oladigan, mustaqil ravishda to'g'ri qaror qabul qila oladigan harbiy-yetakchilarni (liderlarni) tayyorlash.

Tarbiyaviy ishlarning mohiyati, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq maqsadga intiluvchan o'zaro ta'siri, ular orasida ma'lum munosabatlarning tashkil qilinishi, tarbiyalanuvchilarning ahamiyatli ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishlariga imkon beruvchi faolliklarni rivojlantirishni anglatadi.

Harbiylarga ta'lim-tarbiya berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak. Tarbiyachilar harbiylarga bo'lgan munosabatlarida bir birlariga zid munosabatlarida bo'lmasliklari, bir xil yagona talab qo'yishlari lozim. Tarbiyaviy ishda bunday izchillikka rioya etish juda ham muhimdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu harbiy xizmatchilarda zarur ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish uchun ular ongi, his-tuyg'usi va irodasiga muntazam ta'sir o'tkazishdir.

Harbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

– harbiy xizmatchilardagi vatanparvarlik tuyg'usini ma'naviy-axloqiy ehtiyoj darajasigacha rivojlantirish;

– harbiy xizmatchilarda yuksak estetik va etik didni shakllantirish, ularda go'zallikka intilish va zavqlanishni o'rgatish;

– harbiy xizmatchilarni milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

– harbiy xizmatchilarda barkamol inson fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu davlat xavfsizligini ta'minlash, uni himoya qilish va oldinga qo'yilgan barcha vazifalarni bajarish uchun harbiy xizmatchilar ongida vatanparvar fuqaro tushunchasini hosil qilish, davlat manfaatlarini himoya qiladigan jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadigan, o'z-o'zining muayyan hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan fuqaroni shakllantirish uchun maqsadli ta'sirdir.

Harbiy tarbiya – bu harbiy xizmatchilarda yuksak kasbiy mahorat va jangovar-ruhiy sifatlarini shakllantirish uchun muntazam o'tkaziladigan maqsadli ta'sirdir.

Ishontirish – bu jangchi tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan ish-harakatning haqiqatdan ham adolatli va bajarilishi shart ekanligi haqida uning ongida taassurot hosil qilishdir.

Ishontirish usuli o'z maqsadiga erishishi uchun ikki tamoyilning bajarilishi talab etiladi. Bunda birinchi tamoyil jangchi bajarishi shart bo'lgan ish – harakatning haqiqatdan adolatli ekanligi ilmiy asoslangan bo'lishligi bo'lsa, ikkinchi tamoyil ushbu harakatlar hayotda tajribadan o'tkazilgan va ijobiy bahosiga ega bo'lgan bo'lishidir.

Namuna – bu jangchi o'rganishi shart bo'lgan ish-harakat va ko'nikmalarni tezroq o'zlashtirishi uchun o'rnak ko'rsatishdir.

Namuna usuli quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi.

1) tarbiyachining (komandirning) shaxsiy namunasi;

2) tarixda bo'lib o'tgan voqealar, buyuk siymolar va sarkardalar faoliyatidan namunalar keltirish;

3) urushlar tarixidan namunalar;

4) badiiy va san'at asarlaridan namunalar;

5) jamoadagi ilg'or, faol, qahramon jangchilar xatti-harakatlarini namuna qilib ko'rsatish;

6) jamoadagi qoloq, intizomsiz jangchilar xatti-harakatlarini, shunday bo'lmaslikka chorlash yo'nalishida namuna qilib ko'rsatish.

Rag'batlantirish usuli – intizom qoidalariga bo'ysinishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Rag'batlantirish harbiy xizmatchilarning xarakteri, ularning xatti-harakati va xulqini to'g'ri yo'lga solib yuborishga hamda paydo bo'lgan ijobiy fazilatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Rag'batlantirishda quyidagi talablar inobatga olinishi kerak:

Mashq usuli – jangchining harbiy sharoitda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarni yengib o'tishi uchun uning irodasini mashq qildirish va tajribasini orttirishdan iboratdir.

Harbiy qiyinchiliklarni yengib o'tish mashq qilinar ekan, jangchining irodasi mustahkamlanadi va shu qiyinchiliklarni yengib o'tish tajribasi ortib, o'ziga nisbatan ishonchi ortadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ofitser hamda ChQBT o'qituvchisi sifatida to'plagan bilim va malakalarini amalda qo'llagan holda o'quvchi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi. Shu o'rinda yoshlarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga bo'lgan ishonch, harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida harbiy tarbiyaning shakllari va usullarini amalda hayotiy misollar asnosida keng yoritib berishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nasriddinov Ch. *Harbiy psixologiya va pedagogika: O'quv-uslubiy qo'llanma.* –T.: Zarqalam, 2006-y.

2. Sotib-Oldiyev A., Karimjonov A. *Harbiy pedagogika: O'quv-qo'llanma.* –T.: Sharq, – 2005-y.

3. Ibragimov A.I., Sultonov X.X *“Vatan tuyg'usi”* –T.,1996-y.

4. *“Vatan himoyasi-muqaddas burch”*– T.: HARBIY nashriyot, – 2000-y.

5. Mudofaa vazirligi tarbiyaviy ishlar bosh boshqarmasi *“Guruhda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha” o'quv uslubiy qo'llanma* – T., 2001-y.

Akram ABDULAXATOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Fakultetlararo jismoniy tarbiya” kafedrası mudiri

Boburmirzo MUXTOROV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo’nalishi 3-kurs talabasi

TALABA-YOSHLARDA KURASH SPORT TURINI TATBIQ ETISH MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada kurashning jamiyatimizda o‘z o‘rnini tutganligi haqida fikrlar bayon etilgan. Bugungi kun jismoniy tarbiyasi va sportiga tarixiy yondashuv orqali kurashning milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligi maqolada o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar. Kurash, ta’lim va tarbiya, murabbiy, kurashchilar odobi, qadriyat, ajdodlarimiz, sport va qadriyat, yangi qoidalar, xalqaro musobaqalar.

В этой статье обсуждается роль борьбы в нашем обществе. В статье отражается тот факт, что борьба сегодня является национальной и общечеловеческой ценностью, благодаря историческому подходу к физическому воспитанию и спорту.

Ключевые слова. Борьба, образования и воспитания, тренер, борцовский этикет, ценность, наши предки, спорт и ценность, новые правила, международные соревнования.

This article discusses the role of fighting in our society. The article reflects the fact that today wrestling is a national and universal value, thanks to the historical approach to physical education and sports.

Key words. Wrestling, education and training, coach, wrestling etiquette, value, our ancestors, sport and value, new rules, international competition.

Bugungi kunda yurt kelajagi bo‘lgan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyo-tiga daxldor, ijtimoiy mas’uliyatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohadagi muammolarni falsafiy, huquqiy, sotsiologik yondashuvlar orqali hal qilish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, ularning tafakkur tarzini takomillashtirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-oktyabrda “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, 2020-yil 4-noyabr PQ-4881 “Kurash Milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Qarorlarda “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash nazarda tutilgan. Kurashning jahonda yangi sport turi sifatida shiddat bilan ommaviylashuvi, jahon sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘shib, umuminsoniy qadriyatga aylanishi – jahon ahliga nasib etgan buyuk bir tuhfadir. Davlatimiz rahbarining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surishi bejiz emas. Xususan, ikkinchi tashabbus yoshlarni

jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda barcha hududlarda kurash sport turining inson va oila hayotidagi muhim ahamiyatini targ'ib qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyatlari va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiyani milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib olib borish orqali uni jahon andozalari darajasiga etkazish borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi va bu jarayon jadal davom etmoqda. Ta'lim va tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda olib borish barkamol avlod tarbiyasida yaxshi samara berdi. Kurash va qadriyatlar sog'lom avlod tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

Kurash o'tmish ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li va serqirra faoliyatini milliy qadriyatlarimizni chinakam boyitgan bebaho xazinadir. Ta'lim-tarbiyani milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib olib borish orqali uni jahon andozalari darajasiga yetkazish borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi va bu jarayon jadal davom etmoqda. Ta'lim va tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda olib borish barkamol avlod tarbiyasida yaxshi samara berdi. Sport va qadriyatlar sog'lom avlod tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

Kurash azal-azaldan oliyanoblik, mardlik va halollik timsoli, xalqimizning bir necha ming yillik tarixga ega milliy-madaniy me'rosning qismi va bebaho boyligi hisoblanadi.

Birinchi bosqich: 1992-1998-yillarni o'z ichiga olib, uning maqsadi kurashni sport turi sifatida shakllantirish va uni xalqaro miqyosiga olib chiqish uchun asos yaratishdan iborat. Buning uchun birinchi navbatda kurashning yangi qoidalarini tatbiq qilish, ularni jahon mamlakatlarida targ'ib qilish lozim.

Ikkinchi bosqich: 1998-2005-yillarni o'z ichiga olib, maqsadi jahon chempionatlari, xalqaro musobaqalar tashkil etish, jahonda kurash sportining o'z tizimini yaratishdan iborat.

Murabbiy-ustozlar odobi tamoyillari

Shogirdlaridan birortasi yomon kurash tushsa, jerkib tashlamasin, balki muloyimlik bilan tushuntirsin	Ustoz pok niyat va nuqson-illatsiz inson bo'lsin
Kurash ilmining barcha nozikliklarini mufassal bilsin	Shogirdlariga mehribon bo'lsin
Shogirdiga ko'pchilik orasida dakki berib, izza qilmasin	Shogirdlarini poklikka da'vat qilsin
Shogirdlari mol-mulkiga tamagir bo'lmasin	Har bir shogirdning qobiliyatiga qarab ta'lim bersin
Baxil bo'lmasin, shogirdlaridan hech narsa ayamasin	O'z ustozini doimo xotirlab yursin

Uchinchi bosqich: 2005-yil va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad XKANing xalqaro va qit'aviy sport tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish, kurashni ommaviy sport turi sifatida Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritishdan iborat.

Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, irodani toblaydigan, kishini halollik sari intilishga undaydigan, qiyinchiliklarni bardosh bilan yengib o'tishga o'rgatadigan, inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladigan Kurash shiddatkor hayot talablariga javob bera oladigan shaxslarga, bunyodkor yoshlarning barkamol bo'lishida o'zining benazir hissasini ko'shadi. Zero, polvonlik falsafasi kishini komillik sari yetaklaydi.

Kurashchilar odobi tamoyillari

To'g'ri so'z va to'g'ri fikrli bo'lsin	Yaxshi muomalali bo'lsin
Ko'rinishi, kiyim kechagi toza-orasta bo'lsin	Yaxshi axloqli bo'lsin
Pok niyatli bo'lsin	Hech kimga hasad qilmasin, havas qilsin
Ustozlarning aytganlarini sidqidildan bajarsin	Baxil bo'lmasin
Dilozor bo'lmaslik, odamlar ko'nglini topuvchi bo'lsin	Boshqa shogirdlar, hamkasblar bilan tilda va dilda do'st, ittifoq bo'lsin
O'z kuchiga mag'rur bo'lmasin	Raqibning mag'lubiyatidan quvonmasin
Ustoz oldida oz gapirsin, boshni egib tinglasin, ustozni gapirganda e'tiroz bildirmasin	Boshqalarni g'iybat qilmasin

Muallifning kuzatishlari va tahlillari shuni ko'rsatadiki, polvonlarning raqibga, gilamga va tomoshabinlarga nisbatan hurmat bajo keltirib, ta'zim qilishi yuqori darajadagi hurmat ma'nosini bildirib sportda shaxs tushunchasining qadrlanishini anglatadi. Bu esa umume'tirof etgan axloq normalari talablariga to'laqonli mos kelib, insonparvarlikni o'zida mujassamlashtiradi. Qoidalaridagi yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri raqibga nisbatan qo'pollik ishlatmaslik, qoidaga zid xatti-harakatlar qilmaslikdir. "To'xta" ishorasidan so'ng kurashchi harakatni to'xtatishi hamda usullarni davom ettirmasligi qat'iy talab etiladi. Mazkur jihatlar qoidalarda o'z aksini topgan bo'lib, agar kurashchi qoidalarni buzsa hakam tomonidan ogohlantiriladi. Bundan ko'rinadiki, kurash eng avvalo, tarbiya vositasi sifatida inson va uning shanini qadrlaydi. Kurashning qadriyat sifatidagi ahamiyati va o'rni faqatgina musobaqalarda emas, mashg'ulotlar jarayonida ham aks etadi. Murabbiylar mashg'ulotlar jarayonida kurashchilarni faqatgina jismoniy tayyorgarligini oshiribgina qolmay, ularni ma'naviy, axloqiy, va estetik tarbiyalab boradi. Tozalikka rioya qilish, kurash kiyimlarini, gilamni ozoda saqlash, mashg'ulotlar jarayonida

tartib-intizomga rioya qilish, o'zaro hurmat ruhini shakllantirish va albatta, ustozlarga hurmatda bo'lish kerakligi kurashchilarga doimiy ravishda singdirib boriladi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi xalq pedagogikasi oldida turuvchi doimiy dolzarb vazifa hisoblangan. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoiti yoshlar tarbiyasiga alohida yondashuv va talablar qo'yimoqda. Xususan, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim masalalardan hisoblanadi.

Kurash musobaqalari jarayonida sportchilar tomonidan murakkab va jozibali usullar qo'llaniladi. Usullarning bajarilishi qanchalik murakkab bo'lsin, u sportchiga jismoniy va ma'naviy zarar yetkazmaydi. Mutaxassislarning fikricha, kurash sport turlari ichida eng xavfsiz sport turi hisoblanadi. Kurash bellashuvlarining boshlanishidan to yakunigacha sportchilar o'zlarining ham jismoniy ham ma'naviy tayyorgarlik darajasini namoyish qilishadi. Kurash sportining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish, uning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatidagi o'rnini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni beramiz:

- kurash inson jismoniy, ma'naviy va axloqiy tarbiyasi vositasi;
- kurash o'zining tarixiy rivojlanish xususiyatiga ko'ra uzoq davrni bosib o'tgan va xalq irodasi va intilishlari namunasi;
- qadimdan xalqimiz yoshlar tarbiyasida va ijtimoiy turmush-tarzida kurashdan keng foydalangan va uni asrab-avaylab kelgan;
- kurash o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutib, milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan;
- kurash barcha xalqlar va mamlakatlar e'tiqodi, intilishlari va xususiyatlari mosligi sababli umuminsoniy qadriyat darajasida e'tirof etiladi;
- gumanizm, vatanparvarlik va halollik kurashning eng asosiy tayanch ustunlaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, kurash sport turi bo'lishi bilan birgalikda inson ma'naviy va axloqiy tarbiyasi vositasi hamdir. Kurash mashg'ulotlari va musobaqalari tom ma'nodagi falsafiy asoslarga ega. Kurashni yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, kurashchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mazkur sport turi bilan shug'ullanuvchilar safini kengaytirish, kurash bilan shug'ullanish uchun yoshlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator tadbirlar, musobaqalar o'tkazilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4881 "Kurash Milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"da Qarori. 2020-yil 4-noyabr.
2. Komil Yusupov. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. –T.: G'ofur G'ulom, 2005. 132-b.
3. Axmedov F.Q., Abdulaxatov A.R.. O'zbek kurashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi. –T., 2017-yil.
4. Axmedov F.Q., Abdulaxatov A.R., Xayitov O.T.. Kurash-sport, qadriyat, manaviyat va tarbiya vositasi. –T., 2020-yil.
5. Abdulaxatov A.R. Kurashni qadriyat sifatida o'rganish zamon talabi. Pedagogik mahorat jurnali. №2 (aprel 2019) Buxoro.

Aziz SHADIYEV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Jismoniy madaniyat” kafedrası o'qituvchisi

BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN O'TKAZILADIGAN YENGIL ATLETIKA MASHG'ULOTLARINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola o'smir yoshlar bilan olib boriladigan yengil atletika mashg'ulotiga qaratilgan. Shuningdek, yengil atletika sport turini rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va atletlarni jismoniy sifatlarini tarbiyalash va yengil atletika jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ma'lumotlardan iborat.

Kalit so'zlar. Yengil atletika, razminka, individual, kuch, atlet, gravitatsion shok.

Эта статья посвящена тренировкам по легкой атлетике, проводимым с подростками. Она также содержит информацию, направленную на развитие легкоатлетического вида спорта, совершенствование его физической подготовки и воспитание у атлетов физических качеств, совершенствование легкоатлетического процесса.

Ключевые слова. Легкая атлетика, разминка, индивидуал, сила, атлет, гравитационный шок.

This article is devoted to the track and field all-around competition held with teenage youth. It also contains information aimed at the development of track and field sports, improving their physical training and educating athletes in physical qualities, improving the track and field process.

Key words. Track and field, warm-up, individual, strength, athletic, gravity shock.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sportni rivojlantirish sohasi bo'yicha tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rnini hisobga olib, sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talabi darajasida o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish hamda aholini sportga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida maqsadli, davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

O'quv muassasalarida jismoniy tarbiya-sport sog'lomlashtirish ishlarini rivojlantirish, ta'lim olayotgan o'quvchilarning yengil atletika sport turiga qiziqishini oshirish, bilimi, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Yosh avlodni sog'lom va barkamol, jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiyani milliyalashtirish zarur. Shu bois, jismoniy sifatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan sport turlarini ya'ni yengil atletika bilan shug'ullanuvchilarni jismoniy sifatlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Amaliy dars (mashg'ulot)ning asosiy shakli yengil atletika elementlaridan iborat bo'ladi. Yengil atletika mashg'ulotlari joylarda, manejlarda, sport zallarida va stadionlarda o'tkaziladi. Hamma hollarda ham xavfsizlik qoidalariga (asosan, uloqtirish va sakrash mashg'ulotlarida) e'tibor berish shart. Yengil atletikachining kiyimi: mayka,

shortik va mashg'ulot kostyumidan iborat. Sovuq vaqtda ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga issiq mashg'ulot kostyumi kiyish kerak. Yengil atletikachilar, maxsus oyoq kiyim kiyishadi.

Yengil atletika bilan shug'ullanuvchilarning xulqi musobaqa qoidalariga mos keliishi zarur. Qarama-qarshi uloqtirish, yugurish yo'lakchasida yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish talabga javob beradigan sektorlarga o'tkaziladi.

Hamma yengil atletikachilar uchun yengil atletika jarayonining asosiy tashkiliy shakli – grupp bo'lib yoki individual 2 soat yoki undan ko'proq davom etadigan yengil atletika mashg'uloti (darsi) o'tkazishdir. Ozroq davom etadigan mashg'ulotlar ham bo'lishi mumkin. Asosiy mashg'ulotlarni har kuni ko'p kuch kelmaydigan ertalabki yengil atletika bilan to'ldirib turish mumkin. Asosiy yengil atletika mashg'ulotlarini to'ldiruvchi uy vazifalarini esa kunning boshqa vaqtida bajarish mumkin. Yengil atletikachilar yengil atletika darsidan tashqari, kross, chang'ida yurish, basketbol va shunga o'xshash mashg'ulotlar o'tkazadi. Mashg'ulot oxirida kuch berish kamaytiriladi. Kuch kelishni bu tarzda o'zgartirish, mashg'ulotni qaysi shaklda o'tkazilishidan qat'i nazar, har qanday yengil atletika mashg'uloti uchun shartdir.

Yengil atletika mashg'ulotlari qabul qilingan umumiy struktura bo'yicha tuzilib, to'rt (kirish, tayyorlov, asosiy va yakunlovchi) qismdan yoki uch (razminka, asosiy va yakunlovchi) qismidan iborat. Mashg'ulotning maqsadi va mazmuniga, yengil atletika davriga va asosan yengil atletikachilarning tayyorlik darajalariga qarab birinchi yoki ikkinchi variant qo'llanadi. Yengil atletikaning tayyorlov davrida o'tkaziladigan grupp mashg'ulotlari odatda to'rt qismdan iborat bo'ladi. Uch qismdan iborat variant ko'pincha, yuqori razradli yengil atletikachilar uchun, ayniqsa, yengil atletikaning musobaqalashuv davrida qo'llanadi. Yengil atletika mashg'ulotlarining mazmuni ko'p jihatdan yengil atletikachilarning tayyorlik darajalariga bog'liq bo'ladi.

Mashg'ulotning kirish qismining vazifasi o'quvchilarni uyushtirishdan, ya'ni gruppani saflash, raport qabul qilish, davomatini tekshirish, dars vazifasi va mazmunini tushuntirish, gruppani mashq bajarish uchun qayta saflashdan iborat. Shuningdek, saf mashqlari, burilishlar, yurish va boshqalar ham kirish qismiga qo'shiladi, chunki uyushtirish va intizom o'rnatishda bularning ham ahamiyati bor. Kirish qismi 3-10 minut davom etadi.

Mashg'ulotning tayyorlov qismining vazifalari shug'ullanuvchilarda umuman badanni qizdirib olish va ularni bo'ladigan kuch kelishga tayyorlash – razminka, muskul kuchini va egiluvchanligini rivojlantirish, bo'g'imlarda harakatchanlikni oshirish, harakatni boshqara olish qobiliyatini yaxshilash va yengil atletik turlar, texnika elementlari bilan tanishtirish. Umumiy badan qizdirish tezlanishli yoki sportcha yurish (200-400 m) dan boshlanib, sekin yugurishga (400-800 m) o'tadi. Tayyorlov qismining boshqa vazifalari snaryadlarda, snaryadlar bilan va ularsiz bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi va maxsus tayyorlov mashqlari bilan hal etiladi. Yana basketbol, voleybol elementlari kabi mashqlarni ham qo'llash mumkin. Bu mashqlar vositasida ham yanada jadalroq keyingi ishga tayyorlansa bo'ladi.

Yangi boshlayotganlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning tayyorlov qismiga oddiy umumiy rivojlantiruvchi mashqlar kiritiladi. Yengil atletikachilarning tayyorlik darajalari o'sgan sari bu mashqlar murakkablashib boradi. Tayyorlik darajasi yuqori yengil atletikachilar mashg'ulotining tayyorlov qismiga umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar teng miqdorda kiritiladi.

Darsning tayyorlov qismiga yengil atletikaning tayyorlov davrida ko'proq va mu-sobaqalash davrida ozroq vaqt ajratiladi. Darsning tayyorlov qismi qancha davom etishi tanlangan yengil atletika turining xususiyatiga, atletlarning tayyorlik darajalariga va boshqalarga qarab (30 dan 15 minutgacha) o'zgaradi. Tayyorlik darajasi ancha yuqori yengil atletikachilarda, xususan, ularning individual mashg'ulotlarida, kirish va tayyorlov qismlari razminka bilan almashtiriladi.

Yengil atletika mashg'ulotida o'tkaziladigan razminkada kuch kelish juda ham oz bo'lmasligi kerak. Shug'ullanuvchilarning tayyorlik darajasi ortgan sari, uni ham oshira borish lozim. Razminkaga kiritilgan jismoniy mashqlar umumiy jismoniy tayyorgarlikka ham bir qadar yordam beradi.

Razminka ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismning vazifasi asosan, vegetativ funksiyalarni (qizdirishni) kuchaytirish hisobiga organizmning umumiy ish qobiliyatini oshirishdir. Razminkaning ikkinchi qismida sportchi o'zida bo'lajak ishga moyillik hosil qilib olishi kerak.

Buning uchun yengil atletika turining spetsifikasiga moslab muayyan tartibda birin-ketin bajariladigan bir nechta qizdiruvchi mashqlar tanlab olinadi. Odatda, oldin qo'llar va yelka kamarini qizdiradigan, keyin tana, tos atrofini qizdiradigan va nihoyat oyoqlarni (son, boldir, oyoq tagi) qizdiradigan mashqlarni bajarish tavsiya qilinadi. Muskullarga yuqoridan pastga qarab shunday ishlov berish bir necha marta ketma-ket takrorlanishi mumkin. Hamma yengil atletikachilarga bir xil variant tavsiya qilib bo'lmaydi. Ayrim yengil atletika turlarining xususiyatlarini va mashqlarni ma'lum tartibda bajarishga o'rganishni ham hisobga olmoq kerak. Lekin qanday variant qo'llanmasin, mashqlar avvalo, kichik muskullar gruppalariga, keyin esa katta muskul gruppalariga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Shundan keyin bo'g'inlar harakatchanligini yaxshilovchi mashqlarga o'tiladi. Ular amplitudasi asta-sekin osha boradigan bo'lajak harakatlarda (yugurishda, sakrashda yoki uloqtirishda) faol qatnashuvchi muskullarning antagonistlarini cho'zadigan harakatlardan iborat bo'ladi. Bunda harakat yengil va bemalol bajarilishi, harakat amplitudasi esa, tanlangan yengil atletika turiga keragidan ortiq bo'lmasligi kerak. Har xil mashqlardan 6 – 8 tasining har birini 8 – 10 martadan takrorlash tavsiya qilinadi. Bundan tashqari, muskullar gruppasi qayishqoqligini yaxshilash – jarohatlanishdan saqlanishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Harakat amplitudasini oshiruvchi mashqlar bilan razminkaning birinchi qismi tugallanadi. Razminka hammasi bo'lib 30-40 minut davom etadi. Issiq havoda razminka vaqtini haddan tashqari qisqartirib yubormaslik kerak. Undan ko'ra, shoshilmasdan razminka qilgan yaxshi. Hech qanday tashqi issiqlik harakat o'rnini, ayniqsa, razminka ikkinchi qismidagi harakat o'rnini to'la bosa olmaydi. Yengil atletikachining mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, uning razminkasi shunchalik puxta bo'lishi kerak.

Mashg'ulotlarning asosiy vazifasi shug'ullanuvchilarning har tomonlama jismoniy va maxsus tayyorlik darajasini oshirishdan, ularga sport texnikasini va taktikasini o'rgatishdan, irodaviy fazilatlarini tarbiyalashdan, kuchni, tezkorlikni, chidamlilikni, bo'g'imlardagi harakatchanlikni va chaqqonlikni rivojlantirishdan iboratdir. Asosiy qism mazmuni shug'ullanuvchilarning tayyorlik darajasiga ularning yoshiga va jinsiga, yengil atletika davriga, yengil atletik ixtisosiga va boshqa sabablarga qarab o'zgaradi. Asosiy qism jismoniy mashqlarini qariyb hamma vaqt ularning nimaga mo'ljallanganiga qarab muayyan tartibda bajarish kerak. Texnikani o'rgatish va takomillashtirishga

mo'ljallangan mashqlar, razminka ketidanoq, yengil atletikachi hali charchamagan vaqtda bajariladi. Agarda texnikani takomillashtirish ko'p kuch talab qilinadigan bo'lsa, bunday mashqlarni keyinroq bajarish ham mumkin. Masalan, bosqon uloqtirish texnikasini takomillashtirishni tezkorlikni o'stiradigan o'rta-meyona mashqlardan keyin bajarsa ham bo'laveradi.

Ko'proq tezkorlikni rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus mashqlar, yugurish, sakrash va uloqtirish odatda qisqa vaqtli, lekin juda jadal bo'lib, atletdan bor kuchini ishga solishni talab qiladi. Ular sal bo'lsa ham har xil sportchini charchatadi, uning idrokini zaiflashtiradi, texnikani o'zlashtirish sharoitini yomonlashtiradi. Shuning uchun tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar texnikani o'rganish va uni takomillashtirishdan keyin bajariladi. Harakat tezligi maksimal samaraga erishishni istaganda esa, tezkorlik mashqlari bevosita razminkadan keyin qilinadi. Chaqqonlik rivojlantiruvchi mashqlar ham asosiy qism boshida (tezkorlik mashqlari o'rnida yoki ulardan keyin) bajariladi.

Chidamlilikni rivojlantiruvchi mashqlar mashg'ulot asosiy qismining oxirida o'tkaziladi. Chidamlilik (umumiysi ham, maxsusi ham) tez yurish va sportcha yurish, yugurish, ixtisos olayotgan yengil atletik turini takror bajarish vositasida rivojlantiriladi. Bu mashqlar har doim anchagina kuch keladigan qilib bajariladi.

Yengil atletika mashg'ulotining yakunlovchi qismida kuch kelishi asta-sekin pasaytirib, organizmni normaga yaqin holatga keltirish uchun zarurdir. Yengil atletika mashqlarida ayniqsa, yugurishda yurak qon-tomir tizimiga ko'pincha juda katta talablar qo'yiladi. Masalan, atlet qisqa masofaga juda katta tezlik bilan yugurgandan keyin, shu zahoti tik turib yoki o'tirib dam olsa, uning maksimal qon bosimi juda tez pasayib ketadi. Yuguruvchi, ayniqsa, yengil atletika ko'rmagan yuguruvchi, xatto hushidan ketib qolishi (gravitatsion shok) ham mumkin. Xuddi mana shuning uchun qattiq ishlagandan keyin, birdaniga dam olishga o'tish tavsiya qilinmaydi. Tajribali yuguruvchilar juda og'ir yugurishdan keyin ham birdaniga to'xtamaydi. Jo'shqin faoliyatdan birdaniga tinch holatga o'tishni, ular necha minut davomida oldin sekin yugurib yurib, keyin yurish bilan yumshatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo'jayev F., Meliyev X., Yunusova D.. *"Jismoniy tarbiya tarixi"*. – T., 2010-yil. 203-b.
2. Usmonxo'jayev T.S., Aliyev M.V., Sadiyev X.X. *"Bolalar va o'smirlar sporti mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiylari"*. – T., 2006-yil, 101-b.
3. Tojiyeva M., Xusanxo'jayeva S. *"Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi"*. – T., 2004-y.
4. Normurodov A.N. *Yengil atletika*. – T., 2002-yil – 196-b.
5. Niyozov I. *Yengil atletika. O'zDav JTI, 2005-yil* – 103-b.
6. Иноземцева Л.А. *Легкая атлетика и методика преподавания*: – T., 2001 г – С. 21.

Maxsud SHERMATOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası katta o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUV DASTURIDA VOLEYBOL DARSINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada xalq ta'lim tizimi muassasalarida jismoniy madaniyat fanining o'quv dasturida voleybol darsining ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Voleybol, maydon, ustun, o'rta chiziq, raqib, harakat, kontakt, jihoz, uskuna, sport, jismoniy, psixofunksional, etnogenetik, tarbiya, texnika.

В статье обсуждается значение волейбола в программе обучения физической культуре в народном образовании.

Ключевые слова. Волейбол, поле, колонна, полузащита, соперник, движение, контакт, экипировка, снаряжение, спорт, физический, психофункциональный, этногенетический, образовательный, технический.

The article discusses the importance of volleyball in the curriculum of physical culture in public education.

Key words. Volleyball, field, column, midfield, opponent, movement, contact, equipment, equipment, sports, physical, psychofunctional, ethnogenetic, educational, technical.

Voleybol o'zining tom ma'nodagi mohiyati va mazmuni bilan o'ta "demokratik" xususiyatga ega sport o'yinlari turlariga mansubdir. Uning "demokratik" xususiyati shundan iboratki, ushbu o'yin maydonchasi 18x9 m-li shaklga ega bo'lib, shu maydonchani qoq o'rtasidan ikki mustaqil maydonchalarga bo'linadi. Maydonchani ikkiga bo'lib turuvchi o'rta chiziq ustidan 9,5 m uzoqlikda joylashgan ikki ustunga eni 1 m-li to'r tortiladi. Balandligi jinsi, yoshiga qarab o'rnatiladi (erkaklar guruhi uchun 2,43 sm, ayollar uchun 2,24 sm bo'ladi). Ikki maydonchada joylashgan raqiblar jamoalari o'yinchilarini shu to'r ajratib turadi va o'yin raqiblarning o'z maydonchalarida bir-biriga qarshi harakatlari bilan amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bir-biriga raqib o'yinchilar o'zaro to'qnash (kontakt) tarzda harakat qilmaydilar. Voleybol bilan ommaviy shug'ullanish uchun o'yin maydonini istalgan ochiq yoki yopiq tekislikda barpo etish mumkin. Boz ustiga ommaviy voleybol uchun qo'llaniladigan jihoz va uskunalar juda kam xarajatdir. Qolaversa, bu uskunalar "qo'l bola" usulida ham tayyorlanishi mumkin. Shuning uchun ham voleybol yer yuzida eng ommaviy sport turlari tarkibiga kiradi. Mustaqil mamlakatimiz taraqqiyotining so'nggi yillarida birinchi prezidentimizning xalqchil siyosati va uning bevosita rahbarligida kashf etilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga hamohang bo'lgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi uzluksiz hamda ko'p pog'onali ommaviy sharq musobaqalari dasturidan voleybol o'yinining mustahkam joy olishi fikrimiz dalilidir.

Alohida ta'kidlash joizki, voleybol inson sog'ligi, uning jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarini shakllantiruvchi eng samarali va universal vosita sifatida nafaqat professional hamda ommaviy sport musobaqalari dasturiga kiritilgan, balki o'quvchi

-yoshlarda shu sport turining nazariy mohiyatini chuqur tushunish zarurligi tufayli uning ta'lim muassasalari o'quv rejasidan majburiy fan sifatida joy olib, azaldan faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Sobiq "ittifoq" davrida ham tayanch sport turlari bo'lmish voleybol, basketbol, futbol, gimnastika, yengil atletika, suzish umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv rejalariga jismoniy tarbiya fanlari sifatida kiritilib, ulardan dars sifatida foydalanilgan.

Ammo, shu sport turlaridan tashkil topgan jismoniy tarbiya darslariga qo'yiladigan talablar rejalashtiruv hujjatlari, jismoniy tarbiya darslarining turlari, haftalik, chorak va o'quv yili bo'yicha belgilangan hajmlari, "Baholovchi" me'yoriy mashqlar "Markaz"da ishlab chiqilib, barcha "ittifoqdosh" respublikalar maktablari uchun majburiy bo'lgan. Eng afsuslanarli joyi shundaki, mazkur o'quv hujjatlarining ishlab chiqilishi uchun o'tkaziladigan tajribalar asosan, Rossiya maktablari o'quvchilarida sinab ko'rib, to'g'ridan-to'g'ri barcha respublikalar maktablarida qo'llanilishi qonun tusiga kirgan edi. O'quvchilarning etnogenetik, jismoniy va psixofunksional xususiyatlari "markaz" olimlarini aslo qiziqitmagan.

Faqat mustaqillik sharofati tufayli 1992-yilda "Ta'lim to'g'risida" va "jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi. 1999-yil 27-mayda Hukumat tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2000-yildan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi yangi mazmunli qonun, 2002-yil 24-oktabrdagi "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Birinchi (I.A.Karimov) Prezidenti Farmoni va shu masala bo'yicha 30-oktabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror hamda shu hujjatlarning hayotga tatbiq etilishi jismonan va aqlan barkamol avlodni tarbiyalashga asos bo'lib kelmoqda. Aynan qayd etilgan hujjatlar kadrlar tayyorlash milliy dasturining ajralmas mantiqiy qismi sifatida barcha ta'lim muassasalari, shu jumladan, o'rta umumta'lim maktablari o'quv rejalaridan muhim o'rin olgan jismoniy tarbiya va sport fanining maqomi va salohiyatini yanada ko'tardi hamda ushbu jarayonni yanada mazmunli shakllanishiga yo'l ochib berdi. Chunonchi, 1993-yilda professor F.N.Nasriddinov rahbarligida bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarining I-XI sinf o'quvchilariga mo'ljallangan jismoniy tarbiya dasturida voleybol faniga alohida ahamiyat qaratilgan. Ammo, afsuslanarli joyi shundaki, ushbu dasturda voleybol jismoniy tarbiya darsi sifatida 9 sinfdan boshlab rejalashtirilgan. Vaholanki shu narsa maxsus tadqiqot asosida isbotlab berilganki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'tiladigan jismoniy tarbiya darslarida voleybol elementlarini muntazam qo'llab borish shu o'quvchilarning nafaqat jismoniy va psixofunksional imkoniyatlariga ijobiy ta'sir etadi, balki ularning taktik fikrlash, harakatni his qilish va xotirada harakat texnikasini eslab qolish qobiliyatlarini charxlab borar ekan (Zuoza Auremus-Kazis Kazevich 1989).

Yuqorida qayd etilgan dasturga binoan voleybol darslari juda kech, ya'ni 9-sinfdan boshlab rejalashtirilishi bilan bir qatorda shu darslarning mazmuni deyarli ochib berilmagan qolaversa, voleybol darslarini bunday kech rejalashtirilishi o'quvchilarda voleybol malakalarini o'zlashtirish imkonini bermaydi, ularda shu sport turiga qiziqish uyg'otmasligi muqarrar. Umuman bunday holda ta'lim muassasalarida o'tkazilib kelinayotgan uzluksiz va ko'p pog'onali ommaviy sport musobaqalarining mantiqiy jihatiga ham to'g'ri kelmaydi. Chunki, "Umid nihollari" musobaqalari dasturiga kiritilgan voleybol o'yinlarida aksariyat 7-10-sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Binobarin, agar 3-8-sinflarda voleybol darslari rejalashtirilmasa, qanday qilib bolalarni shu sport turiga qiziqtirish ularni voleybol to'garaklariga jalb qilish, tanlash, mahoratini o'stirish va

"katta" voleybolga olib chiqish mumkin bo'ladi. Azaldan ma'lumki, jismoniy tarbiya o'qituvchisining asosiy vazifasi faqatgina shu darsni mazmunli va samarador o'tkazish emas, balki turli sport turlari va xususan, voleybol o'yini malakalaridan tarkib topgan jismoniy tarbiya darslari davomida bolalarni qaddi-qomati, bo'yi, jismoniy sifatlariga qarab, ularni sport ixtisosliklariga yo'naltirish, asosli bashorat yordamida muayyan sport turiga jalb qilishdan iboratdir. Ehtimol ana shu g'oyaga asoslangan holda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (16.08.1999-y.) bilan tasdiqlangan jismoniy tarbiyadan umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturida (1999) voleybol fani 5-sinfдан boshlab kiritilgan.

Ta'lim tizimida ulkan islohotlarning amalga oshirilishi, olimlarni samarali izlanishlari natijasida so'nggi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari, dasturlar va metodik qo'llanma hamda darsliklar yaratila boshlandi. Jumladan, 1999-yilda E.A.Seytxalilov va bir guruh olimlar tomonidan chop etilgan umumta'lim o'rta maktablarga mo'ljallangan davlat ta'lim standarti va dasturlarda voleybol darslariga, ularning mazmuniga alohida o'rin berilgan. Ayniqsa, darslarning ixtisoslashgan bo'lishi, ma'lum yo'nalishga qaratilishi va muvofiq murakkablikka ega bo'lishiga urg'u berilgan. Bu borada E.A. Seytxalilovning fikrlari e'tiborga loyiqdir. Uning fikricha, dars yuklamalarini me'yorlashda shu darsning hajmi va shiddatini e'tiborga olish, o'quvchilarning dars yuklamalariga fiziologik jihatdan aks ta'sir ko'rsatish darajasini operativ testlar (yurak va nafas olish chastotasi va hokazo) yordamida aniqlash nihoyatda muhimdir.

Umumta'lim o'rta maktablarda jismoniy tarbiya jarayonini tashkil qilish va o'tkazish uslubi Y.M.Yunusova (2002) tomonidan atroflicha yoritib berilgan. Jumladan, maktablarda jismoniy tarbiyani tashkil qilish shakllari qatorida shu jarayonning dars shakliga alohida urg'u berilgan. Muallif jismoniy tarbiya darsini mustaqil fan sifatida o'quv rejasiga binoan 1 o'quv yilida 68 akademik soat hajmida (45 daqiqa) o'tilishiga, ya'ni haftasiga 2 soatdan tashkil etilishi shartligicha e'tibor qaratadi. Har bir haftada jismoniy tarbiya darsi teng taqsimlanish zarurligini uqtirib o'tadi.

Uning fikricha ushbu darslarni birinchi yoki oxirgi soatlarga rejalashtirilishi maqsadga muvofiq emasligi, ayniqsa, ketma-ket (seshanba, chorshanba) rejalashtirilishi umuman noto'g'ri. Shu bilan bir qatorda shuni ham e'tirof etish joizki, ta'lim muassasalarida, ayniqsa, umumta'lim o'rta maktab o'quvchilari bilan haftasiga 2 soat hajmda jismoniy tarbiya darsi o'tkazilishi jismoniy sifatlar va sport malakalarini shakllantirish uchun yetarli deb bo'lmaydi. To'g'ri, jismoniy mashqlar yoki sport bilan maktabdan va sinfdan tashqari vaqtlarda shug'ullanish mumkin. Lekin jismoniy tarbiyaning bunday shakllari bilan barcha toifadagi o'quvchilar ham shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Binobarin, tasdiqlangan reja asosida har haftada jismoniy tarbiya darsini kamida 3-4 soatga ko'paytirilishi o'quvchilarni nafaqat jismoniy va psixofunksional jihatdan samarali shakllanishiga sabab bo'ladi, balki boshqa umumta'lim fanlarini o'zlashtirish imkonini ham kengaytiradi. Shuning uchun ham yirik mutaxassis-olimlarning tavsiyasiga ko'ra, 1999-yil 27-mayda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda jismoniy tarbiya darslarini haftasiga 4 hatto 6 soatgacha ko'paytirish masalasi qo'yilgan edi. Jismoniy tarbiya darsining funksional vazifasi faqatgina o'quvchilarning sog'ligi, jismoniy barkamolligini ta'minlashdan iborat bo'libgina qolmay, balki uning yordamida jamiyati umuminsoniy va milliy qadriyatlar, shaxsiy xislatlar va fazilatlar, ko'nikma va qobiliyatlar shakllantiriladi. Ijtimoiy ong, odob-axloq, shaxs ma'naviyati va madaniyati,

vatanparvarlik, mehnatni ulug'lash, bag'rikenglik, kattayu-kichikni hurmatlash hamda haqgo'ylik, insonparvarlik, maqsadga erishuvchanlik kabi xislatlarni tarbiyalashning asosiy amaliy vositasi jismoniy tarbiya darsidir. Shuning uchun ham uning mavqeini ko'tarish, majburiy fan sifatida soatlar hajmini o'ttirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Jismonan va ma'nan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lgan jismoniy tarbiya jarayoni va uning samarali shakli bo'lmish jismoniy tarbiya darsini unumli tashkil qilish ustida olib borilayotgan ilmiy va uslubiy tadqiqotlar doirasi borgan sari kengayib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan tajriba va tadqiqotlarning natijalari alohida ahamiyat kasbetib, diqqatni o'ziga jalb qiladi. Chunonchi, I.G. Skachkovning fikriga ko'ra, haftasiga ikki marta o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darsi o'quvchilarning kundalik jismoniy yuklamasining 11foizini tashkil etadi. Agar dars har kuni 1 soatdan rejalashtirilsa ham kundalik jismoniy yuklama 33 foizdan oshmas ekan.

Ushbu vaziyatni e'tiborga olib u jismoniy tarbiya darsining ko'p funksional variantini taklif etdi. Mazkur dars varianti bir darsni o'zida jismoniy tarbiya dasturidagi barcha vositalarni (gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari turlari elementlarini) o'z ichiga oladi.

Ushbu yo'nalish doirasida tadqiqot olib borgan deyarli barcha olimlar umumta'lim o'rta maktablarda o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari qanday turdan (yengil atletika, gimnastika, volleybol, basketbol va h.z.) iborat bo'lmasin dars mavzusiga moslashtirilgan harakatli o'yinlardan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlaydi degan xulosaga kelishgan. Maslan, A.G. Furmanov, 1979: M.S.Brill, 1980: M.A. Kurbanova, 1997 va boshqalarning fikricha, maktab o'quvchilari bilan voleybol bo'yicha o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darsida ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarni qo'llash nafaqat maxsus jismoniy sifatlarni unumli rivojlantiradi, balki voleybol malakalari texnikasini tez sur'atlar bilan shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aslanova M. *Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish*. –T.: Fan va texnologiya, 2008. 92-bet.
2. Голомазов В.А. *Волейбол в школе. Пособие для учителя*. –Т.: С.120.
3. Xo'jayev F., Usmonxo'jayev T. *Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari*. –T.: O'qituvchi, –120-b.
4. Беспалько В.П. *Педагогика и прогрессивные технологии обучения* – М.: ИРПО, 1996 г. – С.336.
5. Фурманов А.Г., Болтырев Д.М. *“Волейбол” 1983 г.* – С.88

Jo'rabek SHUKURLLAYEV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Jismoniy madaniyat” kafedrası o'qituvchisi

VOLEYBOL SPORT TURI VOSITASIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda voleybol sport turi vositasida maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik imkoniyatlari yuzasidan ko'rsatma va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Akmeologik, beqiyoslik, buyuklik, mukammallik, mashhurlik, mahsuldorlik, professionallik, yuksalish, jismoniy tarbiya, o'quvchi, saralash, usul, sport, voleybol, rivojlanish, tanlash, mashg'ulot, natija, sifat.

В данной статье представлены рекомендации и предложения по дидактическому потенциалу акмеологического подхода к развитию физических качеств школьников на уроках физкультуры и внеклассных занятиях по волейболу.

Ключевые слова. Акмеологик, уникальность, величие, совершенство, популярность, продуктивность, профессионализм, рост, физическое воспитание, ученик, отбор, метод, время, класс, возраст, спорт, волейбол, развивать, тренировка, результат, качества.

This article provides guidance and suggestions on the didactic potential of the acmeological approach to the development of physical qualities in schoolchildren through physical education classes and extracurricular activities in volleyball.

Key words. Akmeological, uniqueness, greatness, perfection, popularity, productivity, professionalism, rise, Physical education, pupil, selection, time, class, age, sport, volleyball, development, choose, the result of training.

Mustaqil O'zbekistonimizda sport rivojiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi qonuni, “Ta’lim to'g'risidagi qonuni”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ–3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi sport sohasiga tegishli qarorlar va o'tkazilayotgan tub islohotlarning o'rni juda muhim ahamiyatga egadir. O'quv-mashg'ulot jarayoni va viloyatlarda bolalar-o'smirlar jamololari orasida musobaqalarni past darajada tashkil etish, alohida hududlarda jismoniy tarbiya va sport bo'limlari ishining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liqdir. Bunday kamchiliklar belgilangan, davlat darajasidagi yuqorida bayon etilgan hujjatlar, rivoji uchun imkoniyat yaratmoqda.

Mashg'ulotlarda yosh sportchilarni sportning o'yin turlariga tanlash va tayyorlash uslubiyatiga bag'ishlangan sport amaliyoti tajribalari va tadqiqotlar, yangi, ancha sa-

marali uslubiy yo'llarni izlab topishni juda yuqori darajada shug'ullanishni talab qiladi.

Ayni vaqtda, sport kurashlarida raqobatni oshib borish tendensiyalarini tavsiflovchi, sportni rivojlantirishning zamonaviy bosqichlari, ilm-fan oldiga kelgusida sportchilarni tanlash va ularning tayyorgarligini baholash uslubiyatlari samaradorligini oshirish zaruriyati to'g'risidagi savollarni keskin qo'yimoqda.

Sportning takomillashuv faoliyatida maqsadga intilish, mehnatsevarlik, qat'iyat va matonatni muntazam tarbiyalash bilan uyg'unlashib yuqori natijalarga erishishlariga zamin yaratmog'i lozim.

Voleybol sport turida o'yin harakatlarining yuqori tempi, vaziyatlarning tez o'zgarishi, to'p uchun kurashda bevosita raqibdan ustun kelishlik, taktik vazifalarni yechishdagi chegaralangan vaqt, hayajon va uning boshqa xususiyatlari sportchining harakat, funksional va ruhiy holatiga katta talab qo'yadi.

Shuning uchun voleybol sport turi bilan shug'ullanish uchun bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish mumammolarini, bolaning harakat, funksional va ruhiy faoliyatining turli tomonlarini, ularning sport mahoratini shakllantirish jarayonidagi mustaqil rivojlanish xususiyatlarini to'liq o'rganmasdan hal qilib bo'lmaydi.

Tibbiy-biologik uslubiyatlar, bolalarning funksional xususiyatlari va tizimlarini o'rganish, ularning oliy asab tizimi faoliyatining individual xususiyatlarini aniqlash, morfologik ko'rsatkichlarini tavsiflash va baholash uchun juda muhim.

Psixologik uslubiyatlar, voleybolchilarning tezkor fikrlash xususiyatlarini, o'yinchilarning jamoadagi psixologik moslashuvi, ularning emotsional barqarorligini aniqlashga yordam beradi.

Maksimal yetuklik individ, shaxs rivojining cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, ana shu cho'qqi yunonchada "akme" deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi. Shu bilan birga, "akme"da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning "yulduzli" onlari yoki shunga yaqin jarayonlari.

Akmeologik yondashuv asosida voleybolchilarda jismoniy sifatlar ko'rsatkichlarini rivojlantirish, voleybol sport turini samarali o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- jismoniy-tarbiya darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarida voleybol sportini o'rgatishda belgilangan mashqlar tizimining yuqori darajasini ishlab chiqish orqali jismoniy sifatlarini shakllantirish;

- yordamchi va maxsus mashqlar orqali o'quvchilarga jismoniy mashqlar yuqumlilik darajasini oshirish va ijobiy ta'sirini aniqlash;

- o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida voleybol sport turiga yo'naltirishda harakatli o'yinlarni yosh xususiyatlariga moslashtirish va samaradorligini o'rganish;

- dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni voleybol sport turiga tanlash-tayyorlash va voleybol mashg'ulotiga moyilligi, chidamliligi, fikrlash doirasi va qiziqishini oshirish hamda jismoniy, aqliy sifatlarini rivojlantirib borish.

Akmeologik yondashuvning asosiy maqsadi – progressiv rivojlanishga hamda birinchi navbatda shaxsning professionalizmi va muayyan mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadi. Akmeogramma doimo individual bo'ladi, rasmiy ravishda u samarali faoliyat ko'rsatayotgan subyektning individual kesimini, uning imkoniyatlari va istiqbollarini, o'rnini qoplaydigan va aksi bo'lgan xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.

Akmeologik yondashuv orqali biz voleybol sportini yuksak darajaga chiqarish maqsadiga muvofiq bosqichma-bosqich, dastlabki, o'rta va keyingi yetukligida bo'lgan

munosabatlarini yosh shug'ullanuvchilar tomonidan o'zlashtirishi (asosan professional sifatida) qonuniyatlarining mexanizmlarini aniqlab beradi. Akmeologik izchillik, ya'ni mukammallik cho'qqisiga intilish, bu – inson hayotining ajralmas xususiyati bo'lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga moyillik anglatiladi. Bunday izchillik insonning ijodiy potensialida va kasbiy mahoratida o'z ifodasini topadi. Akmeologik izchillik inson hayot-mamotining ontologik attributidir, ya'ni insonning tug'ilganidan toki umrining oxirigacha bo'lgan individual rivojlanish yo'lini qamrab oladi. Akmeologiya aynan shu jihati bilan jamiyatshunoslik va insonshunoslik fanlari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanib ketadi. Akmeologiya ning ijtimoiy bilimlar bilan aloqasi uning tarixiy va madaniy ildizlarini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ta'kid akmeologiya ning falsafa bilan o'zaro bog'liqligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday aloqa ikki yo'nalishda amalga oshadi – birinchidan bu, dunyoqarashga oid tomon bo'lsa, ikkinchidan, metodologik tomonni tashkil etadi. Akmeologiya inson kasbiy faoliyati doirasidagi professionallik va ijodiylikning akme shaklining rivojlanishi uchun zarur qonuniyatlarni o'rganuvchi fan bo'lgani uchun “akmeologiya” atamasining mazmuni, mohiyati insonshunos olimlar tomonidan turli bahs va munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Akmeologiya – tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi ta'limot bo'lib, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi haqida yanada yuksakroq darajalarni egalash fenomenologiyasini tadqiq etadi. Akmeologiya mahsuldorlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, samarador faoliyat, professionalizm va ijod rivojlanishidagi hamda texnologiyani ishlab chiqib, mashg'ulot faoliyatida yuksaklikka erishishning yo'nalish va usullarini izlash va ularning bu jarayon qonuniyatlariga tatbiq etish, professionalizmnining ijodiy yutuqlari sari yo'naltirilgan samarador tizimlar darajalarini belgilash bilan shug'ullanadi. Globallashuv davrida fan va texnologiyalar rivojlanish cho'qqisiga chiqar ekan, “barkamol avlod”, “akmeshaxs” kabi tushunchalar ilmiy muomalaga kirib keldi. Shunday qilib akmeologik yondashuv jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarni o'qitishda samarali usul hisoblanib jarayonni tizimli ravishda yuqori cho'qqiga olib chiqish samarasini beradi. O'quvchilarga jismoniy tarbiya darslarida hamda darsdan tashqari mashg'ulot jarayonlarida voleybol sport turini o'rgatishda va yuqori natijalarga erishishni hamda shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarliklarini yaxshilashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonova M.A. *Boshlang'ich tayyorgarlik davrida yosh voleybolchilarni tanlash va mashg'ulot jarayonida xalq harakatli o'yinlaridan foydalanish.* –T., 2006. *Jismoniy tarbiya va sport jurnali.* 2018-yil.
2. Shukurlayev J.M. *7-14 yoshli maktab o'quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish metodikasini takomillashtirish. TDPU magistrlik dissertatsiyasi.* 2020-yil.
3. Pavlov Sh. K, Abduraxmonov F. A. *Podgotovka gandbolistov.* –T.: Uz GIFK, 2006.
4. Shukurlayev J.M. *7-14 yoshli maktab o'quvchilarini voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari.* “Mug'allim hem uzliksiz bilimlendiro” 2-son. 2019-yil. *Nekis.sh. B.153-156.*

Javlonbek XUDOYBERGANOV,
Chirchiq davlat pedagogika instituti,
“Fakultetlararo jismoniy tarbiya” kafedrası o‘qituvchisi

TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILAR JISMONIY TARBIYASINING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarni jismoniy madaniyat fanining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati, uni o'qitish orqali shaxsni nafaqat jismoniy jihatdan, balki har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy madaniyat, ta'lim-tarbiya, fan, o'qituvchi, shaxs, barkamol, yoshlar, intellektual, avlod, fuqaro, Vatan, sport.

Статья посвящена изучению роли и значения физической культуры в системе образования учащихся и студентов, обучающихся в Республике Узбекистан, воспитанию человека не только физически, но и всесторонне компетентным путем ее преподавания.

Ключевые слова. Физическая культура, образование-воспитание, наука, учитель, личность, гармоничность, молодежь, интеллектуальная, поколение, гражданин, Родина, спорт.

This article is devoted to the study of the role and importance of physical culture in the education system of students and students studying in the Republic of Uzbekistan, the education of a person not only physically, but also comprehensively competent through its teaching.

Key words. Physical culture, education-education, science, teacher, personality, harmoniously developed, youth, intellectual, generation, citizen, Homeland, sport.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral kunidagi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqlanishi hamda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ularni jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021-yilni “Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yili deb e'lon qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmon va farmoyishlarida sportga qobiliyatli bolalarni jismoniy mashg'ulotlar va sportga jalb etish, shuningdek, ularni saralab olishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishga mo'ljallangan fundamental va amaliy izlanishlarni amalga oshirish hayotiy zaruriyatdir.

O'quvchi-talabalarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishda, ularning sog'lom bo'lib etishishlarida o'quv yurtlarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya va ommaviy sport ishlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va jahon standartlariga muvofiq bo'lgan kadrlarni tayorlash bo'yicha ta'limning milliy dasturi ishlab chiqilgan.

1. Sog'lomlashtirish.
2. Har tamonlama yetuk inson qilib tarbiyalash.
3. Vatan mudofaasiga hamda mehnatga tayyorlash.

Jismoniy tarbiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchi va talabalarni sog'lomlashtirish, chiniqtirish, jismoniy rivojlantirish, harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari belgilanadi:

Jismoniy mashqlar va sportga oid maxsus bilimlar berishda jismoniy mashq deb, jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi.

Bunday harakat faoliyatlari gimnastika, o'yinlar, sport, turizm mashqlari sifatida tarixan tizimlashtirildi. Ularga gigiyenik bilim va ko'nikmalar singdirildi. Bu vazifa o'quvchi va talabalarga jismoniy mashg'ulotlarning foydasi haqidagi gigiyenik qoidalarga, dasturda ko'zda tutilgan barcha jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarish qoidalariga rioya qilish haqidagi zarur bilimlarni berishdan iborat. Bularning hammasi sog'liqni mustahkamlashga, ularning gigiyena qoidalarini bilishlari va ularga amal qilishlariga bevosita daxldor bo'lib, bunga maktab, oila, jamoatchilik hamda bolalarning o'zlarining birgalikdagi harakat bilan erishiladi.

Jismoniy mashqlarga va sport mashqlariga jismoniy tarbiya darslari, kun tartibidagi tadbirlar hamda to'garak mashg'ulotlarida o'rgatiladi. Uning natijasida jismoniy rivojlantirish ta'minlanadi. Shuningdek, o'quvchi va talabalarda sportga qiziqishlar shakllantirilib, sport turlariga jalb etiladi.

Sog'liqni mustahkamlash, o'quvchilarni to'g'ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish. Tabiat omillari suv, quyosh, havo ta'sirida o'quvchilarni sog'ligini mustahkamlash, chiniqtirish hamda organizmni kasalliklarga chidamliligini o'rnatish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini imkoni boricha toza havoda o'tkazish yoki sport zallarini toza havo bilan ta'minlanishini tashkil etish. O'quvchi va talabalarni suv muolajalari, suzish va cho'milish mashg'ulotlarini olib borish hamda quyoshga toblanish tadbirlarini boshqarish. Bu tadbirlarni sayrlar, ekskursiyalar va turizm mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Bu vazifa ta'lim muassasasidagi barcha jismoniy madaniyat va sport ishlarining eng muhimi hisoblanadi. U har bir o'qituvchining, pedagoglar jamoasining diqqat markazida bo'lish kerak. Shuning uchun o'quvchi va talabalarning jismoniy jihatdan normal rivojlanishi kerak.

O'quvchi va talabalarda harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda ularni jinsi, yoshi va jismoniy tayyorgarligi hamda shaxsiy qobiliyatiga qarab yondashish zarur. Jismoniy fazilatlarini takomillashtirish. Tezkorlik, kuch, epchillik va chidamlilik hamda egiluvchanlik har bir kishi uchun zarur bo'lgan sifatlardir. Ular o'quvchi va talabalarda harakat ko'nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Jismoniy mashqlarni qisqa yoki uzoq vaqt davomida turli sur'atda, turli murakkabliklar bilan o'tkazish yuqoridagi sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Jismoniy fazilatlarini bir-biriga muvofiq holda rivojlantirish, mashg'ulotlarni shug'ullanuvchilar shaxsiy qobiliyatlariga muvofiq tashkil etish hamda o'quvchilarni sport turlariga jalb etishdan iborat.

O'quvchi va talabalarni ta'lim muassasalaridagina emas, balki uyda ham jismoniy mashqlarni sistemali ravishda bajarishga odatlantirib borishdan iborat. Bu muhim vazifani amalga oshirish uchun o'quvchi va talabalar bilan olib boriladigan barcha mashg'ulotlarni jonli, o'rganiladigan materialning mazmuni va shaklini qiziqarli, hayajonli qilish, mashg'ulot rahbarining samimiy muomalasi ostida o'tkazish, shug'ullanuvchilar o'zaro do'stona hamkorlik qilishlari uchun sharoit yaratish zarur.

O'quvchi va talabalarni shaxsiy qiziqishlari va jismoniy qobiliyatlariga ko'ra ularni sport turlari bilan shug'ullanishga jalb etish. Shuningdek, yashash joylarida, sport to'garaklarga umumiy jismoniy tayyorgarlik va sport mashg'ulotlarni amalga oshirish kerakdir. O'quvchi va talabalarda tashkilotchilikni tarbiyalash, jismoniy madaniyat faoliyatini tayyorlash, ta'lim muassasasi ommaviy jismoniy madaniyat va sport ishlarini muvaffaqiyatli olib borish, jismoniy madaniyat darslari hamda mashg'ulotlarni to'laqonli o'tkazishda o'quvchi va talabalar jismoniy madaniyat faoliyatining o'qituvchiga doimiy yordami zarur.

O'quvchi va talabalar orasida jismoniy madaniyat tashkilotchilari, sport to'garaklarida jamoa sardorlari, guruh boshliqlari saylanadi. Ular faol ishtirokchi ichidan tanlanadi. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarishda jismoniy madaniyat jamoasiga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, o'quvchi va talabalarni sportga jalb etish va jismoniy tarbiyaga qiziqishlarini orttirishda ahamiyati kattadir. Jismoniy rivojlanish tarbiyaning ta'sirida organizmda biologik shakllar va funksiyalarning vujudga kelishi, o'zgarishi va takomillashuvdir. Bu jarayon organizm va uning yashash muhiti tuzilishi, o'zgarishi, miqdor va sifat qonuniyatlariga bo'ysunadi. Inson organizmini jismoniy jihatdan baquvvat qilish albatta organizmga berilayotgan jismoniy yuklamalarni meyorida hamda mashg'ulotlarni to'g'ri olib borish natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kachashkin V.M. *"Jismoniy tarbiya metodikasi"*. –T.: O'qituvchi, 1982.
2. Usmonxodjayev T.S., Xo'jayev F. *"Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya"*, O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1996.
3. Abdullayev A. *"Jismoniy tarbiya vositalari"*, O'quv qo'llanma. Farg'ona, 1999.
4. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. *"Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi"*–Farg'ona, 2001.
5. Rahimov M., Xolto'rayev B. *Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiyani o'qitish nazariyasi va metodikasi* –T., 2002.

Farhod NURMATOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası mudiri

HARAKATLI O'YINLAR BOLA TARBIYASINING ASOSIY USULI SIFATIDA

Annotatsiya

Muallif kichik maktab yoshini o'yin va o'quv jarayoniga kiritish uchun optimal vaqt deb hisoblaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari eng samarali deb hisoblaydigan harakatli o'yinlarga misollar keltiradi. Bolalarning ongli intizomini shakllantirishda harakatli o'yinlar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Kichik maktab yosh, o'yin, ta'lim, chaqqonlik, harakat, rivojlanish, ishtirokchi.

Автор считает младший школьный возраст оптимальным временем для включения в игровой и учебный процесс. Приводятся примеры подвижных игр, которые учителя физкультуры считают наиболее эффективными. Он подчеркивает, что подвижные игры имеют большое значение в формировании сознательной дисциплины детей.

Ключевые слова. Младший школьный возраст, игра, воспитание, ловкость, движение, развитие, участник.

The author considers junior school age as optimum time for inclusion of a game in teaching and learning process. Gives examples of the games which Physical Education teachers assume to be the most effective. Emphasizes that active playing is of large importance in children's conscious discipline forming.

Key words. Primary school age, game, education, agility, movement, development, participant.

Inson bolalikdan turli yo'nalishdagi harakat malakalarini ongsiz va ongli tarzda bajaradi. Natijada shu harakatlar ma'lum jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik) tusida rivojlana boradi. Sekin-asta hayotiy zarur harakat malakalari (yurish, yugurish, sakrash, to'xtash, osilish va h.k.) sayqal topadi. Mutaxassislarining fikriga asosan, shu jismoniy sifatlar va hayotiy zarur harakat malakalari harakatli o'yinlar yordamida yanada samaraliroq rivojlanishi isbotlab berilgan.

O'qituvchining vazifasi bolaning qiziqarliligi uchun jiddiy mashg'ulotlar o'tkazishdir, bu esa o'quvchining charchashi va zo'riqishini minimallashtiradi va dars davomida diqqatini saqlab turadi, deb hisoblayman. Asarda birinchi bor bolaning dunyoga ta'sir ko'rsatish ehtiyoji shakllanadi va namoyon bo'ladi.

Muvaffaqiyatli bo'lishning asosiy shartlaridan biri jismoniy tarbiya muammolarini hal etish bolalarning faol harakat faoliyati bo'lib, u barcha ish shakllaridan integratsiyalashgan holda foydalanish orqali ta'minlanadi.

O'yin jarayoni bilan bog'liq bolalar uchun yoqimli jismoniy va faol harakatlar, noma'lum o'yin har doim yangi bir elementni o'z ichiga oladi. Axir shu o'yin, vaqti-vaqti bilan takrorlansa ham avvalgi versiyalarga o'xshamaydi, uning ishtirokchilarining harakatlari bir xil emas. Faqat bo'lajak o'yinni kutish bolalarda ijobiy hissiyotlarga

sabab bo'ladi. Shu sababli maktabda o'yinlardan foydalanish haqida gapirganda, bir tomondan, bolalarning o'yinga bo'lgan ishtiyoqini, ikkinchi tomondan esa pedagogik rahbarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni, maktab jamoasida o'yinni rejalashtirish va undan tizimli foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, kutilgan pedagogik samarani belgilaydi.

Harakatli o'yinlar eng to'liq bolalik tabiatiga mos. Bunday o'yinlar ishtirokchilarga keng ko'lamli xatti-harakatlarni beradi, ularning harakatlarini oldindan bashorat qilib bo'lmaydi. Harakatli o'yinlar epchillik, tezkor reaksiya va ixtirochilikni rivojlantiradi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalashda harakatli o'yinlarning o'rni. Maktab davridan boshlab o'quvchilarning ma'naviy, jismoniy va funksional shakllanishida harakatli o'yinlarining o'rni beqiyosdir. Standart mazmundagi vazifa, ko'rsatma yoki mehnat va sport mashqlarini bajarish kishini tez toliqtiradi. Lekin, shunday harakatlarni milliy o'yinlar asosida, ijro etish odamning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, charchash muddatini orqaga suradi. Shuning uchun sport mashg'ulotlarida, ayniqsa yosh sportchilarni dastlabki tayyorlashda turli mazmunga xos harakatli o'yinlardan foydalanish alohida amaliy ahamiyatga egadir.

O'yinlar o'zining hammabopligi (universalligi), ko'p funksionalligi va keng ta'sirchanligi bilan xilma-xil toifalarga bo'linadi. Jumladan, jismoniy sifatlarni, nutqni, talaffuzni, merganlikni, tadbirkorlikni, hisobni va hokazo xislatlarni rivojlantiruvchi o'yinlari shular jumlasiga kiradi. Lekin, qanday o'yin bo'lmasin, unda harakat elementi yoki harakatlar majmuasi mavjud bo'ladi. Harakatli o'yinlar o'z mazmuni va mohiyati jihatidan sport o'yinlaridan tubdan farq qiladi. Harakatli o'yinlar sport o'yinlari kabi maxsus tayyorgarlik, muayyan musobaqa qoidasi, sport kiyimi, muddati, maydoni, ishtirokchilar tarkibi kabi aniq chegaralangan me'yoriy omillarni talab qilmaydi. Faqat bittagina harakatli o'yinni turli joyda, va vaqt davomida, kiyimda, tarkibda (soni jihatdan) o'ynash mumkin. Eng muhimi harakatli o'yin davomida kuzatiladigan erkin va ixtiyoriy harakatlanishlar (nostandart harakat yo'nalishi, qichqiriq, xushchaqchaqlik va hokazo) ijobiy emotsional holatni (reaksiyasini) yuzaga keltiradi. Ushbu holat esa o'z navbatida sport mashg'ulotida (yoki standart mashqlar seriyasini ijro etganda) tezroq vujudga keladigan charchash asoratlarini "chetlab" o'tishiga yoki kechroq paydo bo'lishiga yordam beradi.

Harakatli o'yinlar bo'yicha O'zbekistonda yetakchi mutaxassis-olimlar T.Usmanxo'djayev va F.Xo'jayevlar turli yo'nalishdagi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish masalalariga oid qator tavsiyalar berib o'tishgan. Jumladan, ularning fikricha harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda bir qator masalalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. O'quvchilarning jismoniy barkamolligi, salomatligini yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a'zolari va umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish.

2. Erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan bilimlar va hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantirish.

3. Ruhiy, aqliy, kasbiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish.

4. Umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash.

5. Jasurlik, topqirlik, zukkolik, tadbirkorlik xislatlarini rivojlantirish shular jumlasidandir. Mualliflar turli sinf o'quvchilariga mos o'yinlar, yilning turli fasllarida, kunduzgi va kechqurun o'ynaydigan o'yinlarni saralab berishgan va ularning mohiyatini yoritishga muvaffaq bo'lishgan. Eng asosiysi, mutaxassislar maktab sport seksiyalarida, jumladan sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi bolalarga "Mushuk va sichqon", "Bo'sh joy", "Qoziq", "Bo'ri zovur ichida", kabi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb ta'kidlaydi.

Boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlardan foydalanish tajribasini o'rganish. Jismoniy

tarbiya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan sport mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va harakat malakalariga o'rgatish samaradorligini oshiradi. Ushbu fikrning qanchalik to'g'riligi 1-bobda qayd etilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlilida aniq isbot qilib beradi. Ma'lumki, bolalar go'dakligidan boshlab erkin harakat qilishni yoqtiradi. Bunday erkin harakatlar bemaqsad bo'lmaydi. Agar turli-tuman o'yinchoqlar (qo'g'irchoqlar, ayiqcha, qushcha, samolyot, avtomobil, traktor va hk.) har xil joylarga sochib tashlangan bo'lsa, emaklab yuradigan yoshdagi bolalar ham o'zi yoqtirgan (rangi, turi, katta-kichikligi) o'yinchoqlarni olish niyatida harakat qilishadi. Demak, jismoniy yoki sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda ham bolalarning yoshi, jinsi, qiziqishi va boshqa xislatlari e'tiborga olinishi lozim. Sport tayyorgarligi ko'p bosqichli murakkab pedagogik jarayon bo'lib, mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilishni taqazo etadi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlar shug'ullanuvchi bolalarning yoshi, jismoniy va funksional imkoniyatlariga moslab rejalashtirilishi va qo'llanilishi lozim. Ushbu mashqlar soni, shiddati, qaytarilishi va davom etishi vaqti biologik qonuniyatlarga asoslanishi darkor. Agar mashqlar yuklamasi bolaning imkoniyatidan o'ta yuqori bo'lsa, bunday yuklama shu bolaning organizmiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Aksincha, yuklama imkoniyatdan kam bo'lsa shakllanish jarayoni sustlashishi muqarrar.

2-sinf o'quvchilarida jismoniy tayyorgarliklarining rivojlanganlik darajasi 20 nafar 9 yoshli 2 sinf o'quvchilari ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ularning bo'yi o'rtacha 124,15 sm, vazni – 32,0 kg ni tashkil etdi. Jismoniy tayyorgarligi esa ancha zaif rivojlanganligidan darak beradi. Shu yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy tayyorgarligi "Alpomish va Barchinoy" test ko'rsatgichlari bo'yicha tadqiqotimizda ishtirok etgan bolalarnikidan ancha yuqori ekanligi kuzatildi. Masalan, "Alpomish va Barchinoy" test ko'rsatgichlari bo'yicha 30 m ga yugurish natijasi 6.2-5.5 s, joydan uzunlikka sakrash 125 smga teng bo'lsa, bizni tekshiriluvchilarimizda muvofiq ravishda 7.6 s, 120.9 sm, ni tashkil etdi.

Umum ta'lim maktablarida harakatli o'yinlarni uyushtirish, milliy ongni shakllantirish omili sifatida aytish mumkin.

Shunday qilib biz umumtalim maktablarida o'quvchilar bilan o'zbek milliy harakatli o'yinlarini tashkil qilishda, avvalo, quyidagi vazifalarni hal etishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

- o'quvchilarni jismoniy kunikma va malakalarini oshirish;
- milliy maktab o'quvchilarini har tomonlama jismoniy rivojlantirish.

Jismoniy tarbiya o'quv dasturi ishlab chiqilayotganda o'lkamiz iqlimi va joylashuvi milliy an'analarga xos xususiyatlar maktablarning moddiy o'quv sport bazasi e'tiboriga kam olinadi. O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda majburiy mashg'ulotlar o'rniga milliy xalq o'yinlarini jismoniy mashqlar va milliy sport turlarini saralab olish, ularning hajmi yo'nalish va ta'sirchanligini belgilashda Ibn Sinoning "Al Qonun", Kaykovusning "Qobusnoma" Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarlari ajoyib manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek sportning milliy turlari kurash (Buxorocho, Farg'onacha va hk), "Chavlon", "Uloq", "Zuvvulotar" va boshqalarni dars va darsdan tashqari ishlarida joriy etish ko'zlangan maqsadni beradi. Binobarin, o'quvchilarning qiziqishlari yosh va jins xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik darajasini kuzatish, shu asosda mashqlarni qaytadan ishlab chiqish, yoshlarni har tomonlama yetuk, inson qilib tarbiyalashda zamonaviy mukammal tajriba sinovlaridan o'tgan mashq va sport turlarining ahamiyatini hisobga olish nihoyatda zarur. Buning uchun

tegishli vazirliklar mablag' ajratishi, pedagogika sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bir maqsad sari birlashtirilishi, olimlar, o'qituvchilardan iborat maxsus ishchi guruhlarini tuzish lozim. Hozirgi kunda bajariladigan har bir ish, yumush uchun mablag' ajratilishi va uning natijasi oldida javobgarlik hissi turadi, shuning uchun bo'lsa kerak, uni bozor iqtisodiyoti deb ataydi, undan tashqari uni bir-ikki kishi yoki biror muassasa o'zi ishlab chiqib payoniga yetkaza olmaydi, u bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jiddiy ilmiy tadqiqot va uslubiy ishlar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi.

Milliylashtirilgan maktablarda jismoniy tarbiya fanidan yigit va qiz bolalarni alohida o'qitish milliy an'analarimizdan kelib chiqadi. O'g'il bolalar kelajakda ota, oila boshlig'i bo'ladi. Shuning uchun jismoniy mashqlarni, milliy o'yinlar va xalqning turmush tarzi, hayotiy zarur bo'ladigan malaka va ko'nikmalarni bevosita shakllantiradigan va taraqqiy ettiradigan harakatlar tanlab olinishi kerak. Jismoniy tarbiya qizlarimizni iffatli, iboli, hayoli va nazokatli, ko'rkam, yigitlarni kuchli, chidamli, or-nomusli, qilib tarbiyalamog'i zarur.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiyalash majmua dasturida ham xalq o'yinlarini kiritish haqida tavsiyalar berilgan. Masalan, X.N. Tojiboyev, T.S. Usmonxodjayev, "Harakatli o'yinlar", N. Rahimjonova "Bolalar bog'chalarida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar" va boshqalar. Lekin yuqorida qayd etilgan barcha qo'llanmalarda xalqning iftixori, ichki ma'naviy dunyosi, g'ururi, uning xarakter xususiyatlarini belgilaydigan ijodkorlik, vatanparvarlik kabi o'ziga xos xususiyatlar aks ettirilmagan. Ahvol shunday ekan, hozirgi yashab turgan avlod – biz xalqning madaniy boyliklarini, qadriyatlarimizni tiklashimiz, faxr va g'urur ila kelajak avlodga bekamu-ko'st yetkazib berishimiz har birimiz uchun ham qarz ham farzdir.

Olib borilgan tadqiqotlarimizda yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalar o'ynar ekan, xalq tomonidan sovg'a qilingan va yuzaga keltirilgan o'yinga kirishib ketadi. Yo'l-yo'lakay o'yinda xalq yaratgan madaniyat elementlari bilan yaqindan va chuqur-roq tanishib, o'yinda qo'llaniladigan qadimiy atamalar va iboralardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonxo'djayev T.S., Qosimova M.U. 500 mashq va harakatli o'yinlar. –T.: O'zDJTI nashriyot bo'limi. 1999. –60-b.
2. Rasulev A.T., Pulatov A.A., Qosimova M.U. O'zbek xalq o'yinlari ularning tasnifi va tavsifi. //O'quv-qo'llanma. –T., 1996. – 98-b.
3. Былеева Л.В., Коротков И.М. Подвижные игры –М.: Физ. 2002.
4. Макаренко А. С. Лекции о воспитании детей. – Соч. в 7-ми т., т. 4, –М., 1957.– С. 383.
5. Rasulev A.T., Pulatov A.A., Qosimova M.U. O'zbek xalq o'yinlari ularning tasnifi va tavsifi. //O'quv-qo'llanma. – T., 1996. – 98-b.

Ulug'bek ZOKIROV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası o'qituvchi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYADA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllari, sinfdan tashqari ishlarda musobaqalarni tashkil etish, sinfdan tashqari ishlarni o'qituvchi va o'quvchilarning kunlik faoliyati tarkibiga kiritish masalalari, ularning organizmlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hamda jismoniy (harakat) sifatlarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Dars, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi, usul, shakl, maktab jismoniy madaniyat jamoasi, harakatli o'yin, "Alpomish" va "Barchinoy" testi me'yori.

В статье рассматриваются содержание и формы организация внеклассной работы по физическому воспитанию в общеобразовательных школах, организация соревнований по внеклассной работе, вопросы включения внеклассной работы в повседневную деятельность учителя и учащихся, ее положительное влияние на их организм и роль в развитии физических (двигательных) качеств.

Ключевые слова. Урок, физическое воспитание, здоровый образ жизни, метод, форма, школьный физкультурный коллектив, подвижная игра, норма теста "Алпомиш" и "Барчиной".

The article deals with the content and forms of organization of extracurricular work on physical education in secondary schools, the organization of competitions in extracurricular work, the inclusion of extracurricular work in the daily activities of teachers and students, its positive impact on their bodies and the role in the development of physical (motor) qualities.

Key words. lesson, physical education, healthy lifestyle, method, form, school sports team, outdoor game, the norm of the test "Alpomish" and "Barchinoy".

O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar maktabning barcha umumiy ta'lim fanlari bo'yicha o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlar qatori umumiy pedagogik jarayonning muhim zvenolaridan biri hisoblanadi. Sinfdan tashqari vaqtda olib boriladigan ommaviy jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari shug'ullanuvchilarda tashkilotchilik, maqsadga intilish, qat'iyat, tashabbuskorlik, tez qaror qabul qilish, uni yechimini topish, mustaqillik, botirlik, o'zini boshqarish, ushlay bilish, intizomlilik va boshqa xususiyatlarni shakllantiradi, rivojlantiradi.

To'g'ri tanlangan ta'limiy va tarbiyaviy vositalar, usullar va mashg'ulotlarning shakllari o'quvchi shaxsining shakllanishida kasb tanlash, boshqaruv malakalari, yetakchilik qilish, lozim bo'lganda tashabbusni, mas'uliyatni o'z qo'lga olish, hal qiluvchi qaror qabul qilishdan qo'rqmaslikda qator tarbiyaviy ta'sir, belgilangan qator kasblarni tanlash, ular egallash, yangilikka qiziqish, intilishdek jihatlarni tarbiyalaydi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev chiqargan qator farmonlari va qarorlarini amalga oshirish orqali mamlakatimizda ta'lim tizimining bar-

cha zvenolarida, jumladan umumiy ta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning jismoniy madaniyati va sportini rivojlantirish bo'yicha Birinchi Prezidentimiz boshlab bergan amaliy, moddiy ma'naviy ishlar o'zining natijasini jahon hamjamiyati oldida isbotlab berdi.

Yurtboshimizning tashabbusi va amaliy ishlari mamlakatimizning eng chekka qishloqlardan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiyadan nafaqat o'quv ishlarini, hatto, sinfdan tashqari ishlarini zamon talablari darajasida o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan zamonaviy sport inshootlari, sport jihozlari va inventarlari bilan ta'minlashni uddaladilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda, o'quvchilarning kunlik faoliyatlari tarkibiga sinfdan tashqari ishlarni kiritish, ularning sog'ligini saqlash, muhofaza qilish, sog'ligini mustahkamlash bo'yicha ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida, maktab rahbaryati "Maktab jismoniy madaniyat jamoasi", jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, maktabning turli yo'nalishlar bo'yicha faollari tomonidan tashkil etiladi.

Viloyatimizning "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining" oxirgi 3 yildagi (2016-2018), hamda o'quvchilarning ko'ngilli sport jamiyati "Yosh kuch"ning hisobotlari viloyatdagi mavjud 900 dan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirish ishlarining faqat bitta ko'rsatkichi – "Sport inshootlarini qurilishi va mavjudligi" haqidagi ma'lumot, hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarini soha mutaxassislar bilan taminlanganligi darajasi sinfdan tashqari ishlarga viloyat maktablari o'quvchilarining 40 foizga yaqinini qamrab olish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi.

Bu ko'rsatkich sobiq Ittifoq davridagi soxta, raqamlar oshirib yoziladigan noreal ko'rsatkichlardan ham yuqoriligini ko'rsatadi. Uni hisobga olsak mustaqillik yillarida biz o'rganayotgan muammo sinfdan tashqari ishlar bo'yicha qamroviga ko'ra katta ishlar bajarilganligini takidlashimiz lozim.

Tahlillarimiz sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilarning qamrovi 40 foizdan ortiq o'quvchilarni qamrash imkoniyati mavjudligi bizni quvontirsada amaldagi qamrov, sinfdan tashqari ishlarni tashkillash va o'tkazishning sifati, samaradorligi sohaning maktab pedagogik faoliyatidagi innovatsiyalarga muhtojligi, tashkillashdagi yangi pedagogik texnologiyalarni tanlash va uni qo'llashni takomillashtirishni taqazo etishini pedagogik kuzatishlarimiz, Farg'ona viloyati Marg'ilon shahri va Toshloq tumani Xalq ta'limi boshqarmalarining oxirgi uch o'quv yili (2014-2017-o'quv yillari)dagi hisobotlari orqali o'rgandik.

Tadqiqotlarimiz davomida sinfdan tashqari ishlar mazmuniga kiruvchi soha mutaxassislarining pedagogik faoliyati tarkibidagi (maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining) kasbiy nazariy bilimlari, Farg'ona davlat universitetining jismoniy tarbiya fakultetidagi oxirgi ikki yilda tahsil olgan bitruvchilarning 165 nafarini jismoniy tarbiya fani dasturlaridagi o'quv materialining mazmuniga oid bilimlari saviyasi davlat buyurtmasi talablari darajasida emasligini (2016-2017; 2017-2018) o'quv yillaridagi ko'rsatkichlarini tahlili orqali aniqladik.

Chunki ixtisoslikning – "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" fani va uning dasturida "Sinfdan tashqari ishlar" uchun o'quv materiali mavzulari o'ta qisqa va sinfdan tashqari ishlar mazmunini qamrab olgan deb bo'lmaydi.

Olingan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda, avvalo, maktablarning moddiy bazalarini yetarli darajada ta'minlash lozim bo'ladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarning yetarli darajada jismoniy tarbiya fani bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi jismoniy tarbiya

darsini va sinfdan tashqari ishlarni, sport tadbirlarini faollik bilan tashkil etishning samaradorliklarini yaratib beradi. Har bir pedagog o'z ustida innovatsion yoki novatsion pedagogik texnologiyalarni har bir fan tarmog'ida qo'llay olishi kelajak avlodning bilimli, dunyoqarshi keng, har tamonlama yetuk kadr bo'lib chiqishiga zamin yaratadi.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, tuzilishi, uning mashg'ulotlarining shakllarining an'anaga aylangan ommaviy sog'lamlashtirish va ommaviy sport tadbirlari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) sport bayramlari;
- 2) sport kechalari;
- 3) sport turlari kunlari-yuguruvchilar, sakrovchilar, uloqtiruvchilar, tennischilar, charm to'p ustalari, va h.k.lar deb nomlanadigan kunlari;
- 4) quvnoqlar va zukkolar uchrashuvlari (QVZ);
- 5) jismoniy madaniyat mavzusidagi "Viktorina"lar;
- 6) salomatlik kuni;
- 7) maktab sport musobaqalar (championatlar, an'anaviy spartakiadalar, o'rtoqlik uchrashuvlari, blits turnirlar);
- 8) "Umid nihollari" ning birinchi va ikkinchi bosqich musobaqalari;
- 9) umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklari;
- 10) sport seksiyalari mashg'ulotlari va ularning byurosi faoliyati;
- 11) "Alpomish" va "Barchinoy" salomatlik testi bo'yicha ishlar;
- 12) O'quv kuni tartibidagi sog'lamlashtirish tadbirlari – darsgacha gimnastika, uyushtirilgan tanaffuslar, jismoniy madaniyat daqiqalari;
- 13) jismoniy madaniyat pauzalari;
- 14) jismoniy madaniyat faollarini tayyorlash;
- 15) sport turlari bo'yicha yo'riqchilar tayyorlash (o'quvchilardan jamoatchi ota-onalardan, nafaqadagi sportchilar va boshqa) lardan;
- 16) jismoniy madaniyat jamoasi kengashining faollarini tayyorlash;
- 17) darsgacha gimnastika o'tkazuvchi faollarni tayyorlash;
- 18) uyushtirilgan tanaffuslar (o'quv kuni davomida o'quvchilarni aktiv dam oldirish maqsadida);
- 19) sport maktablari bilan aloqa ishlari;
- 20) ota-onalar kengashi bilan ishlash;
- 21) jismoniy madaniyat fani o'quv materialini o'quvchilarni o'zlashtirishiga bag'ishlab ota-onalar majlislarini tashkillash ishlari;
- 22) maktab sporti hakamlari federatsiyalari faoliyati;
- 23) sport turlari bo'yicha hakamlar tayyorlash seminarlarini o'tkazish;
- 24) maktab sporti jamoatchi yo'riqchilarini tayyorlash seminarini o'tkazish;
- 25) sport razryadlarini hujjatlashtirish ishlari;
- 26) hakamlik sertifikatlar, "Alpomish" va "Barchinoy" salomatlik testi ko'krak nishonlari, guvohnomalarini tayyorlash va taqdirlash, ularning qaydnomalarini va boshqa hujjatlarni yuritish;
- 27) turizm seksiyasi faoliyatini boshqarish
- 28) "Maktab jismoniy madaniyat jamoasi" ning rejalarini – "Umumiy o'rta ta'lim maktabining jismoniy madaniyatini rivojlantirishning istiqbolli rejasi, maktab jismoniy madaniyat jamoasining yillik rejasi", maktab sporti musobaqalarning taqvim rejasi, "Alpomish" va "Barchinoy" salomatlik testi me'yoriy normalarini topshirish reja jadvali, maktab sport seksiyalarining o'quv rejalar, trenirovka mashg'ulotlarining reja – jadvali

va boshqa rejalarini tuzish ishlari;

29) maktab jismoniy madaniyatini targ'iboti va tashviqoti ishlari;

30) jismoniy madaniyat burchagi;

31) rekordlar doskasi (yoki Maktab jismoniy madaniyat jamoasining faxriy kitobi) yuritish;

32) maktab devoriy gazetasi;

33) maktabning yetakchi sportchilari foto stendi;

34) maktab jismoniy madaniyat jamoasining kunlik sport va jismoniy madaniyat tadbirlarining qayd qilish qaydnomasini yuritish va boshqa innovatsion shakllarini ahamiyati katta.

Yuqoridagilarning barchasi umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quvchilari jismoniy madaniyatini shakllantirishni o'z zimmasiga olgan sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllaridir. Bu shakllar orqali umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etilib, doimiy ravishda sport musobaqalari, mashg'ulotlar olib boriladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, tadqiqotlarimiz davomida sinfdan tashqari ishlarning hozirgi kungacha mavjud bo'lmagan, ishlab chiqilmagan, turli xildagi hujjatlari, jismoniy madaniyat faollari tayyorlash seminar mashg'ulotlarining dasturlari va ularning mavzularini o'qitishga oid tushuntirishlarni sinfdan tashqari ishlarning amaldagi 34 xildan ortiq shakllarini o'tkazishga oid boy tajribani umumlashtirishga, seminarlarning dasturlari va rejalarini tuzish metodikasiga oid ilg'or tajribalarni qo'llash sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'zining samarasini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zokirov U.M. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy madaniyat bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni monitoringini tashkil etish". *The journal of academic research in educational sciences*. № 1 (3), 1115-1121. (2020).

2. Zokirov U.M., Patidinov K.D. "Umumiy o'rta ta'lim maktabi 7 – 8 sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini jismoniy rivojlanishiga bog'liqligi". *The journal of academic research in educational sciences*. № 1 (4), 693-697. (2020).

3. Zokirov U.M. "Erkin kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini takomillashtirish usullari". *The journal of academic research in educational sciences*. № 1 (2), 306-314. (2020).

4. Зокиров У.М. "Совершенствование тренировочного процесса студентов факультета физической культуры специализирующихся в спортивной борьбе" маг. Диссертация. 2020 г. С.25,26,27,28.

5. Зокиров У.М. Моделирование соревновательной деятельности борцов-курашистов.// Одам физиологияси, валеологияси ва хаёт фаолияти хавфсизлигининг долзарб муаммолари Илмий ва илмий-техник анжумани материаллари 2019. 198,199,200.

6. У.М Зокиров "Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов курашистов при моделировании соревновательной деятельности". Мамлакатимиз олий таълим тизимида жисмоний маданият таълимини модернизациялаш стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари 2019. – С. 82-85.

Amangul YUSUPBAYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti,

"Fakultetlararo jismoniy tarbiya" kafedrası o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolani hayotga tayyorlash vositasi sifatida harakatli o'yinlarning ahamiyati ochib berilgan, harakatli o'yinlar mazmuni va jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanish darajasi o'rtasidagi munosabatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Harakatli o'yin, hayotga tayyorgarlik, maktabgacha yoshdagi bolalar, harakatli o'yinlar mazmuni, munosabatlari, ma'naviyat.

В статье раскрывается значение подвижных игр как средства подготовки ребёнка-дошкольника к жизни, выделена взаимосвязь между содержанием подвижных игр и уровнем развития производственных отношений в обществе.

Ключевые слова. Подвижная игра, подготовка к жизни, дети дошкольного возраста, содержание подвижных игр, производственные отношения, духовность.

The article reveals the importance of action games as a means of preparing preschoolers for life, highlights the relationship between the content of action games and the level of development of industrial relations in society.

Key words. Outdoor play, preparation for life, preschool children, content of outdoor games, industrial relations, spirituality.

“Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3261-sonli qarori (09.09.2017-y.) “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-3305-sonli qarori (30.09.2017-y.) “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5198-sonli Farmoni (30.09.2017-y.) qabul qilindi. Qabul qilingan me'yoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

O'yin bola hayotida muhim o'rin egallaydi va shuning uchun o'qituvchilar tomonidan ta'limning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi. Maktabgacha ta'lim amaliyotida turli xil o'yinlardan keng foydalaniladi: hikoya-rolli o'yin, didaktik, qurilish-konstruktiv, harakatli, davra raqsi va boshqalar. Biroq, o'yinlarning xilma-xilligi orasida, ayniqsa, barcha o'yinchilar faol vosita harakatlariga jalb qilinadigan harakatli o'yinlarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Milliy harakatli o'yinlarni mashg'ulotlar davomida qo'llash bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, ularni kayfiyati va boshqa ruhiy sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq milliy o'yinlari hayotda tadbir etishga

kengroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirilishi, oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirish o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish muqarrardir. Milliy xalq o'yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, urf-odatlarda mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, baxshilarda keng qo'llanilgan bo'lib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan.

Xalq milliy o'yinlari ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy xalq o'yinlari "Otda chopish", "Qiz quvlash", "Uloq", "Kamondan otish", "Xo'roz jangi", "Besh tosh", "Sapalak", "Jambalak xola", "Kurash", "Kim tez o'raydi", "Chillak" kabi va boshqa o'yinlar orqali botirlik, epchillik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirishda, hamda qaddi qomatni shakllantirish, axloq-odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishda, albatta, sog'liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo'lib kelgan.

Xalq milliy o'yinlari, jumladan o'zbek milliy o'yinlari barcha xalq elatlari kashfiyotlari kabi (musiqqa, kulolchilik, gilam to'qish asboblari, ashula va raqs va boshqalar) insoniyat tarixining turli ijtimoiy iqtisodiy bosqichlarida taraqqiy etgan o'ziga xos etno va filootogenetik xususiyatlari asosida ixtiro qilingan va shakllanib kelgan.

O'zbek xalq o'yinlari o'ziga xos urf odatlaridan, turmush sharoitlaridan, yashash iqlimi, tarixiy obidalar, atrof-muhit sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, shularga yarasha jinsiga, yoshiga, salomatligiga ko'ra qo'llangan lekin, shu vaqtgacha aksariyat mutaxassislar o'zbek xalq o'yinlariga alohida tasnif (klassifikatsiya) va tavsif (xarakteristika) berishni ko'zda tutmaganlar yoki yetarli darajada ahamiyat bermaganlar.

Ta'kidlash joizki, agar shunday tasnif va tavsif berilsa, o'zbek xalq o'yinlari va umuman harakatli o'yinlar ancha yutiqqa ega bo'lgan bo'lar edi. Chunki, har bir o'yinni tasnifini va tavsifini bilgan holdagina undan foydalanish zaruriyati ham, joyi ham to'g'ri belgilanadi.

Ma'lumki o'zbek xalq o'yinlari o'z ichiga harakat jihatidan har xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni qamrab olgan. Shu bois, ularni yo'nalishlari bo'yicha ajrata bilish zarur deb topiladi. Demak, ularni tasniflash (klassifikatsiyalash) zarur o'rinni egallaydi.

Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko'ra sodda bo'lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Bu o'yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig'ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar – qushchalar, tarbiyachi – ona qush bo'ladi...) bajaradilar.

3 yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o'rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo'ladi).

O'rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o'yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o'tkazish mumkin.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o'yinlar o'z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko'ra murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o'yinlar, shuningdek, jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o'yinlarni, o'yin estafetasi, sport o'yinlarini o'ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlantirish, harakat ko'nikmalarining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarni yangi o'yin bilan tanishtirish. Uning mazmuni va qoidalarini tushuntirish tarbiyachidan puxta tayyorgarligini talab etadi. Ayrim o'yinlarning mazmuni oldindan bo'ladigan suhbatlar asosida bolalarni bilimlarini oydinlashtirish mumkin. Ularning

tasavvurlari aniqlashadi, o'yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy hayol o'sadi.

Harakatli o'yinlar bolalarda oddiy vaqt mo'ljalini shakllantiradi. Ular quyidagilarda ifodalaniladi: o'yin harakatlarining izchilligini tushunib olishda avval, so'ng, bundan keyin, bundan oldin, barini bir vaqtda kabi o'yin topshiriqlarini signalga ko'ra, bolalar uchun belgilangan muddat doirasida tez bajarishida ko'rinadi. Bu o'yinlarga bolalar fazoda mo'ljal olishni, harakatlar izchilligi va ularga vaqt davomida amal qilishni mashq qiladi.

O'yinlar mazmunini, butun o'yin vaziyatini, uning qoidalarini, personajlar harakatini mustaqil tushuntirish, bolalarning joylashish o'rnini, o'yin xususiyatini va harakat yo'nalishlarini fazoviy iboralarni ishlatgan holda ko'rsatish, o'tkazilgan o'yinga baho berish bolalarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda erishiladigan sog'lomlashtirish samarasi bolalarning o'yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola psixikasiga yaxshi ta'sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Emotsional ko'tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadga erishishga intilish uyg'otishda va uy vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o'zaro mosligida, fazoda va o'yin sharoitlarida aniq mo'ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur'atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiroki va zavqli intilishi asnosida turli to'siqlarni yengib o'tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi.

Harakatli o'yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo'lib xizmat qiladi. O'yin jarayonida bola o'z e'tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. U o'yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko'rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun, masalan, “Bo'ri jarlikda” o'yini bolalar yugurib kelib uzunlikka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi.

Deyarli har bir harakatli o'yinda harakatlar va bolalar harakatiga oid signallar mavjud. Bunday aktiv harakat faoliyati bola qo'zg'olish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirgan va muvozanatlashtirgan holda asab tizimni mashq qildiradi, shuningdek kuzatuvchanlik, topqirlik, o'zgaruvchan atrof-muhitda mo'ljal olish qobiliyati, yuz bergan mushkul holatdan qutilish yo'lini topish, tezda qaror qabul qilish va uni amalga oshirish, botirlik, chaqqonlik tashabbus ko'rsatish, maqsadga erishishning mustaqil usulini tanlashni tarbiyalaydi.

Harakatli o'yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi. Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog'liq ovunmachoqlar, ermak o'yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo'lgan (o'z ichiga bolalarni rom qiluvchi o'yin boshlanmalari, hirgoyilari, sanashmachoqlarni oluvchi) xalq o'yinlari katta o'rin olgan. Bularning hammasi hozirga qadar badiiy jozibadorligini, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda va qimmatli o'yin folklorini tashkil etadi.

O'zbek xalq o'yinlari klassifikatsiyasi.

Hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantiruvchi o'yinlar quyidagilar misol bo'lishi mumkin: “Maymunchalar”, “Oq ayiqlar”; yurish, yugirish: “Quvlashmachoq”, “Mokki”; O'tirish-turish: “Baqa”, “Tovuq va tulkilar”; to'xtash sakrash: “Qarmoqcha”. Jismoniy sifatlari rivojlantiruvchi o'yinlar: kuch: “Tortishmachoq”; tezkorlik: “Kun va tun”; epchillik: “To'p uchun kurash”, “Lapta”, “Qirq tosh”, “Besh tosh”; chidamkorlik: “Quvib yet”; egiluvchanlik: “Ko'prik va mushuk”, “Kurash”, “Sapalak”, “Xo'roz jangi”.

Aqliy-ruhiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar: “Ta'qiqlangan harakat”; xotira

“Daqiqa”; Hissiyot: “To‘xta”; tafakkur: “Shaxmat”; ayyorlik “Mendan zo‘r”; jasurlik.

Uy-ro‘zg‘or ishlariga xos harakat malakalarini shakllantiruvchi o‘yinlar: “Supur supur”, “Qovun uzatishi”.

Kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi o‘yinlar: “Burgut va burgutchalar”, “Otishma”.

Nutq va talaffuzni shakllantiruvchi o‘yinlar: “Kim oladi”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Paxmoq kuchuk”, “Jambalak sochli xola”.

Hisob-kitob va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantiruvchi o‘yinlar: “Besh tosh”, “Lanka”, “Qirq tosh”.

Yilning turli fasllarida qo‘llanadigan o‘yinlar: “Barrak”, “Yomg‘ir yog‘oloq”, “Chillak”, “Topishmachoq top”, “Lyanka”, “Tez ayt”, “Yong‘oq”.

Kunduz va tunda o‘tkaziladigan o‘yinlar : “Oq suyak”, “Cho‘loq qarg‘a”.

Suvda o‘tkaziladigan o‘yinlar: “Suvda quvlashmachoq”, “Tez suzish”, “Suv ostida suzish”.

Turli yoshda va kattalar o‘rtasida o‘tkaziladigan o‘yinlar: “Quvlashmachoq”, “Bekinmachoq”, “Bayrog‘cha uchun kurash”, “Kun va tun”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Yong‘oq o‘yini”.

Harakatli o‘yinlar bolalar uchun zarur hayotiy ehtiyojdir. Ular yordamida turli-tuman vazifalar hal etiladi: ta‘limiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nigmanov B.B., Xo‘jayev F., Raximqulov K.D. “Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv-qo‘llanma Ilm-Ziyo nashriyoti –T., 2011-y.

2. Xo‘jayev F., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B. “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma – T.: Cho‘lpon nashriyoti – 2011-y.

3. Raximqulov K.D. “Milliy harakatli o‘yinlar” o‘quv-qo‘llanma – T.: Tafakkur bo‘stoni nashriyoti –2012-y.

4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti. –T., O‘zDJTI 2001.

5. Atayev A.K. Yosh o‘smirlarga o‘zbek kurashini o‘rgatish uslubiyoti. –T., O‘zDJTI 2005-y.

6. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi – T., O‘zDJTI, 2005-yil – 300-b.

7. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – T., O‘z DJTI, 2005-yil – 238-b.

8. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. – М., 2005 г.

Rabbina ATAJOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Tasviriy san’at” kafedrası o’qituvchisi

ISHCHI DAFTARNING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolda Ishchi daftarni ishlatilishi o’quvchilarning katta mexanik ishlardan ozod qiladi, chunki, topshiriqlar qisqa va aniq javoblarga asoslanib, to’g’ri javobni topishga yordam bershi bayon etilgan.

Kalit so’zlar. Ish daftarchasi, tasviriy san’at, talaba, fantaziya, ta’lim, samaradorlik, o’qituvchi, rasm chizish, individual, o’zini-o’zi.

В статье говорится, что использование рабочей тетради освобождает студентов от основной механической работы, потому что задания основаны на коротких и лаконичных ответах, которые помогут им найти правильный ответ.

Ключевые слова. Рабочая тетрадь, изобразительное искусства, ученик, фантазия, образования, эффективность, учитель, рисовать, индивидуально, самостоятельно.

The article explains that the use of a work book frees readers from large mechanical work, since the assignments are based on short and precise answers, helping to find the right.

Key words. Workbook, visual arts, student, fantasy, education, efficiency, teacher, draw, individually, independently.

Jamoat talablari har doim o’sib borishi bilan ta’lim sohasidagi yangiliklar, qo’llanma mualliflarining ta’lim sohasining faoliyatida har bir shaxsni bilim darajasini rivojlantirish ishlarida yangi uslubiy yo’llarni ishlab chiqishga va shu bilan birga o’quvchilarga ta’lim uchun ajratilgan vaqtni tejashga undaydi. O’quv adabiyotining nazariy ma’nosini, hamda uning amaliy topshiriqlarni har doim yangillab borishga chorlab, qo’llanmani ixchamligi, qiziqarliligi, hammabopligi dolzarb vazifa bo’lib turibdi.

Keyingi o’n yillikda muhim ahamiyatga ega bo’lgan ta’lim vositasi bir vaqtning o’zida ham o’qitish vositasi, ham bilim olish vositasidir. Bu – har xil interaktiv o’rgatuvchi programmalar, noan’anaviy qo’llanmalar, xrestomatiya – qo’llanmalari, savol kitobchalari va ishchi daftardir.

Ishchi daftar – u muhim qismlardan iborat bo’lib, fan predmetlarini o’zlashtirishda o’quvchiga yaqindan yordam beradi. Ishchi daftar didaktik materiallar bilan boyitilganda, ta’lim sohasida o’quv jarayonini jadallashtiradi. Ishchi daftar o’zining tarkibi, tuzilishi, konstruktiv tuzilishi, topshiriqlari, savollari va manbalari bilan ajralib turadi. Yodlab olish va esda qolganlarni takrorlash o’rniga o’quvchi o’z bilimni mustaqil ravishda o’rganishga olib keladi. Ishchi daftarni ishlab chiqqanda uning o’ziga xos xususiyatiga e’tibor berish kerak.

Ishchi daftar o’quv adabiyotida yangi ta’lim janri bo’lib, innovatsion texnologiyani

bir butun qilib birlashtiribgina qolmay, nazariy va amaliy ta'limga yangi yo'nalish beradi.

Tarix fani bo'yicha ishchi daftarni ishlatgan muallif Leonid Kasva shunday deydi: – "Uning tarkibi – bu savol-javoblar bo'lib, o'quv kitoblarini diqqat bilan o'rganish asosida savollarga javoblarni bilib olish mumkin. Qo'llanma tarkibidagi uslubiy tushunchalar ishchi daftarni boyitadi. Savollar shunday shakllantirilib ishlanganki, o'quvchilarga o'quv matnidagi ibora terminlarni ajratib beradi. Ishchi daftarda boshqa savollardan tashqari, har xil topshiriqlar ham mavjud. O'quvchilarga jumlaning tugatishni, o'zining fikriga asosan javob yo'llarini tanlash, agarda javoblarning biri noto'g'ri deb topilsa, unda o'quvchi o'zining javobini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Ishchi daftarni ishlatilishi o'quvchilarning katta mexanik ishlardan ozod qiladi, chunki, topshiriqlar qisqa va aniq javoblarga asoslanib, to'g'ri javobni topishga yordam beradi. Ishchi daftarni to'liq qilib to'ldirilganligi va xatolarni o'z vaqtida aniqlab, to'g'rilab borilganligi, kelajakda o'tgan materialni takrorlashda konspekt vazifasini bajaribgina qolmay, uning javoblarini o'quvchi o'zi ishlab chiqqan bo'ladi. Shunday qilib, zamonaviy ishchi daftar – bu didaktik jamlanma bo'lib, o'quvchi tomonida uyda va sinfda mustaqil ishlash uchun mo'ljallangan.

Ishchi daftari uchta turini ko'rib chiqish mumkin:

1. Axborot beruvchi ishchi daftar turi o'zida faqat o'quv materiallari haqida axborot berishi deb tushuniladi. O'rganilayotgan mavzu tarkibida o'quv axborotini o'quvchilarga nishon olishda yordam beradi.

2. Nazorat ishchi daftarsi mavzu o'rganilib chiqqandan keyin ishlatiladi. O'qituvchi ishchi daftarni varaqlash yordamida o'quvchi bilim olishining qaysi bosqichida xatolikka yo'l qo'yganligini dars jarayonida to'g'irlab boradi.

3. Aralash turdagi ishchi daftar o'z ichiga axborot beruvchi va nazorat qiluvchi qismlarni oladi.

Axborot beruvchi qism o'z ichiga yangi o'quv materiallarini, mustaqil ish topshiriqlari, olingan bilim va ko'nikmalarni nazorati uchun test va topshiriqlarni jamlaydi.

Aralash turdagi ishchi daftarni afzalligi shundan iboratki, ya'ni u o'z ichiga ham axborot beruvchi, ham mashq qildiruvchi va nazorat qismlaridan iborat. Axborot beruvchi qismga yangi o'quv materiallari, mashq qildiruvchi mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, olingan bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish mumkin. Uslubiy va pedagogik adabiyotlar tahlili asosida boshqa mualliflar tomonidan taklif qilingan ishchi daftarni tuzilishi va ma'nosini aniqlab olish mumkin.

1. Asosiy tushunchalarni ishlab chiqishga va ularning xossalarini o'rganilishi mustaqil ishlashda mashqlarni esda qolganligini eslab olish, rivojlantiruvchi va ijodiydir.

2. Umumlashtirish va xulosalashtirish: mavzu bo'yicha nazorat savollari, uyga berilgan topshiriqlar yo'nalishi, izohlar, mazkur mavzuni chuqur o'rganish uchun takliflar, adabiyotlar ro'yxati.

Shunday qilib, ishchi daftar yordamida o'qituvchi yangi o'quv axborot qilish darsida nazorat ishini olib borib, o'quvchilarda uchragan xatolarni to'g'irlab, bajarilgan ish natijasini aytib o'tadi. O'quvchilar ishchi daftar varaqini to'ldirish payti bo'lganda, o'qituvchi berilgan topshiriqni nazorat qiladi. Ma'lumki, ishchi daftarning varaqlari bir xil bo'lganligi sababli, o'qituvchi darrov nazoratni natijasini aniqlab, u yoki bu o'quvchi qilgan xatoni, berilgan topshiriq natijalarini to'g'riligini aniqlaydi va shu tartibda sinfdagi hamma o'quvchini bilimini nazorat qilish qiyin, lekin o'qish sifati past bo'lgan o'quvchilarni bilimini nazorat qilsa bo'ladi. Shunday qilib, ishchi daftar yordamida darsda qo'llanadigan shaxsiy va ommaviy ishlarni birini-biri bilan bog'lash mumkin. Bundan tashqari, ishchi

daftar varag'ini to'lg'izgan o'quvchi, o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni dars jarayonida mustahkamlab, uyga berilgan topshiriqni bajarishda o'z vaqtini tejaydi. O'quvchi ishchi daftarsini qo'llaganda o'zini o'zi nazorat qilib, o'z ish natijalarini o'zi tekshiradi, hamda o'quvchilar o'rtasida biri-birini nazorat qiladi. O'qituvchining nuqtayi nazari insonni yuqori sifatli tomonlarini rivojlantirib, dars jarayonida katta hajmdagi ishini ishchi daftarni tekshirishda yengillashtirib beradi.

Pedagog darsni berayotgan vaqtda oldiga qo'yilgan maqsadga erishishi uchun o'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teskari aloqa ta'minlanishi zarur. Ishlash jarayonida o'qituvchi har safar ham o'quvchilarda fikrlash va shakllantirish jarayonini tashkil qila olmaydi. Yangi mavzu bo'yicha ma'lumot berayotganda, u shunga ishonmaydiki, har bir o'quvchi u o'rgatgandek darrov yangilikni tushuna olmaydi va o'qituvchi har bir o'quvchining fikrlashini shakllantirish jarayonida bilim berish yo'nalish oqimini to'la-to'kis boshqarish imkoniyati bo'lmaydi. Fikrlash jarayonini operativ shakllantirish samarasini ta'minlashda jarayon oqimini tez nazoratini ishlab chiqishsiz mumkin emas.

Ishchi daftarni o'quv jarayoni amaliyotiga jalb qilishda quyidagi masalalarni yechishda yordam beradi:

1. O'quvchilarda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
2. Bilimini mukammal egallashga yordam beradi;
3. Ijodiy izlanishda va ilmiy rivojlanishda amaliy qobiliyati va yechimni qabul qilish xususiyatini rivojlantirishga yordam beradi;
4. O'z ustida ishlashda o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatiga ta'sir etadi.

Ishchi daftar o'quvchilar tomonidan nazariy bilim olish jarayonida, uni mustahkamlashda va olgan bilimni tartibga solishda yordam beradi. Ishchi daftar yordamida qisqa nazariy bilimga ega bo'lish, topshiriq, yechim algoritmini, topshiriqni favqulodligi, amaliy laboratoriya ishlarini, rivojlantiruvchi ijodiy mashqlarni va topshiriqlarni, sxema, tablitsalar, rasmlar va grafikani, o'z-o'zini nazorat qilish savollarini, amaliy laboratoriya ishlarini olib borishda qo'llanmadan foydalanishda, ishlatiladigan adabiyotlar ro'yxatini o'rganishda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimni tezkor ravishda tekshirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атажанова, Р.Р. (2020). *Рабочая тетрадь по изобразительному искусству как средство повышения креативного мышления самостоятельной работы учеников в младших классах. Academic Research in Educational Sciences*, 1(2), Pp.201-204.
2. Халилов Р.Ш., Атажанова Р.Р. (2018). *Использование рабочей тетради в обучении изобразительной деятельности в начальном классе. Молодой учёный*, № 7 (193). С.196-199.
3. Rakhimovna, A.R. (2020). *Art workbook as a means of improving the efficiency of independent work of pupils in younger classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (5). Pp.54-56.
4. Р.Р. Атажанова, Н.Р. Атаева. (2020). *Роль изобразительной деятельности во всестороннем развитии дошкольников Academic research in educational sciences*, 4, Pp.450-454.

Boburmirzo KO'KIYEV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

YORDAMCHI PROYEKSIYALASH USULIDA POZITSION MASALALARNI YECHISHNING METODIK QULAYLIGI

Annotatsiya

Maqolada chizma geometriyaning turli pozitsion masalalarini yechish uchun geometrik figuralarning proyeksiya va bissektor tekisligida yordamchi proyeksiyalashning qulayligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Chizma geometriya, ortogonal proyeksiyalar, tekislik, pozitsion masalalar, bissektor.

В статье речь идет о простоте вспомогательной проекции геометрических фигур в плоскости проекции и биссектрисы для решения различных позиционных задач начертательной геометрии.

Ключевые слова. Геометрия чертежа, ортогональные проекции, плоскость, позиционные вопросы, биссектриса.

It is about the ease of auxiliary projection of geometric figures in the projection and bisector planes to solve various positional problems of descriptive geometry.

Key words. Drawing geometry, orthogonal projections, plane, positional issues, bisector.

Oliy ta'lim sohasida ta'lim-tarbiya berib kelayotgan o'qituvchi-pedagoglarning oliy o'quv yurtlarida, muhandislik grafikasi fanlari asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Keyingi yillarda ta'lim mazmunini boyitish yo'lida rivojlantiruvchi ta'limning bir qator ishonchli interfaol metod va yo'llari izlanmoqda.

Bu izlanish asosan uchta yo'nalishda – muammoli, programmashtirilgan va tabaqalashtirilgan ta'limda olib borilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tajribasida ta'limga muammoli yondashish keng tarqalmoqda.

Ta'limdagi samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabanning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

To'g'ri burchakli yoki ortogonal proyeksiyalar usullari bilan nuqta, to'g'ri chiziq, tekislik va sirlarga tegishli bo'lib pozitsion va metrik masalalarni yechish masalasi chizma geometriya fanidan chop etilgan ko'pgina o'quv adabiyotlarida keng yoritilgan.

Ortogonal proyeksiyalash usullari chizma geometriya fanining rivojlanishi Gospar Monj davridan boshlab, to hozirgacha muhandislik amaliyotida mashina mexanizmlarining turli konstruksiyalarini yaratishda va qurilish inshootlarini takomillashtirishdagi turli loyihalarni tuzishda to'xtovsiz taraqqiy etib bormoqda, chunki predmetni o'zaro perpendikulyar bo'lgan ikki yoki uchta proyeksiyalar tekisliklariga to'g'ri burchakli proyeksiyalash bilan predmet elementlarining o'lchami va ularning metrikasini o'rganishga qulaylik tug'diradi. Amaliyotda shunday pozitsiyaviy masalalar borki, ularni yechishda yordamchi proyeksiyalash usuli ham grafik ishlarni bajarishni osonlashtiradi.

Geometrik figuralarning hosil bo'lish jarayoni va ulardagi holat va shakl parametrlarining berilishini hisobga olgan holda pozitsion masalalarga quyidagicha ta'rif beramiz.

Berilgan ikki geometrik figuralarning berilish vaziyatiga nisbatan ularga tegishli bo'lgan uchinchi geometrik figuraning vaziyatini aniqlash pozitsion masaladir.

Chizma geometriyada pozitsion masalalarni yechishning keng tarqalgan usullaridan biri to'g'ri burchakli proyeksiyalash usuli bo'lib, bu bilan turli tipdagi masalalarni yechish mumkin, ammo shunday proyeksiyalash usullari mavjudki, ular bilan pozitsion masalalarni yechish ancha osonlashadi. Bunday proyeksiyalash usullariga gorizontaal va frontal proyeksiyalar tekisligidagi va bissektor tekisligiga yordamchi proyeksiyalash usulini kiritish mumkin.

Yordamchi proyeksiyalash usuli bilan chizma geometriya faniga tegishli barcha tipik pozitsion masalalarni grafik usulda osonroq yechish mumkin.

Yordamchi proyeksiyalash markaziy va parallel (qiyshiq va to'g'ri burchakli) bo'ladi. Yordamchi markaziy proyeksiyalash usulida S proyeksiya markazi, proyeksiyalanuvchi predmetning ortogonal proyeksiyalari va yordamchi proyeksiya tekisligi beriladi. Yordamchi proyeksiya tekisligi uchun esa proyeksiyalar tekisliklari N, B nuqtalardan birortasini tanlash mumkin. Shuningdek, yordamchi proyeksiya tekisligi uchun N va B proyeksiyalar tekisliklari hosil qilgan II va IV chorakdan o'tuvchi bissektor tekisligi holatini ham tanlash mumkin bo'ladi. Parallel yordamchi proyeksiyalash usulida proyeksiyalash yo'nalishi va yordamchi proyeksiya tekisligi N, B yoki bissektor tekisligi beriladi. Yordamchi proyeksiyalash usuli bilan yechiladigan quyidagi masalalarni keltiramiz.

1-masala. Berilgan a/b ($a' // b'$, $a'' // b''$) tekislik bilan AB ($A'B'$, $A''B''$) kesmaning kesishuv nuqtasi ushbu figuralarning bissektor tekisligida yordamchi parallel proyeksiyalash usuli bilan aniqlansin (1-rasm).

Masalani yechish uchun quyidagi yasash algoritmlari bajariladi.

1. Berilgan tekislikni unga tegishli bo'lgan a (a' , a'') yoki b (b' , b'') chiziqlarning yo'nalishi S' (S' , S'') bo'yicha bissektor tekisligiga proyeksiyalab ao bo tekislikning yordamchi proyeksiyasini hosil qilamiz.


2. Berilgan AB kesmaning A va B nuqtalarini ham shu yo'nalish bo'yicha bissektor tekisligiga proyeksiyalab $AoBo$ kesma hosil qilinadi.

3. Natijada $aobo \cap AoBo = Ko$ nuqtaning holati bissektor tekisligi aniqlanadi.


4. Hosil bo'lgan Ko nuqtani S' (S' , S'') yo'nalishga teskari proyeksiyalash bilan uning tekislik bilan kesishgan nuqtasi proyeksiyalari K va K'' nuqtalari aniqlanadi.

2-masala: Yordamchi parallel proyeksiyalari bilan berilgan M (M' , M'') va N (N' , N'') nuqtalar ABS ($A' B' S'$, $A'' B'' S''$) uchburchakka tegishli yoki tegishli emasligi aniqlansin (2-rasm).

Bu masalani yechish uchun ABC uchburchak hamda M va N nuqtalarning yordamchi proyeksiyalarini yasashdan foydalanamiz. Buning uchun ABS uchburchakning biror tomonini (masalan BS tomonini) gorizontaal (yoki frontal) proyeksiyalar tekisligidagi



1-rasm



2-rasm

yordamchi proyeksiyalarini yasaymiz.

Bunda ABS uchburchakning nuqtalari uning BS ($B'S$, $B''C''$) tomoni bo'yicha N tekislikdagi yordamchi proyeksiyasi $A'B'=S'$ kesma shaklida proyeksiyalanadi. Shuningdek, BC yo'nalish bo'yicha M va N nuqtalar ham N tekislikdagi yordamchi proyeksiyalari M' va N' bo'ladi. Natijada, hosil bo'lgan M' nuqta $A'B'C'$ ga tegishli bo'lgani uchun u nuqta ABC uchburchakka tegishli ekanligi ma'lum bo'ladi. N' nuqta esa $A'B'C'$ ga tegishli emasligi aniqlanadi va u ABC uchburchak tekisligining tashqarisida bo'ladi. Bu masalani odatda, klassik usullar bilan yechishda M va N nuqtalar orqali ixtiyoriy yordamchi to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi.

Bu to'g'ri chiziqlarning ortogonal proyeksiyalari yasaladi va bu yasalgan to'g'ri chiziqlar proyeksiyalarida M va N nuqtalarning uchburchak tekisligiga tegishli yoki tegishli emasligi aniqlanib, so'ngra, ularning ABS uchburchak tekisligidagi holatlari aniqlanadi. Ko'rinib turibdiki, bu qo'shimcha grafik yasashlar masalani yechishni ancha murakkablashtiradi.

"Muhandislik grafikasi" va "Chizma geometriya" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarining metodik tomonlarini bayon qilish jarayonida yordamchi proyeksiyalash usulidan to'g'ri chiziq bilan tekislik, tekisliklarni o'zaro tekislik bilan qirrali va chiziqli sirtlarni, qirrali va chiziqli sirtlarni o'zaro kesishuvdagi shakllarni yasashda keng foydalanish mumkin. Bu usuldan foydalanib, IV bosqichda tahsil oluvchi "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'limi yo'nalishining bitta guruhi talabalarini tajriba-sinov guruhi sifatida tanlab olindi. Tanlab olingan guruhlariga vazifalarni yuqorida ko'rsatilgan usulda berib borildi. Bu guruhlar berilgan vazifalarni yuqorida ta'rifi keltirilgan usul yordamida bajardi.

Tajriba o'tkazish jarayonida, eksperimental ko'nikmalarni OTM chizma geometriya mazmunidagi vazifalarni mustaqil bajara olishi va ularni talabalarga tushunarli, qulay bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi. Pedagogik tajriba-sinovida ishtirok etgan 21 nafar hamda nazorat guruhidagi 22 nafar talabalarining ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
Talaba-lar soni	Shakllanganlik darajasi			Talaba-lar soni	Shakllanganlik darajasi		
	yuqori	o'rta	past		yuqori	o'rta	past
21	6	10	5	22	4	10	8
%	28,6	47,6	23,8	%	18,2	45,4	36,4

Tajriba-sinov davrida eksperimental ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini baholash natijalaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida "yuqori" daraja 28,6%, "o'rta" daraja 47,6%, "past" daraja esa 23,8%. Bu natijalarni nazorat guruhlaridagi natijalarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida, talabalarga chizma geometriyadan masalalar berilganida ularni murakkablik darajasiga ko'ra, murakkab masalalarni bissektor tekisligida yordamchi proyeksiyalash usulida yechish qulayligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodov Sh.K va boshqalar, *Chizma geometriya. Oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun darslik*, –T.: Iqtisod-moliya 2008-y.

2. Колотов С.М. *"Вспомогательное проектирование"*. Киев: "Издательство Киевского университета" – 1956 г.

3. Murodov Shmidt, Nurmatov Eliyor, *Bissektor tekisligida pozitsion masalalarni yechishning metodik qulayligi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari* 2016/5(23), 71-74-betlar.

4. Muradov Sh.K., Ko'kiyev B.B. *Qiyshiq burchakli yordamchi proyeksiyalash bilan bissektor tekisligida yechiladigan pozitsion masalalar yechimini topish. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari* 2020/2(23), 10-12-betlar.

5. Ko'kiyev Boburmizro Bahodir o'g'li (2020). *Present-day problems of drawing science. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (4), Pp.203-205.

6. Ko'kiyev Boburmizro Bahodir o'g'li (2020). *The importance of pedagogical techniques in teaching assistive design. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (2) Part II, Pp.182-185.

7. Murodov Shmidt Karimovich, Ko'kiyev Boburmizro Bahodir o'g'li, Obloqulova Laylo G'anisher qizi. (2019) *Yaqqol tasvirlar qurishda qiyshiq burchakli aksonometrik proyeksiyalardagi o'zgarish koeffisientlarining o'zaro bog'liqligi. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti* 2/74. 282-285-betlar.

8. Мурадов Шмидт Каримович, Ташимов Нурлан Эрполатович, Рахматова Икболхон Иномжановна, Кукиев Бобурмирзо Баходир ўғли. *Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади молодой учёный №50 (184), декабрь 2017. С.99-101.*

9. Xalimov Moxir, Achilov Nurbek, Bekqulov Qudrat, Xo'jaqulov Elbek, Ko'kiyev Boburmizro (2020) *Chizmachilik va chizma geometriya fanlarida burchak topishning bazi usullari. Fizika matematika fanlari jurnali*. 4 (1), 47-52-betlar.

Samandar XABIBULLAYEV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası katta o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SPORT O'YINLARI FUTBOL BO'YICHA MUSOBAQALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida futbol bo'yicha musobaqalarni to'g'ri tashkil etish, musobaqalarni tashkil qilish uchun me'yoriy hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish, musobaqani o'tkazish tizimlari va musobaqalarni o'tkazishning ahamiyati haqida aniq ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Chempionat musobaqalari, kubok musobaqalari, saralash musobaqalari, o'rtoqlik uchrashuvlari, nazorat uchrashuvlari, musobaqa nizomi, musobaqa o'tkazish tizimi.

В данной статье изложена конкретная информация о правильной организации соревнований по футболу в общеобразовательных школах, о правильном оформлении нормативных документов по организации соревнований, о системах проведения соревнований и значении проведения соревнований.

Ключевые слова. Матчи чемпионата, кубковые соревнования, отборочные матчи, товарищеские матчи, контрольные матчи, правила соревнований, система соревнований.

The article provides clear information about the correct organization of football competitions in general education schools, the correct execution of regulatory documents on the organization of competitions, the system of competitions and the importance of competitions.

Key words. Championship matches, cup competitions, qualifying matches, friendly matches,

Sport musobaqalari o'quv-mashg'ulot ishlarining asosiy qismini tashkil etadi. Futbol musobaqalari qiziqishni oshiradi, umumiy o'rta ta'lim maktablarda futbolning ommaviy rivojlanishiga yordam beradi. Futbolchi musobaqalarda muntazam qatnashmay turib yuqori natijalarga erisha olmaydi. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman jamoaning jismoniy, texnik, taktik axloqiy-irodaviy va psixologik tayyorgarligi darajasini aniqlaydi, o'quv-mashg'ulot jarayonining ahvoli va yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Musobaqa natijalari o'quv-mashg'ulot ishlarini yakunlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musobaqalar qat'iyligni, g'alabaga erishish yo'lidagi iroda kuchini, sinf va maktab oldidagi mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. Musobaqalarning emotsional keskinligi sportchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida futbol bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazishda muhim hisoblangan musobaqa nizomi, musobaqani o'tkazish tizimlari, haqida ma'lumotlar berib, umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya o'qituvchilariga musobaqalarni tashkil etishda metodik yordam ko'rsatishdan iborat.

Oldiga qo'yilgan vazifalarga qarab musobaqalarni asosiy va yordamchi musobaqalarga bo'lish mumkin. Yagona sport tasnifi talablariga muvofiq tashkil etiladigan va natijalariga ko'ra sport tasnifi belgilanadigan hamda g'olib yoki chempion degan nom beriladigan musobaqalar asosiy musobaqalarga kiradi.

Musobaqalarning asosiy turi – taqvim musobaqalar bo'lib, ular sport tadbirlarining

yagona taqvim rejasida nazarda tutiladi va tasdiqlangan nizomga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Quyidagilar musobaqalarning asosiy turlariga kiradi:

- birinchilik yoki chempionatlar;
- kubok musobaqalari;
- saralash musobaqalari.

Birinchilik yoki chempionatlar – eng mas'uliyatli musobaqalar bo'lib, ularning natijalari bo'yicha g'olib jamoaga chempionlik nomi beriladi. Musobaqalarni tashkil etishning bu turi jamoalar kuchini oqilona baholashga, olib borilayotgan o'quv-trenirovka ishining sifatini taqqoslashga imkon beradi.

Kubok musobaqalari juda ko'p jamoalarni jalb etish va g'olibni nisbatan qisqa muddatlarda aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kubok musobaqalari eng yaxshilarni izchillik bilan olish prinsipi bo'yicha o'tkaziladi.

Saralash musobaqalari musobaqalarning keyingi bosqichida qatnashish uchun eng kuchli jamoalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Musobaqalarning yordamchi turlariga quyidagilar kiradi:

- nazorat uchrashuvlari; o'rtoqlik uchrashuvlari;
- namunali uchrashuvlar; qisqartirilgan musobaqalar.

Nazorat uchrashuvlari jamoalarni bo'lajak musobaqalarga tayyorlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

O'rtoqlik uchrashuvlari o'quv-mashg'ulot maqsadlarida yoki an'anaviy musobaqalar planida o'tkaziladi.

Namunali uchrashuvlar futbolni ommalashtirishga va sport mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Qisqartirilgan musobaqalar bir necha soat mobaynida o'tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

Biron-bir rasmiy musobaqa o'tkazishdan, avval, musobaqa haqidagi nizom tuzilgan bo'lishi kerak. Bu nizom futbol federatsiyasi yoki musobaqani o'tkazuvchi boshqa biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Musobaqa nizomi katta yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Unda asosiy tashkiliy va texnik shart-sharoitlar aniq bayon qilingan bo'ladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyorgarlik ko'rish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak.

Musobaqani o'tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda mazkur musobaqani o'tkazayotgan ta'lim muassasasining obro'yiga putur yetadi va keraksiz nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Musobaqa nizomida quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'lishi kerak:

1. O'tkazilayotgan musobaqaning maqsadi va vazifalari.
2. Musobaqani kim o'tkazishi (ta'lim muassasasi, tashkiliy komitet va hokazolar).
3. Musobaqa o'tkazish muddatlari va shartlari.
4. Musobaqaga qo'yiladigan jamoalar soni va nomi, talabnomaga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.
5. Musobaqa o'tkaziladigan o'yin tizimi (davralari – bir yoki ikki davrali, mag'lubiyatdan keyin o'yindan chiqib ketiladigan, aralash tizim).
6. Hisobga olish tizimi va jamoalarning hamda jismoniy tarbiya jamoalarining (natijalar sinflar bo'yicha hisoblanganda) egallagan o'rinlarini aniqlash tartibi.
7. Musobaqalarning alohida shartlari (qanday hollarda o'yinda qo'shimcha vaqt

belgilanishi va uning davomiyligi, o'yin durrang bilan tugallanganda yoki o'tkazilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo'lganda. g'olibni aniqlash usullari, o'yin qoidalarida ko'rsatilgandan tashqari nechta o'yinchi almashtirish mumkinligi va hokazolar).

8. Jamoalarni va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, shakli, o'yinchilarga talabnomalar berish va qayta talabnoma berish muddati.

9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar jamoasining nomi.

10. O'tkazilgan o'yinga norozilik bildirish va uni ko'rib chiqish, shuningdek, o'yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog'liq bo'lgan intizom masalalarini qarab chiqish tartibi.

11. O'yinchilar intizomni buzganligi uchun jamoalarning javobgarligi hamda stadion va klublar ma'muriyatining o'yin o'tkazish vaqtida tartib saqlanishi uchun javobgar bo'lishi.

12. Musobaqa o'tkaziladigan joylar va ularga qo'yiladigan talablar.

13. G'oliblarni mukofotlash hamda oxirgi o'rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashish shartlari.

Musobaqa o'tkazish tizimlari amalda o'yinning uchta asosiy tizimi qaror topgan: davrali tizim, bir yoki ikki marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan (olimpiya) tizim, avvalgi ikki tizimning kombinatsiyasidan iborat bo'lgan aralash tizim. Davrali va aralash tizimda tashkil qilingan musobaqa, bir marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizimga nisbatan ko'p vaqt kerak bo'lishini inobatga olib maktab birinchiliklarini bir marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan (olimpiya) tizimida musobaqalarni o'tkazish tavsiya qilinadi.

Bir marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizim talabnoma bo'yicha qatnashadigan jamoalar soni ko'p bo'lsa, oz muddat ichida musobaqani o'tkazish uchun qo'llaniladi.


Yutqazgan jamoalar musobaqani davom ettirmaydi. Musobaqa taqvimining setkasini tuzish uchun musobaqaga qatnashuvchi jamoalarning sonini aniqlab, so'ng qur'a tashlash o'tkaziladi. Qur'a tashlash o'tkazilgandan so'ng, tushgan raqamlar tartib bilan yoziladi. Shunday qilib, uchrashadigan jamoalar qur'a tashlash orqali ma'lum bo'ladi. Jamoalar soniga binoan setka tuziladi.

Agar jamoalar soni 2 ning qandaydir darajasiga teng bo'lsa: ($2^2 = 4$; $2^3 = 8$; $2^4 = 16$; $2^5 = 32$ va hokazo), bunday hollarda hamma jamoalar uchrashuvini birinchi davrada boshlaydilar. Agar qatnashuvchi jamoalar soni 2 n darajasiga teng bo'lmasa, u holda ikkinchi davraga qolgan jamoalar soni 2 n darajasiga teng bo'lishi kerak.

Demak, jamoalarning bir qismi birinchi kundan, ikkinchi qismi ikkinchi kundan boshlab uchrashadilar. Birinchi kunda uchrashuvchi jamoalar sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi: $K = (M - 2^n) \times 2$ bunda: K – birinchi kundan o'yinda qatnashadigan jamoalar soni; M – musobaqaga qatnashuvchi jamoalar soni; 2^n – qatnashuvchi jamoalar soniga eng yaqin 2 sonining darajasi. Masalan: o'yinga qatnashuvchi jamoalar soni 11 ta bo'lsa, shu songa setka tuzish zarurdir. Buning uchun 11 ga eng yaqin 2^n darajasi olinadi.

Bu son $24 = 16$ bo'ladi. So'ng 16 dan qatnashuvchi jamoalar soni ayiriladi. $16 - 11 = 5$.

Ayirish natijasida qolgan besh – jamoalar soni bo'lib, o'yinning ikkinchi davrasidan musobaqaga qo'shiladi. O'yinning 2-darajasidan qo'shiladigan jamoalar soni toq bo'lsa, setkaning yuqorisiga qaraganda pastga bir jamoani ko'p qo'yamiz.



Bir marta yutqazgandan keyin o'yindan chiqib ketiladigan tizimining yutug'i shundan iborat: musobaqaga qatnashuvchi jamoalar sonining ko'pligiga qaramay, qisqa vaqt ichida g'oliblar aniqlanadi.

Ammo, bu – tizimning muhim kamchiligi – uchrashuvchi jamoalar jufti qur'a tashlash natijasida aniqlanadi. Bu esa tasodifiy narsa, chunki eng kuchli ikki jamoa qur'a natijasida bir setkaga tushib qolishi mumkin. Shu ikkala jamoaning biri finalgacha musobaqani davom ettirmay, chiqib ketishi kerak. Buning natijasida finalga kuchsiz jamoa chiqadi.

Bu tizimda, odatda, birinchi uch o'rin aniqlanadi. 1-o'rin – final g'olibi.

2-o'rin – finalda mag'lubiyatga uchragan jamoa. 3-o'rin – yarim finalda mag'lubiyatga uchragan jamoalar uchrashuvi g'olibi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faqat jismoniy tarbiya darslarini olib borish bilan cheklanib qolmasdan, sport o'yinlari, futbol bo'yicha sinflar, maktablar o'rtasida o'rtoqlik va rasmiy musobaqalarni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Musobaqalar musobaqa qatnashchilarining va umuman jamoaning jismoniy, texnik, taktik axloqiy-irodaviy va psixologik tayyorgarligi darajasini aniqlaydi, o'quv-mashg'ulot jarayonining ahvoli va yo'nalishini aniqlash imkonini beradi.

Musobaqalarni tashkil qilishda muhim hujjat – bu musobaqa nizomi hisoblanadi. Musobaqa nizomi katta yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyorgarlik ko'rish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak. Musobaqani o'tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda mazkur musobaqani o'tkazayotgan ta'lim muassasasining obro'yiga putur yetadi va keraksiz nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramov R.A. *Futbol darslik: O'quv-qo'llanma*. O'z.DJTI.: 2006. –406-b.
2. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.E. *Gandbol nazariyasi va uslubi*. Darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2017. 448-b.
3. Nurimov R.I. *Futbol nazariyasi va uslubi*. Darslik. –T.: ITA-PRESS, 2015. 364-b.

Jo'rabek SHUKURLLAYEV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

KLASTER YONDASHUV ASOSIDA VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda umumta'lim maktablari o'quvchilari orasidan iste'dodli yoshlarni voleybol sport turiga tanlab olish yuzasidan ko'rsatma va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, o'quvchi, saralash, usul, vaqt, sinf, yosh, sport, voleybol, rivojlanish, tanlash, mashg'ulot, natija, sifat.

В этой статье представлены рекомендации и предложения о том, как отобрать талантливых молодых людей для занятий волейболом из числа учащихся старших классов на уроках физкультуры и внеклассных мероприятиях.

Ключевые слова. Физическое воспитание, ученик, отбор, метод, время, класс, возраст, спорт, волейбол, развивает, тренировка, результат, качества.

In this article, the suggestions to select the talented students to volleyball game among the secondary school children were presented.

Key words. Physical education, pupil, selection, time, class, age, sport, volleyball, development, choose, the result of training.

Pedagogik ta'lim innovatsion klaster tizimi aynan ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish asnosida zamon talabidagi komponent kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. O'qituvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalar ta'lim jarayonida shakllanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi hamda sifati, biz pedagog xodimlarning mehnat faoliyatimiz davomidagi mas'uliyat va majburiyatlarni qay darajada bajarishimizga bog'liq.

Yosh sportchilarni sportning o'yin turlariga tanlash va mo'ljallashda, ma'lumki, maktablarda jismoniy tarbiya darslari asos bo'lib xizmat qiladi va yangi samarali uslublardan foydalanishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda ularni jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazariga ega, vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish belgilab qo'yilgan. Mustaqil Davlatimiz tomonidan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov tomonidan 24.10.2004-y. da "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi bilan turli geografik va ekologik sharoitlarda yashovchi bolalar va o'smirlarni jismoniy rivojlanishini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yilni "Ilm ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" yili deb e'lon qilingan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmon va farmoyishlarida sportga qobiliyatli bolalarni jismoniy mashg'ulotlar va sportga jalb etish, shuningdek, ularni saralab olishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishga mo'ljallangan fundamental va amaliy izlanishlarni amalga oshirish lozim.

Ma'lumki, sport iqtidori tashxisi hali o'z takomillashuvidan juda uzoqdadir. Ayni vaqtda, sport kurashlarida raqobatning oshib borish tendensiyalarini tavsiflovchi, sportni rivojlantirish zamonaviy bosqichlari, ilm-fan oldiga kelgusida sportchilarni tanlash va ularning tayyorgarligini baholash uslubiyatlari samaradorligini oshirish zaruriyati to'g'risidagi savollarni keskin qo'ymoqda.

Zamonaviy talablar darajasidagi yuqori sport natijalariga erishish va shug'ullanish istagidagi har bir bola uchun faoliyatida maqsadga intilish, mehnatsevarlik, qat'iyat va matonatni muntazam tarbiyalash bilan uyg'unlashib, yuqori natijalarga erishishga jismoniy tarbiya darslarida sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallashiga bog'liqdir.

Iste'dodli yosh sport zaxiralarini tayyorlash masalasida kichik yoki katta muammo tushunchalari bo'lmasligi darkor. Ko'zga ko'rinmaydigan eng kichik muammolar ham sekin-asta yig'ilib, katta muammoga muhtalo qiladi. Shuning uchun avvalambor, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni jismoniy va funksional jihatdan har tomonlama me'yorlangan mashg'ulotlar asosida o'tilmog'i lozim. Faqat yetarli energetik zaxiraga ega jismoniy va funksional potensial sport mahoratini yengillik bilan o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Vizual kuzatuvlar va holisona suhbatlar shundan darak beradiki, sport to'garaklari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazilayotgan mashg'ulotlarga aksariyat bir tomonlama prinsipda yondashiladi, ayniqsa, sport ko'nikmalariga dastlabki o'rgatish jarayonida qo'llanilayotgan jismoniy yoki texnik-taktik mashqlar uzviyligi, serqirraligi va mutanosibligi ta'minlanmasligi ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, bir xil turdagi katta hajmli va o'ta shiddatli mashqlar bilan shug'ullanuvchilar yoshi, jinsi va imkoniyatlariga qaramay zo'rma-zo'raki qo'llayverish oxir-oqibat psixofunksional organlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada, chuqur toliqish, zo'riqish holatlari yuzaga keladi. Bolalarda sportga bo'lgan motivatsiya, qiziqish so'na boshlaydi, shu sabab bunday bolalar sportni tark etishi mumkin. Ushbu masalaning yana bir muhim joyi shundaki, agar dastlabki o'rgatish jarayonida jismoniy va texnik-taktik mashqlarning o'zaro uzviyligi ta'minlanmasa, salomatlik ham, qaddi-qomat ham, mahorat ham garmonik tartibda shakllanmaydi.

Klaster so'zi bog'lam ma'nosini anglatadi. O'qitish jarayonidagi amalga oshiriladigan – bu metod puxta o'ylangan strategiya bo'lib undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Jismoniy tarbiya darslarida klaster yondashuv asosida voleybolchilarda jismoniy ko'rsatkichlarni rivojlantirish voleybol sport turini samarali o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- harakatli o'yinlar ichidan voleybol sport turiga yaqin va mos bo'lgan o'yinlar tizimini shakllantirish hamda voleybol xususiyatlariga moslashtirish;
- yordamchi va maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy rivojlanganliklari va texnik-taktik tayyorgarliklari darajasiga ta'sirini aniqlash;
- o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida voleybol sport turiga yo'naltirishda harakatli o'yinlarni yosh xususiyatlariga moslashtirish va samaradorligini o'rganish;
- dars jarayonida o'quvchilarni klaster tizimidan foydalangan holda boshqa sport turlari bilan bog'lab voleybol mashg'ulotiga moyilligi, chidamliligi, fikrlash doirasi va

qiziqishini oshirish.

Harakatli o'yinlar jismoniy mashqlari birinchi navbatda, asosiy harakatlar tarkibi bo'yicha turlarga ajratiladi. Masalan: To'pni o'yinga kiritishga yo'naltirilgan harakatli o'yinlar: "Ovchilar va o'rdaklar", "To'p otish", "To'p sardorga" va hokazo. Harakatli o'yinlarni turli xil usullarda qo'llash mumkin. Bu esa kimning qay darajada moslashuvchanligi va harakatlarning tezda o'zlashtirilishlari oqibatida o'quvchilarga tez va aniq o'rgatishga imkon yaratadi. Shuning uchun maktab jismoniy tarbiya darslarida ayniqsa, 5-6-sinf o'quvchilariga klaster usulidan foydalanib boshqa sport turlari bilan bog'lab foydalansak tezda maqsadga erishishga sazavor bo'lamiz. Shu bilan birga o'quvchilarga voleybol sport turini o'rgatishda ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi va ularning bo'yi balandliklari eng katta ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonlarida, o'quv-mashq ishlarini klaster tizimida olib borish xususiyatlari vosita va metodlarini tanlashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim va tarbiya jarayoniga ayniqsa, jismoniy tarbiya darslarini o'qitishning klaster usulini joriy etish monitoringini tizimli yo'lga qo'yish kutilgan samarasini beradi. O'quvchilarga jismoniy tarbiya darslarida voleybol sport turini o'rgatishda voleybol xususiyatlarini hisobga olib, tanlab olingan bu kabi harakatli o'yinlar, yordamchi mashqlar va maxsus mashqlardan foydalanilganda shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarliklari ancha yaxshilanishi bilan bir qatorda shaxsning har tomonlama rivojlanishi, sog'ligi, mashqlarga moslashishi, tezlanishi va ish bajarish qobiliyatini oshirishga katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Jismoniy tarbiya va sport jurnali. 2018-yil.*
2. *Shukurllayev J.M. 7-14 yoshli maktab o'quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish metodikasini takomillashtirish. TDPU magistrlik dissertatsiyasi. 2020-yil.*
3. *Pavlov Sh.K, Abduraxmonov F.A. Подготовка гандболистов. – Т.: Уз GIFK, 2006.*
4. *Shukurllayev J.M. 7-14 yoshli maktab o'quvchilarini voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari. "Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio" 2-son. 2019-yil. Nekis.sh. B.153-156*
5. *Shukurllayev J.M. O'quvchi yoshlarni voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari. ACADEMIC RESEARCH in EDUCATIONAL SCIENCES. №.1. 2020, 2-oktabr.*
6. *Shukurllayev J.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini voleybol sport turiga saralab olish usullarini takomillashtirish. "Boshlang'ich ta'limni kompetensiyaviy tashkil etish: nazariya va amaliyot" mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. 2020-yil 28-aprel.*

Alisher SULTONOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası katta o'qituvchisi

BELBOG'LI KURASH QOIDALARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Belbog'li kurashda raqibga nisbatan oyoqlar bilan harakatlanish man etiladi: chalish, oyoqni bosish, ilib olish, tizzaga bukish, oyoqlarni ushlab olish va hokazo. Undan tashqari, raqib belbog'idan qo'lni uzish, raqibni ko'tarmasdan yiqitish, beldan yiqitish va gilamdan tashqariga yiqitishlar ham mumkin emas. Qoidaga ko'ra raqibni belbog'idan ushlash an'anaviy usulda bo'ladi.

Kalit so'zlar. Belbog'li kurash, raqib, gilam, hakam, mashq, yakka, kuch, chalish, pahlavon.

В борьбе "Белбогли кураш" запрещается действие ногами по отношению к противнику такие как: подножки, наступление ногами, зацепы, сгибания в коленях, захваты ног и т. д. Кроме того, невозможно оторвать руку от пояса противника, сбить противника с ног, не поднимая его, сбить его с пояса и выбросить за ковер. Как правило, схватка противника за пояс происходит традиционным способом.

Ключевые слова. Белбогли кураш, соперник, ковер, судья, упражнение, одиночный разряд, сила, игра, пахлавон.

In the struggle with the belt, it is forbidden to move with the feet in relation to the opponent: to play, to press the foot, to hang up, to bend at the knee, to hold the legs, etc. In addition, it is impossible to break off the hand from the opponent's belt, break down without lifting the opponent, break down from the waist and fall out of the carpet. As a rule, holding an opponent by the belt will be in the traditional way.

Key words. Belt fight, opponent, carpet, referee, exercise, single, power, play, pahlavon.

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni om-malashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son Qarorini keltirishimiz mumkin. Mazkur qarorga muvofiq kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Qoidaga ko'ra, raqibni belbog'idan ushlash an'anaviy usulda bo'ladi. Kurashchilar gilamning markaziga turishadi, har biri o'ziga qulay bo'lgan vaziyatda turadi, keyin har ikkalasi ham raqibining chap tomoni orqasiga o'ng qo'llarini olib borib belbog'dan ushlashadi. So'ngra xuddi shunday qilib, chap qo'lda belbog'ni ushlab olishadi. Hakam ikkala kurashchini ham bellashuvga tayyor yoki tayyormasligini so'raydi va bellashuvni hushtak chalgan holda boshlaydi. Belbog'dan ushlash shart hisoblanib, uni olishuv vaqtida qo'yib yuborish, raqib oyog'ini gilamdan ko'tarmaguncha oyoqlar bilan harakatlanish mumkin emas.

Belbog'li kurash qoidalariga ko'ra, kurash texnikasining bir qancha usullari mavjud.

Eng ko'p foydalanadiganlari – ko'tarib oldinga tashlash, aylantirish, o'ng va chap tomonga tashlash, ilma, raqibni tezkor harakat bilan gilamdan ko'tarib yon tomonga tashlash, yarim egilma va egilma holatda yonga tashlash. E'tiboringizga kurashda qo'llaniladigan usullarni o'zlashtirish uchun mashqlar tizimini havola etamiz. Mashqlar yakka tartibda bajariladigan, juftlikda, qo'g'irchoqda, trenajorda chorak kuch bilan, yarim kuch bilan, to'la kuch bilan bajariladigan, raqib usullaridan himoyalaniş mashqlaridan iborat.

Ushlashlar va usullardan himoyalanişni mashqlarda o'rganib olishdan, avval „Soya bilan kurashish“ ko'rinishidagi usullarni mashq qilib olish lozim. Masalan:

1. „Soya bilan kurashish“ usullarini aloqasiz ifodalash kerak: oldinga, orqaga, chapga, o'ngga qadam tashlashlar bilan. Qadamlarni turli kenglikda, tezligi va maromini o'lchab tashlash lozim (1 daqiqa).

2. Holatni (baland, o'rta, past) o'zgartirib, aldamchi harakatlar va ushlab olishlarni ko'rsatgan holda turli tomonlarga harakatlanish (2 daqiqa).

3. Ushlab olish, aldash, muvozanatdan chiqarish, oyoqlar bilan harakatlanish, tashlash, usullardan himoyalaniş kabilarni ifodalagan holda harakatlanishlar.

4. Kiyimdan ushlagan holda muvozanatdan chiqarish, chalish yoki tashlash (raqibga jarohat yetkazmagan holda)ni ifodalab harakatlanish. „Soya bilan kurashish“da xohlagan usulni qo'llash mumkin. Orqa oyoqdan chalish usulini yaxshilab o'rganib olish uchun quyidagi mashqlarni taklif etamiz:

1) Qatnashchilar o'ng oyoq holatida turishadi. Sherigining kiyimidan ushlagan holda tana og'irligini o'ng oyoqqa o'tkazib, ikki qo'lning tezkor harakati bilan uni chapga orqaga tortish lozim. Chapga o'girilgan holda o'ng oyoqni sherigining ikkala oyog'i oldiga bir qadam qo'yish. Qo'llarning faol harakati, o'ng oyoqning itarilishi va gavdaning chapga-oldinga harakati orqali raqib gilamga yiqitiladi.

2) Raqib qarshilik ko'rsatadi (xuddi oldingi vazifa). Mashqlarni ketma-ketlik bilan bajarish talab etiladi.

3) Raqib yaqin kelganda orqa oyoqni chalish, o'rtacha tezlikda orqa va oldinga harakatlanish. Mashqni 1/4 kuch bilan bajarish lozim.

4) Mashqni yarim kuch qarshiligida bajarish. Unda ham xavfsizlikni unutmash kerak.

5) Mashqni boshqa sherik bilan bajarish. Keyinchalik, oyoqlar bilan oldinga, orqaga, yonga qadam tashlab, qo'llar harakati bilan raqibni qulay holatda ushlab olib, uni chalish mashqini bajarish mumkin.

Quyida sizlarga tezlik, abjirlik, harakatlaringizning uyg'unligini yaxshilash uchun yakkakurash elementlari bo'lgan maxsus mashqlarni havola etamiz:

1. Ikki oyoqda, bir oyoqda va tizzada turgan holda yoki gimnastik skameykada turgan holda kaftlarni raqib kaftlariga qo'yib, uni muvozanatdan chiqarish.

2. Bir yoki ikki oyoqda turib, raqibni chiziq tashqarisiga tortish (chiqarib yuborish).

3. Chap oyoqni oldinga qo'ygan holda turib, raqibning yelkasidan ushlab olishga urinib ko'rish. Chap tizzada turgan holda o'ng qo'l barmoqlarini birlashtirib (bosh barmoq tepaga qarashi kerak), raqibni ushlab olishga harakat qilish.

4. Chalg'itishni ifodalab, tezkor qo'l harakati bilan raqib chap kaftini, sonini, tirsagini, boshini, kuragini, tizzasini urib qo'yish.

5. Raqib qo'lini yonga itarish yoki pastga tushirish.

6. Qo'lning chalg'itma harakatlari orqali raqibni orqaga o'girib, gavdasidan ushlab (siqish) yoki oldidan bir qo'lda gavdasini ushlab.

7. Raqibdan bir qadam masofada orqasi bilan turgan holda qo'llarni yonga qo'yish. Raqib beldan ushlab olishga harakat qilganda qo'llarni tezda pastga tushirish.

8. Raqibni gavda va qo'l bilan aylanadan siqib chiqarish. Bir yoki ikki oyoqda sakrab turgan holda raqibni (kaftni kaftga qo'yib) itarib chiqarish.

9. Ishora berilgandan keyin raqibning qo'lidan to'pni bir yoki ikki qo'lda olib qo'yish. Bu mashqni gimnastik tayoqcha bilan ham bajarish mumkin. Yerdagi to'pdan 1-2 metr masofada turgan yoki o'tirgan holda ishora berilishi bilan birinchi bo'lib uni olib qo'yish.

10. Diametri 1,5 metrli aylanada chalg'ituvchi harakatlarni bajarish.

Asosiy vazifa – qulay vaziyatni tanlab, raqibning qo'lidan, belbog'idan ushlab olib o'ziga tortish.

11. Yon tomon bilan o'tirgan holda qo'llar tizzada turadi. Ishora berilishi bilan raqibning bel tomonidan ushlab (raqib yonga chap berib qolishi kerak).

12. Bir-biriga orqasi bilan o'tirgan holda qo'llarni tizzaga qo'yib, ishoraga binoan o'girilib, raqibni o'ng qo'l bilan bo'ynidan (boshning orqasidan) ushlab olish. Chap qo'lda himoyalalanish lozim.

13. Bir-biriga yaqin yotgan holda (boshni bir tomonga qaratib) ishora berilishi bilan bir kishi turadi, ikkinchisi esa uni ushlab qolishga urinadi.

14. Yotgan holda ishora berilishi bilan tezda turib, raqibning belidan orqadan yoki oldindan ushlab olish. Butun jahon nigohiga tushib, dovrug' va shuhrat qozonayotgan, millionlarni o'ziga mahliyo etgan kurash ham jahonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir. Tarixshunos, qadimshunos, elshunos va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar, kurashning yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyodligini isbotlaydi. Surxon, Zarafshon vohalari hamda Farg'ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topilmalar, asoriatlari, qoyalarga bitilgan tasviriy san'at namunalari ham bunga to'liq guvohlik beradi.

Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan 6 ta topilma – ashyoviy dalil mavjud. Chunonchi, Panjikentdan topilgan kurashayotgan ikki pahlavonning devoriy rasmi Sug'diyona davlatchiligiga ya'ni o'rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi. Shunday ashyolardan biri silindr shaklidagi sopol idish bo'lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy O'zbekiston) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o'z raqibini oyog'idan chalayotgani tasvirlangan. Yana bir idish gardishidagi haykalchalarda ham pahlavonlarning qo'llarini ko'tarib kurashga shaylanayotgani holda o'z ifodasini topgan. Bu topilmalar bronza davriga oid bo'lib, kurashning tarixi yana ham ko'proq, ya'ni 3,5 ming yil ekanligidan guvohlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda PQ-4881-son Qarori.

2. Yusupov K.. *Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi*. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot, 2005-y.

3. Atayev A. *Kurash*. –T.: O'qituvchi, 1987-y.

4. Azizov N.X. *Belbog'li Turkiston kurashi*, –T. O'qituvchi 1998-y.

5. Abdusattorov A.A., Istomin A.A. *Dzyudo kurashi*. –T.: Ibn Sino, –1993-y.

6. Юнусова Ю.М. *Основы методики физической культуры*, –Т., 2005 г.

7. Yarashev K.D. *Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish*. –T.: Abu Ali ibn Sino–2002-yil.

Vohid KARAYEV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Jismoniy madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

KOMPETENSIYALARNING INNOVATSION TA'LIM KLASTERIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada innovatsion ta'lim klaster asosida kompetensiyalarning shakllanishi asoslangan, shuningdek, kompetensiyalarning nazariy asoslari ochib berilgan va uning samaradorligini sinab ko'rish uchun eksperimental ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, individual, innovatsion ta'lim klasteri, motivatsion, tahliliy, progressiv ta'lim, mezonlar.

В статье обосновывается формирование компетенций на основе кластерного инновационного образования, раскрываются теоретические основы компетенций и приводятся экспериментальные данные для проверки его эффективности.

Ключевые слова. Компетенция, индивидуальный, инновационный образовательный кластер, мотивационный, аналитический, прогрессивный образовательный, критерии.

The article substantiates the formation of competencies based on cluster innovation education, reveals the theoretical foundations of competencies and provides experimental data to test its effectiveness.

Key words. Competence, individual, innovative educational cluster, motivational, analytical, progressive educational, criteria.

Orta ta'limni takomillashtirish zarurati jamiyatning ish beruvchilar, ishlab chiqarish, jamiyat va mehnat bozori tomonidan qo'yiladigan mutaxassislarni tayyorlash darajasiga yuqori talablarga javob berishi sifatida tushuniladi. O'rta ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatiga aylandi.

Jamiyat va ishlab chiqarish, shaxsiy hayotida va professional faoliyatida o'zini namoyon qila oladigan kishilarga muhtoj. Mehnat bozori talab va takliflar, ish beruvchilar, rivojlanayotgan jamiyatda ishlab chiqarish muammolarini tezda hal qila oladigan, o'zgaruvchan vaziyatlarda to'g'ri moslasha oladigan, bilimlarni doimiy ravishda to'ldirishga qodir raqobatbardosh mutaxassislar bilan qiziqadi.

Bugungi kunda o'rta ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifa o'quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvga yordam beradigan asosiy kompetensiyalarini, bilimlarini, shakllantirilgan kompetensiyaga asoslangan holda yangilashdir.

Manbalar va amaliy faoliyatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'rta ta'lim muassasalarida analitik, tadqiqot, dizayn va marketing va iqtisodiy mazmundagi kompleks muammolarni hal qilish kerak.

Muammo shundaki, ushbu kompleks muammolarni hal qilish uchun kelajakdagi ishlab chiqarish mutaxassislarining o'quv faoliyatini tashkil etishning yangi yondashuvlari talab qilinadi. Buni yangi turdagi o'zaro aloqani qurishga asoslangan klasterli yondashuvni amalga oshirish bilan ta'minlash mumkin: ta'lim muassasasi (maktablar), o'quv-ishlab chiqarish va tajriba korxonalari va ish beruvchilar o'rtasida.

M.Y. Porter klaster yondashuvining asoschisi klasterni o'zaro bog'liq kompaniyalar

– yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar, davlat organlari, kompaniya infratuzilmasi – ma'lum bir sohada faoliyat yuritadigan va bir-birini to'ldiruvchi guruh sifatida tavsiflaydi.

Ta'lim va hamkorlik asosida birlashtirilgan muassasalarga nisbatan ta'lim klasterining pedagogik imkoniyatlari va xususiyatlarini o'rganish dolzarbdir. Klaster yondashuv asosida talabalarni tayyorlash, pedagogik tashkilot xususiyatlari va talabalar o'quv faoliyatining ishlashini aniqlash imkonini beradi.

Maktab o'qituvchilarining klaster yondashuvi asosida kasbiy malakasini oshirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- xalq ta'limi o'qituvchisining professional malakasi, bilim, ko'nikma, tadqiqot, tashkiliy marketing faoliyati asosida shaxsning integral sifati tushuniladi;

- ta'lim klasterining tashkiliy tuzilmasi klasterning ta'lim, tajriba-sinov va ishlab chiqarish komponentlarini jamlash va birlashtirishni nazarda tutadi;

- ta'lim klasterida o'qituvchining professional malakasini shakllantirish uchun pedagogik mexanizmlar, kontent, texnologiyalar va sharoitlar mutaxassislarni jadal tayyorlash, uzluksizlikni, integratsiyani amalga oshirishga yordam beradi.

Xalq ta'limi o'qituvchilarining malakasini oshirish bir necha jihatlardan iborat bo'lib, turli yo'nalishlarda kompleks ravishda amalga oshiriladi. Ularning asosiy qismi o'z-o'zini tarbiyalash, uslubiy faoliyat, malaka oshirishni tashkil etish.

Eksperimentda o'qituvchilarning klaster kompetentligini quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha shakllantirish darajasi aniqlandi: o'qituvchilarning tanlangan yo'nalish bo'yicha loyihani ishlab chiqish – 60% ni, loyiha guruhini shakllantirish – 65%, loyiha faoliyati konsepsiyalari va normativlarini loyihalash – 45%, loyiha va modellar uchun hujjatlarni tayyorlash – 40%, kasbiy ta'lim faoliyatini loyihalash va modellashtirish natijalarini tahlil qilish – 35%.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini klaster yondashuvi sharoitida shakllantirishning tizimli-funksional modeli o'qituvchilarni o'qitishni rag'batlantirish va ularning ta'lim klasteri sharoitida innovatsion mahsulotni yaratish bo'yicha o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatini faollashtirishni nazarda tutadi.

Modelning mazmunli komponenti malaka oshirish bosqichlarida klaster imkoniyatlaridan foydalanish, tajriba-eksperimental ta'lim, ishlab chiqarishda menejment amaliyoti asosida tashkil etilgan analitik tadqiqotlar, dizayn, marketing bilimlari, o'qituvchining ko'nikmalarini belgilaydi. Ushbu jarayonning mazmuni o'quv modullari to'plamini o'z ichiga olgan mualliflik ta'lim dasturida aks ettirilgan.

Modelning protsessual va faoliyat komponenti klaster yondashuvining resurslarini kompleks ravishda amalga oshiradigan loyiha treningini ta'minlaydi.

Modelning samarali va baholash komponenti o'qituvchilarning ta'lim, tadqiqot, loyihalash va boshqarish sohasidagi kasbiy malakalarini rivojlantirish darajasini tavsiflaydi. Ushbu model maktab o'qituvchisi malakasini oshirishning modulli texnologiyalari asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturlarining modulli tuzilmalari tizimlashtiruvchi jihatlar (tuzilish, kontent, sifat) birligi bilan ifodalanadi, ular o'qituvchini tadqiqotchi, boshqaruvchi, haqiqiy ishlab chiqarish klasteri modelini yaratuvchisi sifatida shakllantiradi.

Klaster yondashuvidan foydalanish ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va mintaqaviy hamjamiyatning resurslarini (ta'lim, moddiy-texnika, iqtisodiy va h. k.) jalb qilish hamda o'qituvchilarni innovatsion-ta'limiy mahsulotlarni ishlab chiqish jarayonlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi:

- ta'lim klasteri sharoitida iqtisodiyotning real sektorida ijtimoiy-loyiha faoliyatida ishtirok etish qiymatini tushunish, uni yaratish va qo'llash;
- klasterdagi hamkorlar bilan o'zaro muloqot qilish usullari va doirasini kengaytirish;
- klasteri tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish va axborot jarayonida ishtirok etishni faollashtirish (axborotni izlash, axborotni olish, qayta ishlash va kerakli shaklda taqdim etish);
- analitik, menejment, dizayn, tadqiqot muammolarini hal qilish uchun ta'lim klasterining resurslarini qo'llash.

Ta'lim klasteri sharoitida institut professor-o'qituvchilarining kasbiy malakasini shakllantirishni boshqarish ta'lim klasteri doirasida ishlashga tayyorgarlik darajasini baholash va bitiruvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy, ishlab chiqarish va kasbiy moslashuvi uchun yanada sifatli tayyorlash imkonini beradi.

Tayyorgarlik mezonlari – shaxsiy fazilatlarni, refleksivlikni, o'z-o'zini hurmat qilishning yetariligidini, motivatsion ijtimoiy va kasbiy tayyorgarlikni, istiqbolni ko'rish va baholash qobiliyatini, individual, guruh va jamoaviy harakatlarni tahlil qilish va obyektiv baholashga bo'lgan ehtiyojni tavsiflaydi.

Faoliyat mezonlari – guruhlarda ishlashni tashkil etish, klaster yondashuvini amalga oshirish bo'yicha texnologiyalarni qo'llash, hamkorlik va menejment pedagogikasi tamoyillariga imkon beruvchi o'qituvchilarning malakasini shakllantirish;

Ijtimoiy mezonlar – maktab o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy komponentni hisobga olishga qaratilgan ta'lim klasterining ishini tashkil etish faoliyatining asosi.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy malakasini klaster yondashuv asosida rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi, professor-o'qituvchilar va o'quvchilarning tanlovlarda, ijodiy guruhlarda ishtiroki, tadqiqot ishlarini olib borish, bitiruvchilarni ishga joylashtirish orqali erishilgan malaka oshirish natijalari bo'yicha baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амельченко Т.В. Ценностно-смысловая характеристика категории "образование" // *Образование и глобализация: материалы Третьей Байкальской междунар. науч. конф.* – Улан-Удэ, 2009. – Ч.1. – С. 7-9.

2. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методолог. и метод. вопросы): учеб. - метод. пособие. – М., 2006. – С.25.

3. Горемыко М.В. Управление качеством общего образования региона на основе кластерного подхода: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – М., 2010. – С.23.

4. Дубова М.В. Компетентность и компетенция как педагогические категории // *Гуманитарные науки и образование.* – 2011. – № 2 (6). – С. 17 –23.

5. Караев В.Ш. Педагогическая поддержка развития профессиональной компетентности преподавателя физической культуры // *Мактаб ва ҳаёт илмий-методик журнал*, 2020. – Махсус сон № 2. С. 27-28.

6. Петьков В.А., Филоненко В.А. Мониторинг развития компетенций будущих специалистов в процессе реализации образовательных программ иноязычной подготовки // *Вестник Армавирского института социального образования (филиала) РГСУ.* 2014.– С. 101-104.

Dilfuza UMARALIYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti,

"Fakultetlararo jismoniy tarbiya" kafedrası o'qituvchisi

SPORTCHILARDA DISPANSER NAZORATINI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib qachon dispanser nazorati tashkil etilganligi, sportchilarni dispanser nazoratidan o'tkazish yo'nalishlari, dispanser nazoratining maqsadi, sportchilarni jismoniy rivojlanishiga hamda jismoniy tayyorgarligiga qanday ta'sir ko'rsatishi, sportchining organizmini tiklantiruvchi vositalar ya'ni pedagogik, psixologik, tibbiy vositalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Dispanser, dispanserizatsiya, sportchining rivojlanishi, sog'lik, funksional diagnostika, davolash jismoniy madaniyati, sportda ish qobiliyatini tiklanishi.

В статье рассказывается, когда в Республике Узбекистан был создан первый диспансерный контроль, направления диспансерного контроля спортсменов, цели диспансерного контроля, как он влияет на физическое развитие и физическую подготовленность спортсменов, способы восстановления организма спортсмена.

Ключевые слова. Диспансер, диспансеризация, развитие спортсмена, здоровья, функциональная диагностика, лечебная физическая культура, восстановление работоспособности в спорте.

The article will consider when dispensary control was first organized in the Republic of Uzbekistan, the directions of dispensary control of athletes, the purpose of dispensary control, how it affects the physical development and physical training of athletes, the restorative means of the athletes body, that is, pedagogical, psychological, medical means.

Key words. Dispensary, medical examination, sportsman development, health, functional diagnostics, therapeutic physical culture, recovery of performance in sports.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni tibbiy ta'minlash maxsus tibbiy-jismoniy tarbiya xizmatlari (kabinetlar, dispanserlar) va sog'liqni saqlash organlarining davolash-profilaktik muassasalari orqali territorial prinsipda amalga oshiriladi. Sport tibbiyoti aholini davolash-profilaktik xizmatining asosiy qismi bo'libgina qolmay, insonning jismoniy tarbiya tizimidagi ajralmas bo'lagidir.

1948-yilda respublikada yoshlar birinchi marta tibbiy jismoniy tarbiya ko'rigidan o'tgan, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar tibbiy guruhlariga bo'linadi. Ularning salomatlik holatini, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda asosiy, kuchli va kuchsiz tibbiy guruhlariga bo'lindi. Sportchilarning chiniqqanligini aniqlashda Letunov sinamasi qo'llana boshlandi. Sog'liqni saqlash vazirligi buyrug'i bilan 1950-yilda tibbiy jismoniy tarbiya markazlari tibbiy jismoniy tarbiya dispanserlariga aylantiriladi. Shu sababli Toshkent shtatida besh kishi bo'lgan respublika tibbiy jismoniy tarbiya dispanseri tashkil etildi.

Dispanserizatsiya – meditsina xizmati ko'rsatishda eng yuqori va takomillashgan turidir, bunda davolash bilan profilaktika birgalikda olib boriladi. Yetakchi sportchilar sog'lig'ini, ish qobiliyatini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan profilaktika va davolash

tadbirlarida malakali tibbiy yordam ko'rsatish reja asosida olib boriladi. Sport inshootlari gigiyenik talablariga javob berishi shart. Aks holda jarohatlanish, kasallanish va sport natijalarini tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sport inshootlari qurish loyihalari Davlat sanitariya nazoratining mahalliy organlari bilan kelishiladi va obyektlarga topshiriladi, keyin ular sanitariya – epidemik stansiyalar va vrachlik jismoniy tarbiya dispanserlari doimiy sanitariya nazoratida bo'ladi.

Sport vrachlik nazorat dispanseri viloyat markazida va viloyatning yirik shaharlarida joylashadi. Sog'liqni saqlash boshqarmasi rahbarligida sport tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Dispanserda sport tibbiyoti bo'yicha bir nechta mutaxassislikdagi shifokorlar ishlaydi, ixtisoslashgan tibbiy xonalari bo'ladi. Jumladan:

1. Funksional diagnostika.
2. Fizioterapiya.
3. Davolash jismoniy madaniyati.
4. Klinik-biokimyo laboratoriya kabi xonalari bo'ladi.

Dispanserning vazifalari quyidagilardan iboratdir.

1. Sport tashkiloti tavsiya qilgan ro'yxat bo'yicha viloyat va shahar terma komandalarga kiritilgan sportchilarni maxsus ro'yxatga sport maktabi o'quvchilarini maxsus ro'yxatga oladi, ular yil davomida kamida 2 marta tibbiy nazoratdan o'tkazadi, mashg'ulot hajmi bo'yicha trenerga maslahat beradi.

2. Sport bilan mustaqil shug'ullanuvchilarga o'z xohishlari bo'yicha shifokor maslahati beriladi.

3. Dispanser sport vrachlik nazorati bo'yicha ilmiy-uslubiy markaz sifatida poliklinika va sport inshootlarida faoliyat ko'rsatadigan sport vrachlik nazorati xonalarining shifokorlariga ilmiy-uslubiy masalalar bo'yicha maslahatlar beradi. Bu vazifalar orqali dispanser nazorati tashkillanishi ta'minlanadi.

Katta maktab yoshida (16-18 yoshda) suyak-muskul, asab-psixik, nafas olish, yurak-qon tomir tizimlarining rivojlanish ko'rsatgichlari katta odamlarga yaqinlashadi. Shu bois, bu yoshdagi o'smirlarning sog'lig'i va jismoniy chiniqqanligini e'tiborga olgan holda, sportning ko'pgina turlari bilan shug'ullanishlari mumkin.

Hozirgi vaqtda sportchilar o'rtasida dispanser nazoratlarini tashkil etish katta miqiyosda amalga oshirilib kelinmoqda. Sportchilar o'rtasida dispanser nazoratini tashkil etish yo'llari orqali ishni tizimlilik orqali amalga oshishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Sportchilar o'rtasida dispanser nazoratini tashkillash yo'llariga quyidagilarni misol tariqasida kiritishimiz mumkin.

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi kishilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish;
- yetakchi sportchilarni dispanser kuzatuviga olish;
- sport bilan shug'ullanish nazoratida sportchilarni salomatligini mustahkamlashda sog'lomlashtirish, davolash va profilaktika chora-tadbirlarini tashkil qilish;
- jismoniy tarbiya va sport mashqlari uchun ajratilgan joylar, musobaqa o'tkaziladigan joylar sharoiti ustidan, shu jumladan, sport inshootlari ustidan sanitariya gigiyena jihatdan nazorat qilish;
- sport musobaqalarni o'tkazishda meditsina xizmatini ko'rsatish;
- jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish ishlarini ommaviy turlarini o'tkazishda tibbiy xizmat ko'rsatish;
- sport travmatizmini oldini olish;
- ilmiy tekshirish va metodik ishlarni olib borish;

- tibbiy va sportga oid masalalar bo'yicha konsultatsiyalar berish;
- sportchilar o'rtasida sanitariya ishlarini olib borish va keng omma orasida jismoniy tarbiya umumiy g'oyalarni targ'ib etishga doir ishlarni amalga oshirish.

Zamonaviy sportga ta'luqli jiddiy va shiddatli mashg'ulotlar, musobaqalardan keyin sportchilarning ish qobiliyatini oshirish va organizm toliqib qolishini oldini olishda, ularni qayta tiklash vositalarini qo'llash sport tibbiyotining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davolash jismoniy tarbiyasi jismoniy mashqlar yordamida bemorlarni davolash va sog'ligini qayta tiklash maqsadida shug'ullaniladi.

Butunlay sog'lom organizm funksiyasi ham ma'lum sharoitlarga qarab goh kuchayib, goh susayib turishi mumkin.

Qayta tiklash vositalari uchta asosiy – pedagogika, psixologik va tibbiy guruhlariga bo'linadi.

Pedagogik vositalar – asosiy vositalar bo'lib hisoblanadi, chunki ratsional ravishda tuzilgan sport mashg'ulotlarni qayta tiklash jarayonlarini tezlashtiradi va sport natijalarni oshiradi. Bunda quyidagi faktorlarga katta ahamiyat beriladi: mikro va makrosikllarda shu bilan sportchini ko'p yillar davomida tayyorlanishida yuklanish va dam olishni birga qo'shib to'g'ri olib borilishi. Maxsus qayta tiklash sikllarini kiritish, dam olish kunlari, mashg'ulotlarni har xil sharoitlarda o'tkazilishi, mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar, yengil krosslar, mashg'ulotlarni kirish va tugash qismlarini ratsional ravishda tuzilishi va boshqalar.

Psixologik vositalari – asab tarangligini chetlatadi, shu bois organizmining harakat va fiziologik funksiyalari tezda qayta tiklanadi.

Bularga har xil asabiy va ruxiy holatlarini boshqarish uslublar: uxlab dam olish, o'z kuchiga ishonirish, o'z-o'zini irodasini mustahkamlash, mushaklarni bo'shashtirish usullari, bo'sh vaqtlarni sermazmunli o'tkazish, gipnoz va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ma'lumki, ishdan keyingi davrda faqat organizmning sarf qilgan resurslari va shuningdek, uning fiziologik funksiyalari tiklanibgina qolmay balki muhim funksional struktura qayta qurilishlar ham bo'ladi. Shuning uchun tiklanish jarayonlarini bilib hisobga olish trenirovka yuklamalariga doimo to'g'ri yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sportchilarda dispanser nazoratini tashkil etish tizimli ravishda amalga oshirilsa, ularning sog'lig'ini mustahkamlash, muhofaza qilish yanada osonlashadi hamda sport musobaqalarida natijaga erishish tezlik bilan ortadi. Dispanser nazorati sportchilarning jismoniy rivojlanishini va jismoniy tayyorgarliklarini optimal ravishda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda ayrim sportchilar dispenser nazoratidan o'tishni xohlashmaydi, bu esa ularning sog'liqlariga hamda o'zlarining muvaffaqiyatga erishishlariga to'sqinlik qilib keladi. Sportchini har tomonlama tarbiyalashda murabbiyning ijodiy yondashuvi ham katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A.A. va boshqalar. *“Jismonan barkamol avlod orzusi”* – Farg'ona, 2003-yil.
2. Qodirov U.Z. *“Odam fiziologiyasi”* Abu Ali Ibn Sino nashriyoti, 1996-yil.
3. Qurbonov Sh., Qurbonov A. *“Jismoniy rivojlanishning fiziologik asoslari”* – T., 2003-yil.

Izzatoy MARASULOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at" kafedrası katta o'qituvchisi

Nurali BOYMUROTOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at" kafedrası 3-bosqich talabasi

O'ZBEKISTON ME'MORIY YODGORLIKLARIDA NAQSH BEZAKLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola xalq amaliy san'atining naqqoshlik yo'nalishi haqida umumiy ma'lumot beradi va qo'l san'atlari an'alarini tiklash, saqlab qolish masalalarini muhokama qiladi.

Kalit so'zlar. Xalq amaliy san'ati, an'alar, naqqoshlik, usta-shogird, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, zardo'zlik, badiiy hunarmandchilik.

В статье дается обзор направления живописи в народном творчестве, рассматривается восстановление и сохранение ремесленных традиций.

Ключевые слова. Народно-прикладное искусство, традиции, орнамент, подмастерье, резьба по ганчу, резьба по дереву, чеканка, вышивка, ювелирное дело, декоративно-прикладное искусство.

This article provides an overview of the direction of painting of folk applied arts and discusses the issues of restoration and preservation of handicraft traditions.

Key words. Folk applied arts, traditions, master-apprentice, potter, wood carving, coppersmithing, embroidery, goldsmithing, arts and crafts.

Xalqimizning amaliy san'ati boy an'analarga va uzoq tarixga ega. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqida ham ma'naviy qadriyatlar, madaniy merosi asrlar davomida shakllanib kelgan. Yurtimizda arxeologik qazilmalar natijasida topilgan badiiy ijod namunalari xalq amaliy san'atining tarixi tosh asriga borib taqalishini ko'rsatadi.

Amaliy bezak san'ati turi tasviriy san'at bilan uyg'unlikda rivojlanib kelgan. U binolar, inson tomonidan foydalaniladigan barcha ro'zg'or buyumlarga naqshlar bilan badiiy bezak berishda keng qo'llanilib kelingan. Bezakli naqshlar asosan, maishiy turmush ehtiyojlariga xizmat qiladigan narsalar va buyumlarning tashqi bezagi uchun ishlatiladi. O'zbekiston amaliy bezak san'ati dastgohli rangtasvirdagi shakllar tasviridan farq qilib, xalq tarixi bilan bog'liq holda murakkab va ko'p asrli rivojlanish yo'lini bosib o'tgan.

Hozirgi texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yurtimizda xalq amaliy san'ati durdonalarini avaylash va o'z tajribalarini saqlab qolish uchun hunarmandlarga vorislarning yetishmasligi ko'zga tashlanadi. Me'moriy yodgorlik obyektlarini saqlash uchun ijtimoiy-madaniy ahamiyatini yetarli darajada baholay olmaslik holatlari uchrashi, barcha hududlarda yosh avlodga amaliy san'at va hunarmandchilik an'alarini o'rgatish ishlari birdek rivojlangan deb ayta olmaymiz.

Ana shunday globallashuv jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarining barchasida o'zining ijobiy va salbiy jihatlarini nomoyon etmoqda. Hozirgi tashqi ma'naviy tahdidlar kuchaygan, axborot texnologiyalarning rivojlanishi, mobil telefonlar imkoniyatlarining oshib borayotganligi bolalarga bilim olishi uchun qulay sharoitlar yaratish bilan bir qatorda zararli odatlarning ko'payishiga ham olib kelmoqda. Ular har bir muammoning

yechimini internet saytlaridan qidirib, turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishmoqda. Bu hozirgi bolalarni ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni, mustaqillik g'oyalariga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil etish¹ davlatimiz siyosatining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston xalq san'atida me'moriy badiiy naqshlar muhim o'rin tutadi. San'atning bu qadimgi turi O'rta Osiyo me'morchiligi xususiyatlari va mahalliy qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan.

Yurtimizda me'morchilik qadimdan yuqori darajada rivojlangan. Bunga tarixiy obidalarimiz masjidlar, maqbaralarni misol qilishimiz mumkin. Bu imoratlarda otobobolarimizning didi, dunyoqarashi, bilim saviyasi, qurilish madaniyati nechog'lik yuksak saviyada ekanligi ko'rinib turibdi. O'zbek diyorida bobokalonlarimiz yaratgan barkamol teran mazmunli va tarixan bebaho san'at asarlari jahon madaniyati durdonalari qatoridan o'rin olgan. Qo'li gul ustalar yaratgan san'at durdonalari kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi. Yodgorliklarda quyosh nurida tovlanayotgan sarkor koshinlar nafis naqsh-nigorlar beixtiyor kishilarni o'ziga maftun etadi. Bu naqshu-nigorlar bir necha asrlar oldin yaratilgan bo'lsa-da hozirgacha o'z nafosati ko'rki bilan kishi ko'zini quvnatadi. Bunga biz Samarqanddagi me'moriy obidalarni keltirishimiz mumkin. Tosh, sopol, materiallarda o'z aksini topgan oddiy xalq tomonidan kashf etib yaratilgan bu monumental binolar o'zining bejirimligi va mahobatligi bilan kishilarni hayratga solmoqda. Bularni yaratgan ustalar o'z bilimi yuksak mahoratlari evaziga shunday o'lmas asarlarni yaratib toshlarga muhrladilarkim, ular hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

Gyugo aytganday, — Odamzod ongida paydo bo'lgan eng ahamiyatli fikrlarni toshga bitib ifodalaydi, chunki qog'ozga bitilgan qo'lyozmalarda har qanday buyuk g'oyalar bo'lmasin ular vaqt o'tishi bilan yo'qolishi mumkin, lekin qurilgan bino — bu toshda ifodalangan boshqaga bir kitob bo'lib, u juda uzoq asrlar uchun chidamlidir.

“San'at — bu bir mo'jizadir, u mohiyatan shaxsning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. Yurak va miyaning shunday xilqat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin”.

Naqqoshlik — o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng jozibali va nafis turlaridan biri hisoblanadi. Binobarin xalq amaliy san'atining barcha turlarini naqsh elementlarisiz tasavvur etish qiyin. Naqsh — gul, bezak degan me'noni anglatib, amaliy san'at asarlariga chiroy bag'ishlaydi. Bunday bezak elementlari esa, tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, hayvonlar tasviri va koinot jismlarining eng sodda ko'rinishlari orqali aks ettiriladi. Naqqoshlik san'ati barcha amaliy san'at turlarining tarkibiy qismi o'laroq, O'rta Osiyo xalqlari orasida o'zining nafis shakllari, rangin tovlanishi hamda ramziy ma'nolariga boyligi bilan qadimdan keng rivojlanib kelgan. Naqsh — o'zbek xalq amaliy bezak san'atining tarkibiy qismi bo'lib, ramziy ma'nolari, tabiiy shakl va ranglar jozibasi bilan go'zal. Insoniyat qadimdan turar joylarni, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa shu kabi amaliy san'at namunalarini bezashda, nafis naqsh tasvirlaridan keng foydalanib kelmoqda. Shu qatori u o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan yon-atrofidagi barcha inshoot va jihozlarni ona tabiat go'zalligi bilan uyg'unlashuvi orzusida yashab, ijod qiladi.

Naqqoshlik san'ati ham hunar, ham san'atdir. Bu va bu kabi san'at turlarini egallash yoshlarning badiiy madaniyatini, tafakkurini, dunyoqarashi va estetik didini rivojlantirishda

¹ Shavkat Mirziyoyev Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida /O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni//T., 11-iyul, 2019.

muhim ahamiyatga ega. Naqqoshlik san'ati asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ko'z qorachig'iday asrab-avaylab kelindi va kelinmoqda. Hozirgi yosh avlod uni qabul qilib olarkan, o'z oldida tutgan masuliyatni bir daqiqa ham unutmash lozim. Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyaning jahon standartlari talab darajasida bo'lishi alohida ahamiyatga egadir.

Bugungi kunimizda amaliy san'at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo'lida barcha sharoitlar mavjud. Xalq amaliy san'atidan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlari bo'lajak muallimlarni har tomonlama yetuk, jahon andozasiga javob bera oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashga, qolaversa, maktab o'quvchilarini hozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan nozik qalb inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim maskanlarida mashg'ulotdan tashqari tashkil etiladigan ilmiy va ijodiy to'garaklar yoshlarning vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ulardagi bilim olish, kasb-hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashda juda katta ahamiyati ega.²

Naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kandakorlik kabilar o'zbek xalq amaliy san'atining barcha turlari uchun naqsh elementlarining chizilishi o'xshash ko'rinsada, bajarilishi, texnologiyasi va pardoqlash usullari turlichadir. Masalan: ganchkorlik va yog'och o'ymakorligida naqshlar o'yib, naqqoshlikda chizib, kashtachilikda chok yordamida, misgarlikda zarb bilan zardo'zlikda qadab va shunga o'xshash usullar yordamida naqsh solinadi.

Albatta, naqqoshlik san'atida oddiy chiziqlar mohiyatini rang tuslari ochib beradi. Naqshlarni bo'yashda zamin va shakl oraliqlariga to'q rang, gul novda va boshqa elementlariga och ranglar beriladi. Ranglash bosqichlarida iliq va issiq ranglar aralash qo'llanilmaydi. Aksincha, naqsh namunalarning umumiy talqinlariga e'tibor beriladi. Naqsh rang bilan jozibalidir. Naqsh elementlarining ko'zga yaqqol tashlanishi, naqsh va zamin yuzalarining hamohangligi va o'ziga xos ramziylikni kashf etuvchi xususiyatlarini, albatta, rang tuslarisiz tasavvur etish qiyin. Naqshda rang uyg'unligiga erishish katta san'atdir.

Amaliy san'atda, borliqni aks ettirish o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. U inson paydo bo'lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O'rta asrga kelib o'zining eng yuqori cho'qqisini namoyon qildi. Yevropa bu borada dunyo sivilizatsiyasi rivojida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu qit'a vakillari zamonasining eng buyuk xalq amaliy san'at arboblarni yetishtirib berdi va shularning mehnati natijasida amaliy san'at shakllandi.

O'zbek milliy xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirish, bu kabi hunar turlarini yoshlarimizga o'rgatish bugungi kunimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda xalq amaliy san'ati turlarini fan sifatida Oliy o'quv yurtlarida ham o'ziga xos ravishda o'qitilishi diqqatga sazovor. Shuningdek avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq amaliy san'atiga doir mashg'ulotlarning ehtirom-u qiziquvchanlik bilan maktab va maktabdan tashqari to'garak muassasalarida o'rgatish kuchaydi. Bu esa yosh avlodni kelgusida kasb-hunarni va har tomonlama yetuk madaniyatli kishilar bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

Naqsh chizishni o'rgatish jarayonida o'zbek xalq amaliy san'ati durdonalari bilan kengroq tanishtirib borish talabalarining dunyoqarashini shakllantiradi, tasavvurini

² Султанов Х. Э., Анкабаев Р. Т., Муратов Х. Х. Формирование духовного образования студентов и молодежи при помощи творческой деятельности (в партнерстве) / Музыкальное и художественное образование: опыт, традиции, инновации: электронный сборник научных статей. Вып. II [Электронный ресурс]//. – Чебоксары: 2020. – С.107.

boyitadi, didini o'stiradi, ularga ma'naviy oziqa beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, to'garaklardagi ijodiy mashg'ulotlar bolalarda estetik didni shakllantirib qolmay, balki ularni amaliy bezak san'ati va milliy xalq hunarmandchiligi asarlari bilan tanishtiradi, ularga zarur ijodiy bilimlarni beradi, badiiy mehnat ko'nikmalarini rivojlantiradi va shu bilan birga ularni iqtidori bo'yicha kasblarga yo'naltirish³ uchun ruhiy va amaliy tayyorgarlikni amalga oshiradi. Faqat, yuqori estetik tuyg'ularga ega bo'lgan, ichki dunyoqarashi rivojlangan odamgina atrofidagi dunyoni faol ravishda o'zgartira olishga qodir bo'ladi.

Badiiy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atiga milliy qiziqish ortdi. Lekin buning uchun muammolarni anglab yetish zarur madaniyatning ushbu sohasida mavjud bo'lib, qachon pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotini qayta ko'rib chiqishga harakat qilishga e'tibor berilsa, mutaxassislarni qayta tayyorlash va mahsulotlarni yaratishga imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu borada Prezidentimiz juda katta islohotlarni olib bormoqdalar. Birgina misol tariqasida o'tkazilib kelinayotgan yoshlar ma'naviyatini yuklashtirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi yurtimizning barcha maskanlarida birday o'tkazilini kelinmoqda va yoshlarni san'atga bo'lgan qiziqishlarini yuzaga chiqarmoqda. Bu albatta, hunarmand ustalar ustoz-shogird an'analarini yo'lga qo'yish, amaliy san'at sohasida uchinchi Renessans poydevorini qurishda yana bir muhim qadam bo'lib qoladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida /O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni/—T.-11-iyul – 2019-y.

2. Sultanov Kh.E., Sobirov S.T., Marasulova I.M. Theoretical basis of cluster approach in fine arts education / Journal of Critical Reviews // Vol 7, Issue 9, 2020: – p. 109;

3. Sultanov Kh.E., Marasulova I.M., Bakhriev I.S., Ankabaev R.T. The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education / International Journal of Psychosocial Rehabilitation, ISSN: 1475-7192// Vol. 24, Issue 05, 2020: -Pp. 6586-6591;

4. Bulatov S.S. "Ganchkorlik" 5-sinflar uchun qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1997-y.

5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati, –T.: Mehnat, 1991-y.

6. Qosimov Q. Naqqoshlik –T.: O'qituvchi. 1990-y.

7. Султанов Х.Э. Innovation technology clusters use of technology in illustration/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation/- Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192: P. 3876.

8. Султанов Х.Э., Анкабаев Р.Т., Муратов Х.Х. Формирование духовного образования студентов и молодежи при помощи творческой деятельности (в партнерстве) / Музыкальное и художественное образование: опыт, традиции, инновации: электронный сборник научных статей. Вып. II [Электронный ресурс]//. – Чебоксары: 2020. – С.107.

9. Султанов Х.Э. Innovation technology clusters use of technology in illustration/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation/- Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192: P. 3877.

³Sultanov X.E, Innovation technology clusters use of technology in illustration/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation/- Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192: P. 3876.

Sarvar SOBIROV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at" kafedrası katta o'qituvchisi

TALABA-YOSHLARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH, ULARDA YUKSAK AXLOQ, KASBGA SADOQAT KABI INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish yo'lida barcha sohalarida jumladan, oliy ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda qiziqishlari bo'yicha tashkil etilgan to'garaklar va mini to'garaklarning ahamiyati, muvaffaqiyatga erishish uchun tirishqoqlik, ko'p va og'ir sharoitda bo'lsada ishlash, ishni boshqalarga qaraganda erta boshlab kech tugatish, zo'r berib o'z ustida ishlash kerakligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Mafkuraviy immunitet, kasbiy kompetentlik, axloqiy sifat, islohotlar, to'garak, mini to'garak, professional kadr, mohir pedagog.

В статье описаны проводимые реформы во всех сферах, включая высшее образование, по укреплению идеологического иммунитета студентов, формированию таких человеческих качеств, как высокая мораль, преданность профессии, интересы молодежи в содержательной организации досуга. важность мини-клубов, стремление к успеху, необходимость работать даже в сложных и тяжелых условиях, заканчивать работу раньше других, много работать над собой.

Ключевые слова. Идеологический иммунитет, профессиональная компетентность, моральные качества, реформы, кружок, мини-кружок, профессиональные кадры, квалифицированный педагог.

The article describes the ongoing reforms in all areas, including higher education, to strengthen the ideological immunity of students, the formation of human qualities such as high morals, dedication to the profession, organized clubs on the interests of young people in meaningful leisure and the importance of mini-clubs, the effort to succeed, the need to work even in difficult and difficult conditions, to finish work earlier than others, to work hard on yourself.

Key words. Ideological immunity, professional competence, moral quality, reforms, circle, mini circle, professional staff, skilled educator.

Hozirgi murakkab globallashuv davrida talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg'unlashtirish, ta'lim va tarbiya uyg'unligini amalda ta'minlashning tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishni taqozo etmoqda.

Hozirgi zamonda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar dunyo siyosiy maydonidagi salmoqli ahamiyat kasb etuvchi jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. O'z navbatida, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda – mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amalga oshirish tizimini aniq belgilash va hayotga tatbiq etishni ta'minlash kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning barcha bo'g'ini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu jihatlarda o'qitish sifatini tubdan takomillashtirish, bilim maskanlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oliy ta'lim maskanlariga yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Konsepsiyada talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning maqsadlari va vazifalaridan san'atga oidiga to'xtalib o'tamiz:

Konsepsiya maqsadlari:

– yoshlarni adabiyot va san'atga jalb etish, kitobxonlik madaniyati, estetik did va kasbiy etikani tarbiyalash, ularni sportga jalb etish, jismonan chiniqtirish va sog'lom shaxs sifatida shakllantirish, axborot tahlili madaniyatini oshirish, internetda axborotlar tahlili va manfaatlarni himoya qilishga o'rgatish, shuningdek, ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularda Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissinin qaror toptirish hamda ularni professional kasb egasi sifatida tarbiyalash;

Konsepsiya vazifalari:

– davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan beshta tashabbusning ijrosini ta'minlash maqsadida yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, o'z qobiliyatlarini namoyon qilishga ko'maklashish orqali ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish;

Konsepsiyada berilgan ushbu maqsad va vazifalardan ko'rinib turibdiki, san'atning, alohida aytadigan bo'lsak, tasviriy san'atning talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda nechog'liq ahamiyatli ekanligini ko'rsatib turibdi.

Konsepsiyaning amalga oshiriladigan ishlar mazmuni qismida:

– ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarida darsdan (auditoriya) va maktabdan tashqari (auditoriyadan tashqari) bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, fan va boshqa qiziqishlari bo'yicha klublar (to'garaklar), sport seksiyalariga jalb etish hamda ularning jamoat ishlaridagi ongli ravishda ishtirokini ta'minlash borasidagi ishlarni kuchaytirish;

Keltirilgan vazifalarda ko'rinib turibdiki, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda qiziqishlari bo'yicha to'garaklarga qatnashish talaba yoki o'quvchi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu gaplarimizning amaldagi tatbig'i sifatida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” ta'lim yo'nalishida muntazam faoliyat olib borayotgan to'garaklar va ularning tarkibida ochilgan mini to'garaklarning faoliyatini ko'rib chiqamiz.

“Ijodiy tafakkur” ilmiy to'garagida talaba yoshlarga maqola, tezis yozish va ilmiy ish qilish sir-asrorlari o'rgatiladi. To'garakni dotsent X.E.Sultanov olib boradi.

“Sehri mo'yqalam” to'garagida talaba yoshlarga qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya sir-asrorlari o'rgatiladi. To'garakni o'qituvchi I.S.Baxriyev olib boradi. Ushbu to'garak qoshida “Portret” mini to'garagi faoliyat olib boradi. To'garakni yo'nalishimiz TSMG 18.2 guruh talabasi J.Jumayev olib boradi.

“Grafika” to'garagida talaba yoshlarga kitob grafikasi, plakat va gazeta-jurnallar grafikasining sir-asrorlari o'rgatiladi. To'garakni katta o'qituvchi R.T.Ankabayev olib boradi. Ushbu to'garak qoshida “Kitob grafikasi” mini to'garagi faoliyat olib boradi. To'garakni yo'nalishimiz TSMG 20.1 guruh talabasi M.Mamatkarimova olib boradi.

“Amaliy san'at” to'garagida talaba yoshlarga yog'och o'ymakorligi, miniatyura, haykaltaroshlik sir-asrorlari o'rgatiladi. To'garakni katta o'qituvchi I.S.Marasulova olib boradi. Ushbu to'garak qoshida “Yog'och o'ymakor usta rassom” mini to'garagi faoliyat olib boradi. To'garakni yo'nalishimiz TSMG 19.1 guruh talabasi K.Karabayev olib boradi.

Ushbu to'garak qoshida yana "Kamoliddin Behzod izdoshlari" mini to'garagi faoliyat olib boradi. To'garakni yo'nalishimiz TSMG 18.1 guruh talabasi O.Tilapova olib boradi. Yana bir mini to'garak "Haykaltaroshlik" to'garagini yo'nalishimiz TSMG 18.1 guruh talabasi F.Mustafaqulova olib boradi.

"Kompyuter grafikasi" to'garagida talaba yoshlarga avto cad programma asosida me'morlik sir-asrorlari o'rgatiladi. To'garakni o'qituvchi B.B.Kokiyev olib boradi. Ushbu to'garak qoshida "Maket loyihasi" mini to'garagi faoliyat olib boradi. To'garakni yo'nalishimiz TSMG 18.2 guruh talabasi D.Jabborov olib boradi.

Ushbu to'garaklarga faqat yo'nalishimiz talabalari emas boshqa yo'nalish talabalari ham qatnashib kelishmoqda. Talaba – yoshlar hayotida, kasbiy mahoratining oshishida jumladan – Umumta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarida o'tiladigan mavzulari (miniatyura, amaliy san'at, kitob grafikasi) oliy ta'lim talabalariga ushbu fanlarning o'tilmasligining o'rini to'ldirishda yuqorida sanab o'tgan to'garaklarning o'rni beqiyos. To'garaklarga qatnashib kelayotgan talabalarimiz ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqda. To'garak qatnashchilarining ichidan Respublika ko'rik tanlovlari g'oliblari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi badiiy ijodkorlar uyushmasining yoshlar bo'limi a'zolari chiqmoqda.

"O'zini-o'zi shaxs, professional kadr sifatida shakllantirganlar"ning yo'li, bu – tirishqoqlikdir. Bu sifat bo'lmagan odamning muvaffaqiyatga erishishi mumkin emas. Muvaffaqiyatga erishish uchun, ehtimol, ko'p va og'ir sharoitda ishlashga to'g'ri kelishi mumkin. Bir qator namunali shaxslar – zo'r kadr, mohir pedagog, ijodkor muhandis, tadbirkor va millionerlar orasida tadqiqot o'tkazilganda, ularga "Siz nima uchun va qanday qilib muvaffaqiyatli bo'ldingiz?", degan savol berilgan. Ularning 85 foizi tamomila bir xil javob qaytargan: "Muvaffaqiyat hamisha mening hamrohim, negaki, men boshqalarga qaraganda ko'proq va zo'r berib ishlayman". Shuning uchun ishni boshqalarga qaraganda ertaroq boshlashga, ko'proq ishlashga va ishdan kechroq ketishga tayyor bo'lish kerak bo'ladi. "O'zini-o'zi millioner qilganlar" haftasiga 50-90 soat ishlashadi. Aksariyati 70-80 soat ishlaydi. Boshqacha qilib aytganda, haftasiga 40 soat ishlab. muvaffaqiyatli bo'lgan kishilar ham, ijodkor muhandis ham, kadrlar ham mavjud emas. 40 soatdan oshig'i – bu muvaffaqiyatga mablag' sarflash demakdir.

Talabalarining o'z ustida – ko'p, faol va astoydil o'qishi, o'rganishi, albatta, o'z samarasini beradi.

Talabalarining o'z ustida – ko'p, faol va astoydil o'qishi, o'rganishi ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg'unlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son Qarori 4-ilovasining 18-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida yoshlar bilan ishlash, ularda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi".*

2. *Sultanov X.E, Sobirov S.T, Xudaynazarova O., Anqaboyev R. "Yosh musavvir to'garagi". Uslubiy qo'llanma, Nizomiy nomidagi TDPU, –T. 2016-y.*

Botir BAYMETOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti professori,

O'zbekiston Badiiy akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi

EL SEVGAN IJODKOR RASSOM, MAKTAB YARATGAN MEHRIBON USTOZ

Annotatsiya

Maqola yetuk olim va ko'plab shogirdlarga ustozlik qilgan taniqli musavvir professor Malik Nabiyeving hayoti va ijodiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar. Rassom, ijodkor, ustoz, maktab, tarbiya, Malik Nabiye.

Статья посвящена жизни и творчеству профессора Малика Набиева, ведущего ученого и известного художника, обучившего многих студентов.

Ключевые слова. Художник, творец, учитель, школа, воспитание, Малик Набиев.

The article tells about the life and work of the famous artist, who trained many students, Professor Malik Nabiev.

Key words. Artist, creator, teacher, school, education, Malik Nabiev.

Barkamol inson va uning tarbiyasi haqida gap borganda yuksak madaniyat va ma'rifatga ega bo'lgan ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari, ilm-ma'rifat, san'atga bo'lgan chanqoqlik, farzand komilligi, uning tarbiyasiga naqadar e'tiborli bo'lganliklarini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, yoshlarda o'z Vataniga bo'lgan muhabbatni kamol toptirishda buyuk siymolarning bosib o'tgan hayot yo'llari, ilm ma'rifat, san'at sohalarda erishgan yutuqlarini yosh avlodga o'rgatishimiz muhim hisoblanadi. Zero, bilimli, yuksak intellektual salohiyatga ega farzandlar bizning kelajagimiz, buyuk ajdodlarimiz ishlarining davomchilari hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o'rin egallaydi".¹

Ma'lumki, turli yillarda barkamol ijod qilib hayotdan o'tgan taniqli rassom-ijodkor va pedagoglar O'rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov, Hikmat Rahmonov, Zokir Inog'omov, Rahim Ahmedov, Samig' Abdullayev, Mannon Saidov, Ne'mat Qo'ziboyev, Ro'zi Choriyev, Baxtiyor Boboyev, G'afur Abdurahmonov, Malik Nabiye kabi ulug', iste'dodli, musavvirlarimiz ham o'z paytida yoshlarga ustozlik qilib, saxiyliklari bilan nafosat gulshanini fayzlarga to'ldirishgan edi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining tasviriy san'at darslarida yoshlarga saboq berishda mazkur sohada faoliyat ko'rsatgan ulug' rassom va haykaltaroshlarning ijodlari bilan tanishtiriladi. Ularning so'nmas asarlari, jahonga mashhur tasviriy va amaliy san'at asarlari ozmi-ko'pmi tahlil qilinadi, o'rganiladi. Lekin, suhbat darslarida mazkur rassom va amaliy san'at ustalarining bosib o'tgan ijodiy yo'llari, hayotiy tajribalari

¹Shavkat Mirziyoyev 2017-yil, 24-iyun. "Xalq so'zi" gazetasi.

haqida yoshlarga yetarli ma'lumot berilmaydi.

Biz bugun sermahsul ijodkor, kamtarin pedagog, rassom Buyuk xizmatlari uchun ordeni sohibi, O'zbekiston badiiy akademiyasi akademigi, O'zbekiston xalq rassomi, professor Malik Nabiyeu haqida suhbat qilmoqchimiz. Ustoz Malik Nabiyeu 1916-yil Toshkent shahrida tavallud topgan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Badiiy grafika" fakultetining asoschilaridan biri, otaxon musavvir, dunyoning 40 ga yaqin mamlakatlarida ijodiy safarlarda bo'lib o'zining noyob asarlarini yaratgan akademik, O'zbekiston xalq rassomi Malik Nabiyeu ham butun umr Respublikamizda tasviriy san'atning rivoji uchun jonbozlik ko'rsatdi. U o'nlab ijodkorlarga o'zining bebaho maslahatlarini berib, nafaqat mashhur rassomligi bilan, balki mehribon pedagog murabbiyligi bilan ham mashhur bo'la olgan ustozdir.

Malik Nabiyeu ijod qilishdan va yaratgan asarlari haqida o'rtoqlashishdan erinmas va charchamas edi. Bir asar ustida ish olib borsalar ustaxonalariga kelgan har bir insonning (xoh u yosh bo'lsin yoki, tajribali rassom) fikr mulohazalariga quloq tutardi. Hatto, o'zlarining tarixiy asarlari "Amir Temur", "Bobur", "Ahmad al-Farg'oniy", "Sulton Ali Mirzo" va boshqa ko'plab portretlarini yaratishda hamkasblarining yoshi, mavqeidan qat'i nazar, barcha bilan o'rtoqlashardilar, aytilgan barcha maslahatlarni inobatga olardilar.

Yirik san'atkor Malik Nabiyeu yoshlari ulug' bo'lishiga qaramasdan, ilm bilan tarbiya bir-biriga bog'liq, hamma uchun foydali gaplarni shaloladek jo'shib gapirar, fikrlari quyulib kelaverardi. Ularning hammasi hayotdan, san'atdan, ijod tajribalaridan bir saboq edi.

Ustozning suhbatdoshida bo'lgan inson hurmati shunchalar kuchli ediki, mabodo orada so'z qo'shib gaplari bo'linib qolsa, quyilib kelayotgan purma'no so'zlari, fikrlari aziyat chekishini, aytmochi bo'lgan gaplarini unutib qo'ymaslik uchun, "Nima deyayotgan edim, eh, qarilik..." derdilar. Malik aka o'zlarining tarixiy asarlarining yaratilishi xususida zavq va shavq bilan gapirganlarida suhbatdosh his-hayajon, g'aroyib tasavvurlar bilan tinglardi. Ular turli janrda asar yaratish uchun bir qancha qadimgi kitoblar, tarixiy qissa, roman va dramatik asarlardan iloji boricha vaqt topib o'qib chiqardi, asarning mazmuni, qahramonlarining siymolarini tahlil etishdan erinmasdi.

Shoh asarlari "Abu Rayhon Beruniy", "Amir Temur" portretlarini yaratish uchun ular uzoq vaqt izlanganlar. Xalqimiz tarixi, urf-odatlarini yaxshi bilmaganlarni tanqid qilardi. Tanqid esa, rostgo'ylikni xush ko'rishi, haqqoniy bo'lishi kerakligini uqtirardilar, hayotdan olingan misollarni keltirib isbotlab berishga intilardilar.

Ustoz sakson besh yoshga to'lishlari munosabati bilan Respublika Badiiy akademiyasi markaziy ko'rgazma zalida bo'lgan suhbatda ustoz xotiralarni yodga olib shunday degan edilar: "1934-yili Respublika badiiy bilim yurtida ikkinchi kursda o'qib yurardim. Toshkentning "Sebzor" dahasidagi 15 son yetti yillik maktabda tug'ma qobiliyat sohibi, ustoz rassomlarimizdan Bahrom Hamdamiy 1910-1943 (ikkinchi jahon




**Amir Temur portreti.
Malik Nabiyeu. 1996-yil**

urushida vafot etgan) rasmdan dars berardilar. Bir kuni vaqtlari ziqligi tufayli o'rnilariga dars berishimni aytib qoldilar. Avvaliga yuragim dov bermadi-yu, ustoz gaplarini ham ikki qilgim kelmadi. Menga nisbatan bo'lgan ishonchlarini oqlashni shogirdlik burchim deb hisobladim. Sentabrdan dars bera boshladim. Bu muallimlik faoliyatimning boshlanishi edi. 5-7-sinflarga rasmdan saboq o'tarkanman, dilimda quvonch jo'sh urardi. Bolalar surat chizishga juda qiziqishardi. Talaba ekanligimni ham unutib, o'zimni rasm o'qituvchisi deb bilardim. 1937-yili Toshkent badiiy bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgan Malik Nabiyezni dars berish uchun shu joyning o'zida olib qolishdi. Qalamtasvir va rangtasvirdan dars bera boshladi.

1934-yili “Mushtum” jurnali tahririyatiga yo'lim tushdi, deb eslaydi domla. Meni bu yerga taniqli hajvchi rassom Vohid Odilov boshlab keldi. U chizgan rasmlar jurnalda tez-tez chiqib turardi. Muharrir G'ulom G'ofurov huzurida bo'lganimizda yozuvchi Abdulla Qodiriy xonasiga kirishimizni, topshiriqlar olishimizni aytdi. Jurnaldagi barcha rasmlar u kishi orqali qabul qilinarkan. Abdulla Qodiriy o'ychan, sinchkov, jiddiy boquvchi inson ekanligini payqadim. U kishi bizni yaxshi kutib oldi. Tezda maqsadga o'tib, zamon talabiga ko'ra topshiriqlar bera boshladilar. Shundan so'ng turli mavzularda rasmlar chizib, Abdulla Qodiriyga ko'rsatdim.

Ular tasviriy san'atga ancha-muncha tushunar ekanlar. Shu yilning o'zida o'zim qiziqqan mavzuda temir yo'lchilar hayotidan “Mashinist oilasi” mavzusidagi kompozitsiyam jurnalda bosilib chiqdi. Yozuvchi, men hali yosh, endigina o'n sakkizda bo'lganim uchun, musavvirlik qobiliyatimni sinab ko'ribdilar. Nimaga qiziqishimni bilibdilar. Abdulla



**Zahiriddin Muhammad Bobur portreti.
Malik Nabiye. 1992-yil**

Qodiriy bilan ko'rishish, suhbatlashish na-faqat ijod qilishimga, ishimning tarbiyaviy tomonlariga ham katta yordam berdi.

Keyinchalik, ustoz uncha katta bo'lmagan, “Abdulla Qodiriy” portretini yaratdi. Adabiyot darsligiga mo'ljallangan bu asarda yozuvchini rassom qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlashga harakat qilgan. Hech qanday qo'shimchalar yo'q. O'sha o'ychanlik, o'sha jiddiy boqishlar portretda o'z aksini topgan.

Murabbiy musavvir bo'lish tinmay o'qib-o'rganishni, keng dunyoqarashga ega bo'lishni talab etardi. Malik Nabiye oliy maqsad yo'lida mo'yqalamini bir nafas ham tindirmay, o'qishdan, izlanishdan erinmay mehnat qildi, bu sohadagi ishlari ko'pchilikka ma'qul bo'ldi va u 1938-yilda O'zbekiston rassomlar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi.

Ustoz o'z ustida juda ko'p ishlaydigan mehnatkash edi va umr bo'yi ijod bilan yashadi. Uning uchta ijodxonasi bo'lib, biri subhidamdan tushgacha ijod qiladigan joylari kun chiqish tarafga qurilgan. Ikkinchisi qo'sh qavat uyning ikkinchi qavatida bo'lib, g'arb tarafga qurilgan. Hovlida qurilgan ushbu ijodxonaga bir necha zinalardan chiqilardi. Quyosh peshindan og'ganda Malik aka oyoq chigallarini yozib, shu zinapoyalardan ko'tarilib, Allohga shukronalar aytib,

ilhom va hayajonlarga to'lib shu xonada har tomonni tomosha qilib, shomgacha ijod bilan band bo'lardilar. Ustozning uchinchi ijodxonasi "Badiiy grafika" fakultetning uchinchi qavatida joylashgan edi. Mazkur ustaxonada ustoz talabalarga ham dars o'tardi, ham darsdan bo'sh vaqtda ijod bilan shug'ullanar edi. Respublikada tasviriy san'at sohasida hech bir inson yo'qki, ushbu ustaxonaga kelib Malik Nabiyevdan maslahat olmagan bo'lsin. Ustoz umrining oxirlarida ham shu ijodxonalaridan chiqqani yo'q.

El yurt hurmatini qozongan Malik Nabiev asarlarining soni mingdan ortiq. U o'z asarlarida xalqimizning chin insoniyliklari, odob-axloqi-yu, mehnatkashligini tasvirlagan. Uning har bir chizgisidan tortib, ranglarigacha tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Asarlari ta'limning barcha bosqichlariga daxldor bo'lgan o'quv fanlar; tarix, adabiyot, tibbiyot, tabiyot, jug'rofiya, astronomiya, odam anatomiyasi bilan bog'liq bo'lib, yoshlarni ilm olishiga ko'mak beradi. Shu sababli, ko'pgina darsliklarda musavvir asarlarining fotoreproduksiyalari, suratlavhalari uchraydi. O'zbek tasviriy san'ati tarixida Malik Nabiyev yaratgan "Al-Beruniy", "Al-Xorazmiy", "Ibn Sino", "Al-Roziy", "Ahmad Farg'oniy", "Amir Temur", "Mirzo Ulug'bek", "Bobur" portretlari, "Muqanna qo'zg'oloni", "Spitamen qo'zg'oloni" kabi murakkab kompozitsiyali kartinalari va boshqa o'nlab yetuk grafik asarlarni sanab o'tish mumkin.

Professor Malik Nabiyev o'z sohasining bilimdon olimi ham edi. Ularning uzluksiz ta'lim tizimi uchun tasviriy san'atni o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ko'plab darslik va o'quv-qo'llanmalaridan bugungi kunda ham foydalanilmoqda.

Ustozning mehnatlari yuksak qadrlangan. Ayniqsa, uning xizmatlari Respublikamiz o'z Mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng qadrlandi. Bu yillarda ustoz O'zbekiston Xalq rassomi faxriy unvoni sohibi bo'ldilar (1992-yil 28-avgust). Shuningdek, 1997-yilning avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan, Mustaqillikning 6 yilligi munosabati bilan "Mehnat shuhrati" ordeni (1995-yil 6-may), "1941-1945-yillardagi ikkinchi jahon urushda fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 50 yilligi" ko'krak nishoni va "Shuhrat" medali bilan (1995-yil 10-aprel), bilan mukofotlandilar, 1997-yil 2-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining Faxriy a'zosi etib tasdiqlandilar, 2000-yil 28-avgustda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan, mustaqillikning 9 yilligi munosabati bilan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanganlar.

Insonning halol mehnati qaysi zamonda bo'lmasin, namoyon bo'laveradi. Mustaqillik murabbiy musavvirni yanada yoshartirib yubordi. Xalqim, Vatanim deb yashayotgan Malik Nabiyev yelkasiga oftob tegdi, dilida armon bo'lib qolgan orzu-umidlari ushaldi. Uning haqiqiy musavvirliги tan olinib, O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi degan unvonlar berildi.

Bugungi kunda tasviriy san'at sohasida o'rta umumta'lim maktablari, maxsus maktab-kollejlar va oliy o'quv dargohlarda dars berib kelayotgan yoshu-keksa o'qituvchilar ustoz Malik Nabiyevning davomchilari hisoblanadilar. Ular domladan olgan saboqlarni yosh avlodni yuksak badiiy didli insonlar bo'lib yetishishlarida salmoqli mehnat qilib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Shavkat Mirziyoyev* 2017-yil, 24-iyun. "Xalq so'zi" gazetasi.
2. *Botir Boltabayevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Solid State Technology. 2020/2/29. Vol. 63 № 2 (2020). Pp.224-231.*

Svetlana ATAXANOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at" kafedrasi o'qituvchisi

CHIZMA GEOMETRIYA VA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Chizma geometriya va chizmachilik" fani bo'yicha talabalarga mashg'ulotlarni o'tuvchi o'qituvchilarning kasb mas'uliyatlari, imkoniyatlari va majburiyatlari haqida, shuningdek, zamon talabidan kelib chiqqan holda, "Chizma geometriya va chizmachilik" fanini o'qitishda o'qituvchilarning hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan vaziyatga moslashuv uchun zarur bo'lgan tadbirlar haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Chizma geometriya, chizmachilik, o'qituvchi, pedagogika, kompyuter grafikasi, kompetentlik, zamonaviylik, kasbiy mahorat.

В данной статье освещаются размышления о профессиональных обязанностях, возможностях и ответственности педагогов, проходящих обучение у студентов по дисциплине "Начертательная геометрия и черчение", а также о мероприятиях, необходимых для адаптации педагогов к текущей динамично развивающейся ситуации в преподавании дисциплины "Начертательная геометрия и черчение", исходя из требований времени.

Ключевые слова. Начертательная геометрия, черчение, преподаватель, педагогика, компьютерная графика, компетентность, современность, профессиональное мастерство.

This article highlights reflections on the professional duties, opportunities and responsibilities of teachers studying with students in the discipline "Descriptive geometry and drawing", as well as on the activities necessary to adapt teachers to the current dynamically developing situation in teaching the discipline "Descriptive geometry and drawing", based on the requirements of the time.

Key words. Descriptive geometry, drawing, teacher, pedagogy, computer graphics, competence, modernity, professional skills.

Oliy ta'lim muassasalarida "Chizma geometriya va chizmachilik" fanini o'qitishdagi yuqori sifatga erishishning muhim sharti, bu o'qituvchining pedagogik va kasbiy mahorati hisoblanadi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchiga qanday talablar qo'yiladi. Hozirgi vaqtgacha pedagogikaga oid ko'pchilik muammolar tadqiqot mavzusi bo'lmagan va pedagogik jamoatchilik tomonidan muhokama etilmagan. Pedagogning mutaxassis sifatida, kasbiy tayyorgarligi haqidagi zamonaviy tasavvurlar, uning kompetentligi bilan bog'liqdir.

Kasbiy jihatdan kompetentga ega o'qituvchi sifatida, psixologik - pedagogik va kasbiy bilimlarga ega bo'lgan va o'zining kasbiy pedagogik faoliyatini yuqori darajada amalga oshiruvchi, innovatsiyalarga beriluvchan, ham ilmiy, ham muhandislik o'zgaruvchan kasbiy muhitga tezda moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarni atash mumkin bo'ladi.

Boshqacha aytganda, "Chizma geometriya va chizmachilik" fani o'qituvchisi, birinchi navbatda, muhandis bo'lishi va tug'ma pedagogik qobiliyatiga ega bo'lish bilan birga novator ham bo'lmog'i kerak.

Amaliy va psixologik – pedagogik tadqiqotlar tahlili shunday xulosalarni chiqa-

rishga imkon beradiki, o'qituvchilarning ko'pchiligi kasbiy – pedagogik mahoratning nima ekanligi va unga erishishning yo'llari haqida tasavvurga ega emaslar. Ularning aksariyati qoliplangan, ya'ni bir xil andazada, talabalarga doimo bir xilda bo'lgan o'qitish tizimida ta'sir etishni afzal ko'rmoqdalar.

“Chizma geometriya chizmachilik” fani bo'yicha o'qitadigan boshlovchi o'qituvchilar uchun psixologik va pedagogik bilimlarning zaruriyati to'g'risida ko'p gapirilmoqda va yozilmoqda, lekin ko'pincha o'qituvchidagi psixologik va pedagogik bilimlarning yetarli emasligi kuzatilmoqda. Shunday qilib, o'qituvchilik faoliyatini pedagogik yo'nalishga ega bo'lmagan shaxs tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitishda talabalarning psixologik xususiyatlarini, o'quv jarayoni psixologik va didaktik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi, lekin bular texnikaviy yo'nalishdagi mutaxassis uchun pedagogik nuqtayi nazardan yetarli darajada shakllanmagan.

Boshlovchi o'qituvchilardagi bunday kamchilikni bartaraf etish uchun, ularni faol shakldagi malaka oshirishga jalb qilinmog'i lozim, shuningdek ularni eng tajribali o'qituvchilarga birlashtirish lozim. Bunda boshlovchi o'qituvchilar shaxsiy tayyorgarlik jarayonida, tajribali hamkasblarining mashg'ulotlariga qatnashib, ularning tajribasini olsin.

Bundan tashqari ular tajribali o'qituvchilardan maslahatlar olish jarayonida, o'quv fanini chuqur o'zlashtira boradilar, mashg'ulotni o'tishga tayyorlanadilar va o'tkazadilar, bu mashg'ulotlarning o'tilish uslubi kafedra yig'ilishida muhokama etiladi. Boshlovchi o'qituvchilarga o'quv fanining 12 -16 soati hajmida, ma'lum bir mavzudagi ham ma'ruza, ham amaliy mashg'ulotlarni tayyorlashni topshirish kerak. Boshlovchi o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha 2-3 ta ma'ruza va 4-5 ta amaliy mashg'ulotlarni o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashg'ulotlarning barcha kompleksini tayyorlashda, boshlovchi o'qituvchi mavzuning o'quv fanidagi o'rnini va undagi mashg'ulotlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini tushunib yetadi. U bu mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy adabiyot va hujjatlarni tayyorlay oladi va kafedrada shu mavzuning o'qitilish uslubini anglab yetadi va mavjud bo'lgan o'qitish vositalarini tahlil qila oladi.

O'qituvchi – yo'riqchi (uslubchi), kafedra mudiri yoki uslubiy hay'at kengashi tomonidan, boshlovchi o'qituvchi tayyorlagan ishlanmalarning muhokamasi, ishlanmalardagi aniqlangan kamchiliklarini ko'rishga va ularni bartaraf etishga hamda o'qituvchining mashg'ulotni o'tishga tayyorgarlik darajasini baholashga yordam beradi.

Talabalar bilan auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazishdan oldin, bu mashg'ulotlarning hech bo'lmaganda, bir qismini o'tib berish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotlar kompleksini birinchi marta o'tilganda, har bir mashg'ulotni sinchiklab muhokama qiluvchi o'qituvchi – yo'riqchining ishtiroki maqsadga muvofiqdir. Birinchi marotaba urinish muvaffaqiyatli bo'lganda va uncha ko'p bo'lmagan kamchiliklar aniqlanganda, ikkinchi marta mashg'ulotni mustaqil o'tkazishni, o'qituvchi – yo'riqchining ishtirokisiz, boshlovchi o'qituvchining o'ziga topshirish kerak, bu o'qituvchiga o'zining xatolarini anglab yetishga va ularni tuzatishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, uchinchi bor mashg'ulotni o'tishda, kafedradagi boshqa tajribali o'qituvchilarning ishtiroki bo'lishi kerak. Bu esa mashg'ulotni muhokama qilishda tug'ilgan turli xil fikrlarni inobatga olishning imkonini beradi va bunda uslubiy tajribaning barcha qirralari namoyon bo'ladi. Bunday tajriba boshlovchi o'qituvchining o'ziga ishonchini orttiradi, kafedra esa o'qituvchining mashg'ulotni sifatli o'tganiga ishonch hosil qiladi va o'qituvchiga nimalarda aniq yordam berishni tashkil qilish mumkin bo'ladi.

O'qituvchi kasbiy mahoratining rivojlanishi va uning tegishlicha yuqori darajasiga erishish uchun, uning mustaqil o'z ustida samarali ishlashi, ya'ni bilimini orttirishi,

ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish bo'yicha uslubiy ishlar muhim ahamiyatga ega-dir. Bunday tadbirlar sistematik ravishda doimiy davomiylikda bo'lib turishi maqsadga muvofiqdir. Ma'ruza mavzusining kontekstida G. Selening quyidagi fikri juda muhimdir: "Imkoni yetmaydigan muammolarni hal qilish uchun ortiqcha darajada urinish kerak emas. Har bir insonga xos o'zining yuqori cho'qqisi bo'ladi. Birovlar uchun bu cho'qqi maksimum darajada bo'lsa, boshqalar uchun esa inson imkoniyatining minimum darajasida bo'lishi mumkin.

Ammo, inson o'zining tug'ma qobiliyati doirasida yuqori mahoratga intilmog'i kerak. Mukammallikka intilish kerak emas, unga yetib bo'lmaydi. Uni o'ziga maqsad qilish, oldindan ortiqcha stressga yo'liqish va muvaffaqiyatsizlikka yuz tutmoqni anglatadi. Yuqori mahoratga erishish – juda yaxshi maqsaddir, shu bilan birga u yaqin odamlarning hurmati, olqishi hattoki muhabbatini olib keladi".

Sanoat va ishlab chiqarishning zamonaviy axborotlashuvida, loyiha – konstruktorlik hujjatlarini bajarish jarayonidagi texnologik usullar keskin darajada o'zgardi. Chizmalarni qo'lda bajarish texnologiyalari yanada ilg'orroq bo'lgan avtomatlashtirilganlari bilan tezlikda almashmoqda. Shunga qaramay, bo'lajak o'qituvchi va muhandis tasvirlarni bajarishning nazariy asoslarini va fazoviy obyektlarni grafik jihatdan taqdim etish usullarini, hayot (konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi)ga tegishli me'yoriy hujjatlarni – standartlarni, loyiha – konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish, bajarish, rasmiylashtirish va o'qishni bilishi kerak. Mashg'ulotlarda talabarga bo'lajak mutaxassislikka oid bilim berish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Chizma geometriya va chizmachilik" fani bo'yicha zamonaviy o'qituvchi, kompyuter grafikasiga (kompyuter chizmachiligiga) bevosita aloqador bo'lgan avtomatlashtirilgan loyihalash tizimining (AVTOLOT) u yoki bu dasturini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday dasturlarga AutoCAD, AutoCAD INVENTOR, КОМПАС 3D, 3D Studio MAX va boshqalarni kiritish mumkin.

Biz talabalarning grafik jihatdan madaniyati va uning shakllanishi to'g'risida ko'p gapiramiz, lekin shuni esga olish joizki, o'qituvchining grafik jihatdan madaniyati va grafik jihatdan bilimdonligi deganda shu tushunchalarning o'qituvchi tomonidan yuqori darajadagi o'zlashtirilganligi nazarda tutiladi.

"Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fani o'qituvchilari uchun yana bir alohida jihat shundan iboratki, bu ulardagi yaxshi rivojlangan fazoviy tasavvur etish qobiliyatining mavjudligidadir. Bu jihat o'qituvchining kasbiy jihatdan yaroqliligi va uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan omillardan biridir.

O'qituvchining faoliyatini baholash, bizningcha, quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- mashg'ulotni o'tishning tashkiliy – uslubiy nuqtayi nazari bo'yicha;
- kommunikativ madaniyatning rivojlanish darajasi bo'yicha;
- o'qituvchining faoliyatini axloqiy tomondan samarali ta'minlovchi kasbiy jihatdan muhim o'rin tutgan xususiyatining mavjudligi va uning o'rganuvchilar bilan o'zaro munosabatlari bo'yicha.

O'qituvchi ishining sifati, uning tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlarga jamoa bo'lib kirish natijalari va ularning kafedra kengashidagi muhokamalari bo'yicha, hamda pedagogning ilmiy – tadqiqot ishlarining tahlili bo'yicha baholanishi lozim. O'qituvchi faoliyatining bahosini chiqarish, kafedra mudiri va o'qituvchi bilan birga ishlaydigan hamkasblar guruhi tomonidan amalga oshirilmog'i kerak. Bunday vaziyatda, tashqi ekspertizaning qatnashuvi ham zarurdir.

Shunday qilib, "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrası o'qituvchilari tarkibini tayyorlash darajasi holati, qat'iy ravishda, ularning pedagogik mahoratini oshirish ishidagi yangi yondashuvlarni talab qiladi. Yangi yondashuvlar haqida gapira turib, shuni ta'kidlash joizki, bunda hamma vaqt ham hali hech kim tomonidan sinab ko'rilmagan yangilikni joriy etib bo'lmaydi. Muammoni hal qilishni, avvallari o'zini yaxshi tomonidan ko'rsatgan va keyinchalik unutilgan uslubiy ishlar shaklida ko'rish mumkin. Faqat oldingilarni yaxshi o'rganish bilan, hozirgi shakllangan muammoning sabablari haqida mulohaza yuritish va nihoyat, "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fani o'qituvchilarini tayyorlashning eng maqbul va eng munosib yo'lini topish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilish mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlab o'tish joizki, talabalarni o'qitishda ma'lum bir qabul qilingan qat'iy andazaning bo'lishi mumkin emas. Turli toifadagi o'qituvchilarda bo'lgan o'qitish usullari turli xil natija berishi ehtimoldan holi emas. O'qituvchining esa muammolari juda ko'p, eng muhimi shundaki, u talabalarga o'zining yordamini ayamasligi va ularning mehrini va ishonchini qozonishi shart deb qaraladigan nuqtayi nazar muhimdir. Yanada muhimrog'i esa, zamonaviy o'qituvchi zamon talabiga mos holda, doimiy ravishda, to'xtovsiz o'zining ustida ishlashi, bilimini oshirib va boyitib borishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'rinbayevna A. S., Mukhamatsultonovna M. I., Sergeevich P. D. (2020). *Psychological and pedagogical problems of spatial thinking development in drawing lessons. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (1) Part II, 1-5.
2. O'rinbayevna A. S. (2020). *Descriptive geometry and modern possibilities in the process of studying it. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (11), Pp.90-94.
3. Eraliyevich S. X., Orinbayevna A. S., Shavkatovich X. R. (2020). *The importance of exhibitions and competitions in organizing fine art clubs in schools. Journal of Critical Reviews*, 7 (15), Pp.2519-2523.
4. Атаханова С. О. (2020). "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanini o'qitishda modul-kredit tizimining imkoniyatlari. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), Pp.1022-1034.
5. Atakhanova Svetlana Ornbayevna, Chubarova Galina Andreevna (2020) *Improving the quality of teaching draft geometry in universities. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (12), Part III, 148-151.
6. Атаханова С.О., Чубарова Г.А. (2020). *Повышение качества преподавания начертательной геометрии в вузах. Maktab va hayot №2*, С. 22-23.

Mavluda ACHILOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATDA IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada tasviriy faoliyat orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqariishi haqida fikr yuritilgan. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish orqali estetik, badiiy, axloqiy didni oshirish tevarak-atrofga bulgan tasavvur va dunyoqarashlarni shakllantirishda tashqi va ichki muhit kabi omillar xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Tevarak-atrof, tafakkur, muhit, jarayon, shakllanish, omil, tushuncha, odat, tasavvur, dunyoqarash, muloqot.

Статья посвящена выявлению и развитию способностей и потенциала детей с помощью визуальной деятельности. В частности, на формирование эстетического, художественного, нравственного вкуса через развитие дошкольников влияют такие факторы, как внешняя и внутренняя среда, на формирование представлений и мировоззрений.

Ключевые слова. Окружение, мышление, среда, процесс, формирование, фактор, понятия, привычка, воображение, мировоззрение, общение.

The purpose of the article is to identify the abilities and capabilities of children through visual activity, to formulate them correctly and to reveal them. In particular, factors such as the external and internal environment serve to form images and worldviews that surround the development of aesthetic, artistic, and moral tastes through the development of preschoolers.

Key words. Environment, thinking, environment, process, formation, factor, concepts, habit, imagination, worldview, communication.

Har bir shaxs ijodiy faoliyati va ijodiy qobiliyat namoyish qilish mahoratiga ega. Ammo bu ba'zi hollarda amalga oshmay qoladi. Bolaligida, har bir kishi o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat izlaydi, lekin odatda, atrofdagi yaqinlari va hamrohlari tufayli ko'p hollarda media qarshilik uchrashadi. Agar bola yoshligida ijodiy tajribasini oshira olmasa, u holda bu kelajakda mustaqil o'zini namoyish etishga ishonch yetishmasligiga sabab bo'ladi. Chunki inson aynan ijodiy faoliyat orqali ko'proq o'zini namoyon qilishi mumkin. Ijod har bir insonga o'z yaxlitligini anglash tajribasini beradi. Bu uning ichki dunyosi, uning intilishlarini va tajribalarini aks ettiradi. V.V. Davidov fikricha "Ijod-bola rivojlanishini normallashtiradi va doimiy hamroh hisoblanadi".

Ijod jarayonida aynan tashxislash (diagnostika) "o'z-o'ziga hurmat", "o'z qobiliyatlari va o'ziga ishonch", "yosh va individual xususiyatlarini aniqlash", "har bir bola qiziqishlari", "ijtimoiy vaziyat rivojlanishi", "bolalarning o'zaro bir-biri bilan hamkorligini", "mustaqil tashabbusi qobiliyatini" aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalar xususiyatlarini standart belgilab beradi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimli talablar xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolaning ta'limdagi muayyan yutuqlarini belgilab beradi. Bola ruhiy dunyosining shakllantirishning asosiy vositasi san'atdir: adabiyot, musiqa, haykaltaroshlik, xalq ijodiyoti, rassomchilik. San'at obrazli til bilan gapiradi, u ko'rgazmali bu esa maktabgacha yoshdagi bolaga yaqin. Shuni

qimmatliki, u hayotga falsafiy munosabatni uyg'otadi. Bunda A.A. Blokning so'zlarini eslamasdan bo'lmaydi: "San'at ko'rishga va qarashga o'rgatadi (bu har; hil narsa va kamdan kam bir-biriga mos keladi). Shu tufayli san'at tirik va tegilmagan qilib shunday his tuyg'u bilan faqat bolalar farqlanadi".

Inson shaxsini shakllanishga, uning rivojlanishiga san'atning ta'siri nihoyatda katta. Estetik ma'lumotli odamlarni tarbiyalamay, bolalikdan insoniy qadr-qimmatga hurmat tarbiyalamay, san'atni tushunish va qadrlay bilishga, bolalarda boshlang'ich ijodni uyg'otmay turib yahlit garmonik rivojlangan va ijodiy faol shaxsni shakllantirib bo'lmaydi. Bola shaxsining shakllanishida axloqiy tarbiyasida emotsional rivojlanish ahamiyati kattadir. B.A. Suxomlinskiy yozgan edi: "Bolalik davrida fikrlash jarayonlari iloji boricha tevarak olamning jonli yorqin ko'rgazmasi predmetlari bilan yaqindan aloqada bo'lishi kerak... idrokning emosional boyligi – bu bola ijodining ruhiy quvvati". San'at maktabgacha yoshdagi bolalarda emosional badiiy asosni uyg'otadi. Rassomchilik yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat go'zalligini tushunishga o'rgatiladi. Bundan tashqari, bolalarni janrli rassomchilik bilan tanishtirish ularda maktab yoshida qimmatli orientasiyani shakllantirishning boshlang'ich asosini yaratish imkonini beradi. Masalan, yoqqan rasmga, unda tasvirlangan odamlarga, tabiatga, predmetlarga o'zining shaxsiy munosabatini bildirib olish, polotnoda tasvirlangan yoki real hayotda bolalar kuzatayotgan hodisaga qiyosiy baho berish.

O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda tasviriy san'atning ahamiyati:

Axloqiy. Bolalarni janrli asarlar bilan tanishtirib tarbiyachi ularning oldida atrof-olam rasmini ochib chiqadi: kundalik hayot, odamlarni turli faoliyat sohasidagi mehnati (oilada, qurilishda, dalada, fabrikada, maktab sinfida, meditsina xonasida va boshqalar). Bu rasmda tasvirlangan omadlar, predmetlarni tushuntirish bilan cheklanmay, balki rassomning mehnatini, ahamiyatini, uni kasbini o'ziga hosligini ochib chiqish kerak. Rassomni bu rasmni yaratishga nima sabab bo'lganligi haqida gapirib berishi kerak.

Rasmni ko'zdan kechirishda va analiz qilishda bolalarni asar mazmunida o'zaro munosabatlarni o'rnatishga o'rgatiladi. Bola polotnoda nimani ko'rganigacha javob berish emas, balki nima uchun rassom rasmni aynan shu mavzuga bag'ishladi, o'ylagan narsaning mazmunini ochib berish uchun qanday ifodalilik vositalardan foydalanganligini ham tushuntirib olishi kerak.

Nutqning rivojlanishida rassomchilik alohida ahamiyatga ega. Bola nutqi – asar mazmunini u qanchalik tushinganligining ko'rsatgichi. Intonasion bo'yokdan mahrum qilingan nutq bolada emotsional tasirchanlikni uyg'otmaydi, u bolaning faqatigan sana'tning tushunishini ratsional, mantiqiy fikrlash darajasidagina aks ettiradi. Asarning o'zida esa ratsional va emotsional o'zaro aloqa yotadi. Shundan kelib chiqib asarni tushunish emosional va ratsional birlik asosida ro'yobga chiqishi kerak, bu esa tarbiyachi va bola nutqini belgilaydi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida poetik tilning ifodali vositalaridan keng foydalaniladi: obrazli taqqoslashlar, odamlarning axloqiy sifatlarini bildiruvchi so'zlar, bularni bolalarning passiv va faol lug'atiga kiritib, shuningdek, spisefik tasviriy terminlar – sovuq va iliq ton, rangli dog'larni, rasm rejasi va boshqalar. Rassomchilik yordamida katta maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy faoliyati ham rivojlantiriladi: tahlil qilish, asosida umumlashtirishni bilish, taqqoslash va tushuntirish, ichki nutqini rivojlantirish. Ichki nutqni rivojlantirish katta ahamiyatga ega? U bolaga o'z fikrlarini rejalashtirishga va fikrni bildirishga, rassom o'ylarini idrok qilish natijasida yuzaga kelgan aqliy bog'lanishlarning (asosiyalarining) namoyon bo'lishiga yordam beradi, bu orqali san'atning badiiy idrok

qilishning boshlang'ich asoslarini quradi.

Tarbiyaviylik. Bolalarni tasviriy san'at asarlarini to'laroq tushinishi tarbiyachiga ularda faqatgina rassomchilikka qiziqishini rivojlantirish emas, balki alamni bilishni boshlang'ich asoslarini shakllantirishga ham yordam beradi.

San'at turli xis tuyg'ularni tarbiyalashga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi.

Bu yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim maskanlarida o'tiladigan “Tasviriy faoliyat” mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari qatori applikatsiya turi ham bolalarda go'zallikni bilish uchun borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan badiiy faoliyatning har bir turi ham umumiy estetik ta'sirdan tashqari o'zining maxsus ta'sir kuchiga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan “Tasviriy faoliyat” o'z tarkibiga ko'ra quyidagi mashg'ulot turlaridan iborat: “Rasm chizish”, “Plastilin (loy) bilan ishlash”, “Applikatsiya” hamda “Qurish-yasash” mashg'ulotlari. Bularning har biri bolalar tasavvurlarida atrof-olamning aks ettirish imkonini beradi. “Tasviriy faoliyat” mashg'ulotlarida applikatsiya bo'yicha bajariladigan topshiriqlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'limi va tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni shaxsiy sifatlarini, psixologik va estetik imkoniyatlarni rivojlantirishga undaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglar, bolalarning ota-onalari ularni faqat maxsus ishlab chiqilgan tizim asosida va metodik qo'llanmalar orqali maqsadga yo'naltirishlari lozim. Bunda bolalarni atrof-muhitdagi narsa va hodisalarni anglash, ularga elementar tarzda estetik munosabat bildirish, ulardan olingan tasavvurlarni o'z faoliyatlariga tatbiq etishga bosqichma-bosqich o'rgatib borish, ularni maktab ta'limiga tayyorlab borishning samarali vositalaridan biri ekanligi ham ijtimoiy-pedagogik mohiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat orqali bolalarda aqliy rivojlanish, badiiy did va ijodkorlikni tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi go'zalliklardan zavqlana bilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Aynan shu omillar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan har qanday ta'limiy va tarbiyaviy ishlar, jumladan, “Tasviriy faoliyat”ning applikatsiya turi muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Zero, “Tasviriy faoliyat” mashg'ulotlarining tasviriy faoliyatning har bir turi bolalarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni shakllantiradi va boshqa insoniy fazilatlarni tarbiyalash imkonini beradi. Bunday fazilatlarsiz ijtimoiy faol shaxsning shakllantirib bo'lmaydi.

Ijodkorlikka qiziqishning eng oddiy ko'rinishlari aynan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda namoyon bo'la boshlaydi. Lekin bolalarning ijtimoiy-kommunikativ tajribasi etarli bo'lmaganligi bois, bunday holatlar epizodik tarzda yuzaga kelsa, tajriba to'plab borish jarayonida olamni anglashga intilish, muayyan bilimlarni egallashi natijasida kreativlik aniq mazmunga ega bo'la boshlaydi. Bu ko'rsatgich bolalarning ijodiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni maktabgacha yoshidagi bolaning ko'p hollarda primitiv tarzda kechadigan ijodiy faoliyat, ayniqsa, ularning tasviriy faoliyati asta-sekin muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda mazmun va mohiyat kasb etib boradi. Ijodkorlik ko'nikmalarining shakllana borishi esa ularning mashg'ulot jarayonidagi faol-

liklarida namoyon bo'ladi. Faollik – bu amaliy faoliyatda namoyon bo'luvchi ish bo'lib, predmet, buyum va narsalarning shakli, mohiyati va makonda joylashgan holatlarini tezda ilg'ab olishga o'rgatuvchi omillardan biridir. U nafaqat atrof-olamni o'zlashtirish, balki shaxsning o'zligini namoyon qilishga qaratilgan faoliyatdir. Ishning toza, puxta bajarilganligi nafaqat tartiblilikka bog'liq, balki qalam, mo'yqalamdan foydalanish mahoratini o'zlashtirishga ham bog'liqdir. Tasvirlash, chizish texnikasi bo'yicha mahoratlara bola qo'llari rivojlanganliklari bilan bog'liq bo'lgan muvofiqlashtirish, aniqlik, ohistalik, harakatlarning erkinligi va h.k. lardan iboratdir.

Ijod – bu badiiy ifodalash shakli bo'lib, bola shaxsining rivojlanishi va bolalik tajribasida muhim omil sanaladi. Turli shakllardagi o'z tasavvur va ijodlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lgan bolalar milliy ma'naviy meros va madaniyatni hurmat qilishga o'rganadilar. Bola o'z hissiyotlarini musiqa, teatr, tasviriy faoliyat va boshqalar orqali ifodalashni o'zlashtiradi. Rassomlik sohasida Rafael Santining ijodiy qobiliyati sakkiz yoshida, Mikelandjeloda o'n uch yoshda, I.E. Repin bilan V.A. Serovda to'rt yoshda, V.I. Surikovda olti yoshda ko'rinda boshlagan. Igor Grabar o'zi haqida: "Rassomlikka necha yoshda havas qo'rganligimni eslay olmayman, ammo rasm solmagan vaqtimni xotirlay olmayman", – deydi. A.V. Zaporozhes, V.V. Davidov, N.N. Poddyakovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida predmet bolalarning hissiy faoliyati jarayonida applikasiya ham bolalarga hodisa va predmetlarning xususiyatlarini alohida ko'rsatishda, predmet va hodisalar o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatishda, ularni bajargan ishlarida obrazli shaklda aks ettirishga qodir ekanliklari isbotlangan. Bu jarayon, ayniqsa, turli amaliy faoliyat turlarida seziladi.

Xulosa qilib aytganda, taqqoslash va solishtirishning umumlashgan usullari shakllanadi, ijodiy masalalarni yechish usullarini mustaqil topish mahorati, o'z faoliyatini rejalashtirish mahorati yanada rivojlanadi. Olimlar ijodga tabiiy va sotsial olamni bilish va o'zgartirish bo'yicha insonning yuksak darajasi sifatida qaraydi. Ijodiy faoliyat jarayonida insonning o'zi ham o'zgarishi juda muhim (fikrlashning shakli va usullari, shaxsiy sifatleri, u ijodiy shaxsga aylanishi) hisoblanadi. Ijod – tadqiqotlarning yangi predmeti emas. U doimo olimlarning va mutaxassislarining e'tiborini jalb qilgan. Keng ma'noda ijod – bu biron bir yangi, takrorlanmaydigan foydali omilni hosil qilishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Shuning uchun ijodning asosiy ko'rsatgichi uning natijasidagi yangilik, ya'ni ijodiy faoliyat yangiligidir. Bunda esa obyektiv xarakterga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturi.* –T., 2016-yil.
2. *Sabirova D.T.. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish. (13.00.01. Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha yozilgan dissertatsiyaning avtoreferati).* –T., 2007-yil.
3. *"Bola shaxsini rivojlanishining dolzarb muammolari". Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanining tezis va maqolalar to'plami.* 2008-yil.
4. *Amirova G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B.R.. Maktabgacha ta'lim muassalarida applikasiya mashg'ulotlari. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun ilmiy-metodik qo'llanma.* 2008-y. 9-10-betlar.

Emina ACHILOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BADIY PSIXOLOGIZM MUAMMOSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati uning qissa va romanlari misolida yoritilgan. Asar qahramonlari poetikasi ruhiyat nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, yozuvchining obraz yaratish borasidagi badiiy mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar. Ruhiyat tahlili, obraz, badiiy psixologizm, obraz poetikasi.

В этой статье мастерство Уткира Хошимова в области художественной психологии иллюстрируется его рассказами и романами. Поэтика главных героев произведения анализируется с точки зрения психики. Также исследуется художественное мастерство писателя в создании образа.

Ключевые слова. Психологический анализ, образ, художественный психологизм, поэтика образа.

This article examines Utkir Hashimov's ability to use the art of mental analysis on the example of his novels and novels. The poetics of the characters of the work were analyzed from the point of view of psychology. The author's artistic skills in creating an image are studied.

Key words. Psychological analysis, image, artistic psychologism, poetics of the image.

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek nasrida O'tkir Hoshimovning munosib o'rni bor. U nasrda Abdulla Qahhor, Said Ahmad an'alarini davom ettirib, nasrimizda alohida, o'ziga xos poetik uslub egasi sifatida tanildi. O'tkir Hoshimovning roman, qissa va hikoyalarida so'z san'atining azaliy va bosh muammosi-inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili mavjud. Adibning "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol", "Nur borki, soya bor", "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "Ikki karra ikki – besh" kabi asarlari xalqimiz ko'ngil mulkidan joy olgan. O'tkir Hoshimov "Cho'l havosi" qissasini yaratgandan so'ng uning kelajakda o'zbek nasrining darg'alaridan biri bo'lishi bashorat qilina boshlandi.

1972-yilda yaratilgan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi lirik ifoda va epik ko'lam mushtarakligini aks ettiradi. Aslida ruhiy hissiyot ikki usul: sog'lom e'tiqod va ijtimoiy tartibot darajasi birligiga borib taqaladi. Bu rishtalardan biri uzilsa-chi? Mazkur holatda odamzod hayoti butunlay izdan chiqadi. Shu nuqtayi nazardan adib millatning oliy ideallarini turfa nuqtalarda namoyon qilishga urinadi.

Hikoya ikkinchi jahon urushining insoniyat turmush tarziga, jumladan, millat psixologiyasiga ta'sirini aks ettiradi. Yangicha aspektida yoritilgan asarda katta axloqiy-falsafiy muammoning gumanistik mohiyati badiiy niyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, xarakter mantig'i qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlashmalar yaratadi. Mazkur xususiyatlar ichki nutq, xatti-harakat, vaziyatlar, badiiy sharhlar, hayotiy tafsilotlar birligi tarzida epik makon kategoriyasidan oziqlanadi. Asosiy qahramon – Umri xolaning ikki o'g'li bor, kattasi Shoikrom o'z oilasi bilan yashaydi. Kichik o'g'li Shone'mat sil dardiga chalingan. Tabib unga qo'y suti buyurgan, lekin ona o'z farzandiga sut olib berishga qodir emas, Shoikromning topgan-tutgani ham o'z oilasidan ortmaydi. Ustiga-ustak erta bahorda xonadon koriga yarab turgan sigir ham o'g'irlab

ketilgan. Voqealar drammatizmi XX asrning 45-yili ko'klamida sodir bo'ladi. Sho'rlik onaning qalbi bolaga sut topib berish istagi bilan yonadi. Hatto bu borada mavjud imkonsizlik, nochor ahvol ayolning o'g'rilik qilishga ham monelik etmaydi. To'g'ri, katta farzand qulupnayidan so'rab olinsa ham bo'lardi, lekin birinchidan qaynona kelinidan iymanadi, ikkinchidan, o'zaro munosabatlar ham risoladagiday emas. Chunki bir gal kelin Umri xolaga "bobillab bergan". Asar davomida kuzatiladigan tushkun kayfiyat us-tuvorligi alamzada o'g'ilning qarori yordamida fojiiyaviy nuqtaga ko'tariladi. Shu o'rinda Umri xola va Shoikrom xatti-harakatlaridagi o'xshashlik kitobxonni ajablantirmaydi, Ona o'g'rilik qilish katta gunoh ekanini o'ylab ko'rmaganidek, farzand ham birovning joniga qasd qilish salbiy illat ekanini tushunishni istamaydi. Asosiy aybdor-urush va uning salbiy asoratlaridir. Shu tarzda ijodkorning urush va uning oqibatlariga ruhiy munosabati shakllanadi. Muallif asar to'qimalariga yeyilib ketgan fojeaviy ruhni yuqori bosimda tutib turadi. Mazkur holat goh badiiy chizgilar, goh nutqiy ritorika vositasida umumlashtiradi.

Adibning 1983-yilda yozilgan, dastlab "Mahallaning onasi", keyinchalik, "O'zbeklar" sarlavhasi ostida nashr etilgan hikoyada ona siymosi badiiy tasviri oldingi asarlardagiga nisbatan quyuqlashadi. To'g'rirog'i, ayol timsoli markaziy qahramon darajasiga ko'tariladi. "O'zbeklar"da Otinoyi qiyofasining lirizm bilan yo'g'rilgan tasvir bayoniga urg'u beriladi. Muallif ayol karakterini ochishga qaratilgan, onaxonning boshqalardan ajralib turuvchi jihatlarini quyidagi badiiy detallarga singdiradi. "Mahallada qaysi kampirni uyidan topa olmasangiz, to'ppa-to'g'ri Otinoyinikiga boravering! Otinoyining hovlisi pastko'chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita darvozali pastak uy. Boshqalarning darvozasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunika bo'lsa Otinoyining tomi shifer, hammaning tomida televizor antenasi bor, Otinoyinikida yo'q". Ma'lumki, hikoyada qahramonning ruhiy dunyosidagi o'zgarishlar tipik vaziyat bilan bog'liq holda yoritiladi. O'tkir Hoshimov tiriklik paytida onasining qadriga yetmagan farzand ichki dunyosining dialiktik ziddiyotlarini shtrixlar orqali tasvirlaydi. Psixologizm zalvori yozuvchining inson ruhiyatini kengroq va chuqurroq ifodalashiga xizmat qilib, ijodkorga lirik ehtiros hamda epik tasvir kengligini sintetik tarzda gavdalandirishga ko'mak beradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, psixologizm tushunchasi qahramon shaxsiy dunyosining ochib berilishi bilan cheklanmaydi, balki xarakter tasvirida ijtimoiylik belgilari to'laroq namoyon bo'lishi shartligini mezon darajasiga ko'taradi. Ma'lumki, O'tkir Hoshimov ilk romani "Nur borki, soya bor" da hayotning dolzarb muammolarning ko'rsatishga moyillik kuchli edi, shunga ko'ra uni shartli ravishda "muammoli roman" deb atash mumkin. "Ikki eshik orasi"da esa odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun, "taqdirlar romani" desa bo'ladi. Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh konsepsiyadan, ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko'radi. Umar zakunchi obrazini va boshqa ayrim personajlarni mustasno etganda, qolgan barcha qahramonlar qandaydir urush jafosini chekkan urush odamlaridir.

Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma'nosi, insonning insonlik sha'ni burchi, mas'uliyati, e'tiqodi masalalarini ko'taradi, kitobxonni ular haqida o'ylashga, bahsga chorlaydi. Qanday yashash va yashamaslik kerak, degan savol asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko'tariladi. Bu o'git-falsafa personajlardan biri – Orif oqsoqol tomonidan berilgan ikki eshik orasi to'g'risidagi xalqona hikmatda o'z yakunini topgan. U deydi: "Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganida qo'lidan kelgancha savob ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g'isht qo'yib ketadi. Yana bir xillari bor: o'sha imoratdan aqalli bitta g'isht o'g'irlab

ketgisi keladi. O'g'irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshik oldiga borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi". Muallif shular bilangina cheklanmaydi, bosqinchilik urushining insoniylikka, insoniyatga zid mohiyati, fashizm harbiy jinoyatining mudhish oqibatlarini haqida cheksiz alam bilan yozadi. Binobarin, bu roman boshdan-oyoq urushning achchiq saboqlari orqali odamlarni xushyorlikka chorlovchi, umuman urushga qarshi qaratilgan asardir.

Yozuvchi asarlari orasida Istiqlolga erishganimizdan so'ng yozilgan "Tushda kechgan umrlar" romani alohida o'rin tutadi. 80-yillarning o'rtalarida O'zbekistonda markaz tomonidan "paxta ishi", "o'zbek ishi" nomlari bilan markaz tomonidan poraxo'rlikka qarshi kurashish, unga barham berish niqobi ostida, aslida esa, "siyosiy tozalash" ishlari olib borildi. Stalin davridagi qatag'onlar butun ittifoqni qamrab olgan bo'lsa, qayta qurish davrida qatag'on buluti faqat birgina millatni badnom etdi. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" degan soxta uydirmalar o'ylab chiqarildi. Maqsad ittifoqda avj olib ketgan boshboshdoqlik, qo'shib yozish, korrupsiya kabi muammolarni O'zbekiston misolida bartaraf etishga kirishildi. Asar nomi ham bejiz bunday tanlanmagan. Adib 70 yil davomida mudroq holatda bo'lgan, uyquda hayot kechirgan millatning ijtimoiy, ma'naviy holatiga ishora beryapti. Asarda ko'p yillar kommunistik ahdiga sodiq yashagan Rustamning otasi tuhmat bilan qamalgandan so'ng, o'g'liga yozgan xatida aytadi: "O'ylab qarasam o'tgan umrim-umrimas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u, tush ko'rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko'rib, o'sha "birov" qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman... uyg'onishga esa qo'rqqanman... mana endi, uyg'onib, yonimga qarasam, menga o'xshaganlar ko'p ekan..." Bu so'zlar o'zi yashab turgan tuzumning adolatsizliklarini ko'rgan, nohaq jabr tortgan raisnigina emas, roman personajlarining barchasiga, ular timsolida esa minglab jabrdiydalarga ham tegishli. Ular bu qo'rqinchli tushdan uyg'onib amin bo'ladilarki, ular ishongan g'oyalar puch, bir umr e'tiqod qo'rganlari sarob bo'lib chiqdi. Adib bu tuzumning va unga ishongan odamlarning taqdiridagi ma'nisizliklarni shu tarzda ochib beradi. Romanda insonlar taqdiri orqali mustabid tuzumning g'ayriinsoniy mohiyati ochib beriladi.

Asarda ijtimoiy muhit ta'sirida xarakteri shakllangan Soat G'aniyev obrazi juda haqqoniy tasvirlangan. Uning xarakteridagi bo'yin egmaslik, cho'rtkesarlik, shafqatsizlik bolaligidayoq mavjudligini voqealar tasvirida ko'ramiz: "– Ha-a, komissar! Qani, bir g'ayrat qil-chi, ko'ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo'larkan!... Soat tag'in oqimga qarshi suzishga tushdi... Bora-bora qo'llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolgani sezdi... o'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi... – Eshitib qo'yinglar! – dedi Soat alam aralash g'azab bilan. – Men komissar bo'laman! Albatta bo'laman! Hammangni otaman"! Bu satrlarda komissar bo'lish orzusida yurgan, bolalikning beg'ubor damlarini o'z boshidan o'tkazayotgan Soat G'aniyevning xarakteridagi xususiyatlar ifodalangan. Komissar umri davomida hayot oqimiga qarshi yuradi. Asar boshida keltirilgan va ramziy ma'noda tasvirlangan. "O'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini" anglagan komissar hayot oqimiga qarshi harakat qiladi. Darhaqiqat, asarda Rustam, Qurbonoy, Komissar, Sanjar, Shahnoza, Grisha kabi qahramonlarning taqdiri bir ipga chizilgandek, go'yo. Yozuvchi "Tushda kechgan" umrlar romani orqali urush oqibatida inson ruhiyatida qanday g'alayonlar kutilganligini ko'rsatgan. Asardagi ana shu davrning, tuzumning eng katta qurboni ham Qurbonoydir. Qurbonoy – o'zbek ayollarining timsoliga o'xshaydi. Unda haqiqiy o'zbek ayollariga xos bo'lgan andisha, mehr-oqibat, iymon, pokizalik saqlanib qolgan. To'g'ri, uning ismi haqida asarning bir o'rnida to'xtab o'tiladi. Bu komissar navbatdagi "tozalash"ni o'tkazayotgan

paytda, Qurbonoylarning uyida yapon rezidentiga yozilgan xatni tintish jarayonida yuz beradi. “Qurbonoy emish! Xo’p topibsanmi, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug’ilgan. Maktabda o’qituvchilik qilasan, uyingda Qur’on o’qiysan... Ilon! Munofiq!” Qizaloq onasini quchoqlab turar, chamasi dadasining oldiga uchib borib bo’yniga osilgisi kelar, ammo notanish “amaki”dan qo’rqar edi.” Bu o’rinda yozuvchining niyati o’sha davrda dinga, diniy marosimlarga munosabat qanday bo’lganligini ko’rsatish uchungina Qurbonoy ismini tanlaganligi biroz haqiqatdan chetroq tuyuladi. Albatta, biz ta’kidlagan fikrlarni yozuvchi o’ylagani aniq. Biroq, menimcha, Qurbonoy obrazi asarda davrning eng katta qurboni sifatida gavdalanadi. Xolbuki, u go’dakligidan boshlab qancha-qancha siyosiy zug’umlarni ko’rgan, bobosidan, otasidan va so’ngida onasidan ayanchli holda ajragan edi. Bu voqealar, zug’umlar uning yuragini olib qo’ygan edi. Shuning uchun ham u taqdirga tan bergan, yozig’ida nimaiki bo’lsa, xudodan ko’rguvchi edi. Bir qaraganda Qurbonoy obrazi asarda biz istaganchalik vazifa bajarmayotgandek tuyuladi. Uning asar bosh qahramoni Rustam bilan bir “dom”da istiqomat qiluvchi farrosh ayol ekanini bilamiz. Qurbonoy o’rniga boshqa obraz kiritilsa yoki umuman kiritilmasa ham bo’ladigandek. Biroq, gap bunda emas, Qurbonoy bilan Rustam o’rtasidagi munosabat unchalik chuqurlashmagan bo’lsa-da, davr muhiti, tuzum kishilari haqidagi xulosalarimizning yana ham quvvatliroq bo’lishida Qurbonoy obrazining o’rni kattadir. Chunki, uning taqdiri, o’tmish fojiasi bevosita Komissar bilan bog’liqdir. Komisar esa, necha minglab qurbonoylarning boshiga yetgan jamiyatning “qo’li” hisoblangan. Komissar xarakterining to’laqonli ochilishida Qurbonoy obrazining roli kattadir. Komissar Qurbonoyning butun umrini, yoshligini poymol qilgan shaxs. Otasi, To’lagan akani tuhmat bilan qamatib yuboradi. Onasi Fotimani ham nomusiga tegib, uning umriga zomin bo’ladi. Lekin Qurbonoy bularning hech qaysiga javob qaytarmaydi. Hammasini Xudoga soladi. Komissar Sovet hukumatining manqurti butun umr kommunistni quraman deb yashaydi. Davr, ijtimoiy muhit shunday ediki, hattoki, ta’riflab berish mushkul bo’lgan darajada, kishilar e’tiqodi “dogma” holatiga keltirilgan edi. Komissar ham ana shunday e’tiqodi qotgan, o’zi uchun qat’iy normalarni yaratib olgan – “prinsipial” kimsa edi. Uning ruhiyat olamiga, psixologik va ma’naviy qiyofasiga nazar tashlaydigan bo’lsak, o’zgalar fikrini tan olmaydigan, o’z fikrida “sobit”, o’zini jamiyatning eng kerakli ustuni, ya’ni uni “yot unsur” lardan tozalovchi kishi deb biluvchi kimsa ekanini bilib olamiz.

O’zining minglab kitobxonlarini topgan O’tkir Hoshimov asarlari nafaqat o’zbek xalqi, balki qardosh xalqlarning ham sevimli yozuvchisiga aylangan. Biz uning kitoblarini o’qiganimizda ijodi xalq hayoti bilan naqadar yaqin ekanligining guvohi bo’lamiz. Uning yozganlari afsona, ertak ham emas, sof haqiqat. Kitobxon unda yo otasi, yo akasi va yo yaqin kishisi bilan uchrashadi. Olamdan nom-nishonsiz o’tib ketgan, ammo shon-sharaf bilan yashagan kishilar ko’z oldimizga keladi. Ularning quvonchlaridan ko’nglimiz ko’tarilsa, g’amu-alamlaridan ko’zlarimizdan duv-duv yosh to’kiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O’. *Tanlangan asarlar IV. Roman, qissa, hikoyalar, hajviyalar, tarjimalar o’ylar.* – T.: Sharq, 2011-y.
2. Hoshimov O’. *“Tushda kechgan umrlar” romani. G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.* – T., 2002-y.
3. Rasulov A. *“Badiiylik – bezavol yangilik”.* –T.: Sharq NMK. 2007. –336-b.

Xusan MURATOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at" kafedrası dotsenti v.v.b.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARI HAMDA MULTIMEDIALI O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishiga bog'liq. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet texnologiyalari, elektron ta'lim, elektron ta'lim resurslar, multimedia, multimedial o'qitish.

Разработка технологии индивидуализации обучения с независимой системой дистанционного обучения и ускорения обучения студентов с помощью электронного обучения на основе информационных технологий. Речь идет об организации учебного процесса на основе электронного обучения, в том числе о некоторых изменениях в принципах улучшения подачи учебных материалов.

Ключевые слова. Информационные-коммуникационные технологии, интернет-технологии, электронное обучение, ресурсы электронного обучения, мультимедиа, мультимедийное обучение.

Development of technology for individualization of education with an independent distance learning system and acceleration of student learning using e-learning based on information technology. There is talk of organizing the learning process on the basis of e-learning, including some changes in the principles of improving the presentation of educational materials.

Key words. Information and communication technologies, Internet technologies, e-learning, e-learning resources, multimedia, multimedia learning.

S o'nggi vaqtlarda ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar an'anaviy ta'limning ba'zi turlariga qaraganda onlayn ta'limning afzalliklari ko'proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o'qitish platformalari ko'paymoqda, bunda an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta'lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta'lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari, ta'lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo'llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo'ladi. Bu tendensiyaga bo'lgan qiziqish ta'lim jarayonida talabalarga ta'sir etadi va ta'lim sifatini oshiradi. Ko'pgina tadqiqotlar onlayn ta'lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo'lishini ko'rsatgan, ya'ni talabalarning mustaqil ta'lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Elektron ta'limda rivojlanishini talabalarning raqamli dunyoda o'zini erkin tutishi, ya'ni kerakli ma'lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko'rishimiz mumkin. Vaqt o'tgan sayin ushbu tendensiyaga

texnologiyalarni qo'llash asosida an'anaviy ta'limning xohlagan turi, metodi, ta'lim berish usulini kiritishimiz mumkin.

2016-yil Campus Technology o'qituvchilar o'rtasida "Texnologiyalarni qo'llab dars o'tish" mavzusida so'rovnoma o'tkazilib, bunda 71 foiz o'qituvchilar an'anaviy ta'lim bilan birga onlayn manbalardan foydalanishini aytgan. Elektron ta'lim (adaptiv ta'lim, onlayn ta'lim modullarini qo'llash) afzalliklarini an'anaviy ta'lim ijtimoiy texnologiyalari va media resurslarini birgalikda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Maqsad esa talabalarning demografik guruh va ijtimoiylashuvidan kelib chiqqan holda ularning ehtiyojlarini hisobga olib ta'lim modelini ishlab chiqish. Tendensiyaning yanada rivojlantirish uchun OTMda talabalar ta'limi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Masalan, Reyerson universitetining arxitektor-talabalari virtual reallik garniturasini o'zlarining hajmi katta loyiha eskizlari uchun qo'llamoqda. Ko'pgina o'qituvchilar o'quv jarayonini internet bilan bog'lasalarda, kuzatuvchilarning fikricha aralash ta'limda internetning ham roli bor, bunda talaba individual yondashuvga ega bo'ladi. Elektron ta'lim muammosi yechimi "NMC Horizon Hisoboti – OTM" nashriyotining oxirgi 5 yillik tendensiyalari ro'yxatiga kiritilgan.¹ Londondagi Imper tibbiyot kolleji talabalari an'anaviy va onlayn ta'limni birgalikdagi qo'llanilishiga asoslangan ikkita tajribada ishtirok etdilar. Talabalar video ma'ruzani ko'rib, vazifalarni bajarish imkoniyatini mavjudligini yuqori baholadi. Talabalar ushbu model tushunarli animatsiyalar bilan yaxshi tizimlashtirilgani va o'z-o'zini baholashda interaktiv savollarga egaligini aytib o'tishdi. Amerika OTMlari ham qabul qilingan yechim auditoriyada va auditoriyadan tashqarida amalga oshirsa bo'ladi degan fikrdalar. Yurist-talabalarga esa aralash ta'lim ma'ruza va materiallarni internetda ko'rish imkonini beradi, bundan tashqari, murakkab savollarga javob topish uchun ham vaqt yetadi deb aytmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqoriroqdir (Means, Toyama, Merfi, Bakiya va Jons, 2013). Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir. Misol keltiradigan bo'lsak, Vang (2008) Tayvand davlatida 10 yil tibbiyot sohasida o'qib, onlaynda o'qitilayotgan tibbiyot bo'yicha video ma'ruzalar yordamida aholi orasida tibbiy xizmatni yaxshilanganligini aytadi. Yana bir misol, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shahrida joylashgan Chung-Ang universitetida har bir fan bo'yicha onlayn elektron sinfi (e-class) mavjud. Fanga qatnashishga ro'yxatdan o'tgan talaba "e-class" ga ham kirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu "e-class" da nafaqat Microsoft Power Point dasturida qilingan taqdimotlar balki, video ma'ruzalar, uy vazifasi topshiriqlari ham mavjud. Mashg'ulotga ma'lum sabab bilan qatnasha olmagan yoki darsni yaxshi o'zlashtira olmagan talaba "e-class" ga kirib video ma'ruzalardan foydalanishi mumkin.² Bu albatta ta'lim olish samaradorligini yanada oshiradi va yetuk kadrlar tayyorlashga zamin bo'ladi degan fikrdaman.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimida

¹ Measuring the Information Society (MIS). Executive Summary. ITU edition, 2015.

² Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education – M.: IITO YUNESKO, 2013.

kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to'xtovsiz kechmoqda.

Umuman olganda, hozirgi kunda jamiyatni standart sanoatlashgan iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishi kuzatilmoqda. Yangi iqtisodiyot mijozlari – foydalanuvchilar iqtisodiyoti hisoblanadi, shuning uchun jahon axborot va telekommunikatsiya sanoatini rivojlanishini asosiy omili keng ko'lamda yangi avlod xizmatlarini taqdim etish bo'lib kelmoqda.

Ta'limda fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil masofaviy ta'lim tizimi bilim olishni individuallashtirish, texnologiyasini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan (keyingi o'rinlarda ET deb yuritiladi) foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'ldir. Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ETni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;
- o'quv jarayoni uchun ET mo'ljallangan ta'lim texnologiyalarini yaratish va qo'llash;
- talabalarni zamonaviy ET texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;

- ETni joriy etish orqali ta'lim-tarbiya va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron axborot resurslari ta'limga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidan iborat bo'lib, u ta'limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

- ichki omillar – bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

- tashqi omillar – bu ETning texnika uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

ETdan foydalanish esa, ular bilan muloqotda foydalanuvchilarning ko'nikma va malakalariga bog'liq. Shuning uchun, dastlab zamonaviy telekommunikatsiya vositalarining o'zi nimaligini bilib olish muhim sanaladi.

